



OSIYO XALQARO  
UNIVERSITETI



# OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

2024, №1

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Научно-теоретический и методический журнал

Scientific theoretical and methodical journal

EDITION 1

<https://scientificjournal.uz/>



Osiyo Xalqaro  
Universiteti

# “OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024-yil, 1-son

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

BUXORO - 2024



## Muassis: OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 04-aprel № 25-0649-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.



### Bosh muharrir:

Elov Ziyodullo Sattorovich, Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

### Jamoatchilik kengashi raisi:

S.S. Dexkanov Osiyo xalqaro universiteti rektori

### Mas’ul kotib:

M.E. Sattorov

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o‘zbek, rus va ingлиз tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O‘zbekiston Respublikasi,

Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24-uy,

E-mail: [sjkamolot@gmail.com](mailto:sjkamolot@gmail.com)

Jurnal sayti: <https://scientificjournal.uz/>



ISSN-3030-3796

1936



*Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riliği uchun muallif mas’uldir.*



## ТАHRIR HAY'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

<b>DEXKANOV S.S.</b>	Osiyo xalqaro universiteti rektori
<b>KADIROV U.D.</b>	Psixologiya fanlari doktori, professor
<b>JABBOROV X.X.</b>	Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
<b>BAFAYEV M.M.</b>	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>JUMAYEV U.S.</b>	Psixologiya fanlari nomzodi, doston
<b>OLIMOV L.Y</b>	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>OLIMOV Sh.Sh.</b>	Pedagogika fanlari doktori, professor
<b>JO'RAYEV X.O.</b>	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
<b>IZBULLAYEVA G.V.</b>	Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
<b>KOZUBSOV I.N.</b>	Pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)
<b>DAVRONOVA Sh.F.</b>	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>IBODULLAYEV Z.R.</b>	Tibbiyot fanlari doktori, professor
<b>IXTIYAROVA G.A.</b>	Tibbiyot fanlari doktori, professor
<b>KARIMOV B.Sh.</b>	Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
<b>QILICHEV B.E.</b>	Filologiya fanlari doktori, professor
<b>RO'ZIYEVA M.YO.</b>	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>HAYITOV Sh.A.</b>	Tarix fanlari doktori, professor
<b>ORZIYEV M.Z.</b>	Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>SATTOROV M.E.</b>	"KAMOLOT" nashriyoti direktori



# Mundarija

<b>07.00.00 – TARIX FANLARI</b>	
<b>Qoryog‘diev Zufar Oxunjonovich.</b> Ta’lim tizimidagi islohotlar yurt ravnaqining asosidir	6
<b>Orziyev Maximud Zayniyevich.</b> XIX asr so’nggi choragi – XX asr boshlarida Afg’onistondagi siyosiy o’zgarishlarning migratsiya jarayonlariga ta’siri xususida	14
<b>08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI</b>	
<b>Rashidov Mels Karimovich.</b> Erkin iqtisodiy zonalarning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish mezonlari	27
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<b>Olimov Temir Hasanovich.</b> Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug’ullanuvchilarda obektiv omillarni hisobga olish va ilmiy qiziqishni shakllantirish	40
<b>Rashidov Xurshid Karimovich.</b> Ommaviy sport oila va mahalla hamkorligini tashkil etishda – muhim vosita sifatida	49
<b>Lukmonova Salomat Gafurovna.</b> Oliy ta’limda tyutorlik faoliyatining o’ziga xos o’rni	61
<b>19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI</b>	
<b>Chudakova Vera Petrovna., Bafayev Muxiddin Muxammadovich.</b> Tolerantlikning ijtimoiy-psixologik va nazariy-metodologik asoslari	69
<b>Qodirov Umarali Do’stqobilovich.</b> Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning o’ziga xos jihatlari	81
<b>Jabborov Xazrat Xusenovich.</b> Milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	92
<b>Olimov Laziz Yarashovich.</b> Sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligining o’ziga xosligi	104
<b>Qodirova Odina Djurabaevna.</b> Ta’lim jarayonida talabalar emotsiunal intellektni rivojlanishning psixologik asoslari	121
<b>Maxmudova Zulfiya Mehmonovna.</b> Qo’riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi korrelyatsiyasi	133
<b>Ostonov Jasur Shopirjonovich.</b> O’smirlarda psixologik himoya va koping xulq-atvor omillari namoyon bo’lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	145
<b>Akbarov Umidjon Qodirbayevich.</b> Axborot-psixologik xavfsizligini ta’minalashning ba’zi jihatlari	163
<b>Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi.</b> Deviant xulq-atvorli o’smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	172



**07.00.00 – TARIX FANLARI**



## TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR YURT RAVNAQINING ASOSIDIR



*Qoryog'diyev Zufar Oxunjonovich  
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri*

### **Annotasiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan ta'limga oid keng ko'lamli islohotlarning mohiyati ochib berilgan. Uzluksiz ta'limning turli bosqichlariga, qolaversa ilm-fan rivojiga qaratilgan yuksak e'tiborning samarali natijalari tahlil qilingan. Bu taraqqiyot strategiyasi islohotlarning eng asosiy drayveri sifatidagi katta ahamiyat kasb etayotganligi asoslangan.

**MAQSAD:** Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohotlarini atroflicha tahlil qilish, uning ahamiyatini yoritish, tarixiy



jarayonlar kontekstida o‘zaro qiyosiy o‘rganish va mavjud muammolarga ilmiy echimlar berish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Mavzuga oid manbalarni milliy manbalar va xorijiy manbalar tarziga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Har bir tahlil qilinadigan materialarni tarixiy-qiyosiy usul va xolislik tamoyillariga asoslangan holda oolib berish orqali samarali natijaga erishiladi.

**XULOSA:** Mamlakatimizda ta’lim tizimining yangi sifat bosqichiga qadam qo‘yishi oldimizda turgan ulkan maqsadlarga erishishining eng muhim omili bo‘lib qoladi. Mamlakatimizning jahon miqyosidagi nufuzi, insonlarimizning munosib turmush tarzi, barqaror rivojlanish kabi yutuqlarni qo‘lgan kiritish uchun ilm-fan va ta’limni rivojlantirishga birinchi galdegisi vazifa deb qarash juda muhim hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, fan, ta’lim guruhlari, “Pley” guruhlar, maktab, konseptsiya, rivojlanish, tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat

## РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ – ОСНОВА ПРОГРЕССА СТРАНЫ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье раскрывается характер масштабных реформ в сфере образования в нашей стране. Анализируются эффективные результаты повышенного внимания, направленного на различные этапы непрерывного образования, а также развитие науки, основанного на том, что стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы приобретает большое значение как главный двигатель реформ.

**ЦЕЛЬ:** Подробно проанализировать образовательные реформы, проводимые в новом Узбекистане, подчеркнуть их значение, изучить их в контексте исторических процессов, а также предложить научные решения существующих проблем.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Целесообразно изучать источники, относящиеся к теме, в виде отечественных источников и зарубежных источников. Эффективный результат достигается за счет раскрытия каждого анализируемого материала на основе историко-сравнительного метода и принципов объективности.



**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Выход на новый качественный этап системы образования в нашей стране станет важнейшим фактором в достижении стоящих перед нами великих целей. Очень важно рассматривать развитие науки и образования как первоочередную задачу для достижения таких целей, как репутатсія нашей страны на мировом уровне, достойный образ жизни нашего народа, устойчивое развитие.

**Ключевые слова:** образование, наука, образовательные группы, «Игровые» группы, школа, концепция, развитие, образование, духовность, просвещение.

## REFORMS IN THE EDUCATION SYSTEM ARE THE BASIS OF THE COUNTRY'S PROGRESS

### **Annotation.**

**INTRODUCTION:** This article reveals the nature of large-scale reforms in the field of education in our country. The effective results of increased attention aimed at various stages of lifelong education, as well as the development of science, are analyzed. It is based on the fact that the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 is gaining great importance as the main driver of reforms.

**AIM:** To analyze in detail the educational reforms carried out in the new Uzbekistan, emphasize their importance, study them in the context of historical processes, and also propose scientific solutions to existing problems.

**MATERIALS AND METHODS:** It is advisable to study sources related to the topic in the form of domestic sources and foreign sources. An effective result is achieved through the disclosure of each analyzed material based on the historical-comparative method and the principles of objectivity.

**CONCLUSION:** Entering a new qualitative stage of the education system in our country will be the most important factor in achieving the great AIMs facing us. It is very important to consider the development of science and education as a priority task for achieving such achievements as the reputation of our country at the global level, a decent lifestyle for our people, and sustainable development.



**Key words:** education, science, educational groups, "Play" groups, school, concept, development, education, spirituality, enlightenment

Bugungi kun jahon ilm-fani va ta'lim tizimi shiddat bilan rivojlanib borayotgan o'ziga xos davr hisoblanadi. Dunyo miqyosida insoniyat hayot tarzi o'zgacha qiyofa kasb etib, taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yayotganligi aynan ilm-fan sohasida qo'lga kiritilayotgan mislsiz yutuqlarning natijasi, desak xato bo'lmaydi. Mazkur jarayonlar mamlakatimizda ham ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ilm-fan ravnaqini ta'minlash, xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni intelektual salohiyatini yanada oshirish yo'lidagi katta maqsadlarni ko'zlanishiga turki bo'ldi. O'z davrida jadid bobolarimiz armoni bo'lgan ma'rifatli millat, ilmli jamiyat orzusi bugun ushalayotgandek go'yo. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'biri bilan aytganda, ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur<sup>1</sup>. Mamlakat istiqboli ilm-fan sohasida qo'lga kiritgan yutuqlar bilan o'zaro bog'liqdir. Shu sababli ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Demak, dastavval ta'lim sohasidagi islohotlar haqida tahlil olib borilar ekan, uzlusiz ta'limning eng dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimi haqida to'xtalish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, 2019-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4312-son prezident qarori<sup>2</sup> qabul qilingan bo'lib, aynan mazkur xujjat tizimdagi ko'plab ijobiy o'zgarishlarni ta'minladi. Natijada o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama etuk voyaga etkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Maktabgacha ta'limning moslashuvchan ish jadvali

<sup>1</sup> Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. -B 144.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-4327235>



hamda rivojlantiruvchi, tuzatuvchi xizmatlar va tadbirlarning keng ko’lamini o’z ichiga olgan bir qancha muqobil shakllarini joriy etish va rivojlantirish ishlari amalga oshirildi. Xususan, har xil yoshdagi bolalar uchun qisqa muddatli maktabgacha ta’lim guruhlari – “Pley-guruhs” maktabgacha yoshdagi bolalarga uyiga borib maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko’rsatish dasturi – “Home visits” kabilar bunga misol bo’la oladi. Bu orqali 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasida ko’rsatilgan muhim maqsadlardan biri, ya’ni maktabgacha qamrov darajasini oshirish vazifasining echim topayotganligi, chekka hududlarda ham yosh avlodni maktabgacha ta’limga jalb etish imkoniyatining shakllanganligi katta natijalardan sanaladi.

Shuni ham qayd etish lozimki, maktabgacha ta’limda qamrov darajasi bilan birga sifat darajasiga bo’lgan e’tibor uyg‘un tarzda kechsagina ko’zlangan maqsadga erishilishi mumkin. Shuning uchun bugunda faqat bino va jihozlarga emas, ta’lim sifatiga ham alohida e’tibor qaratilayotgani ayniqsa quvonarli. Zero, qamrovni aniq sanab hisoblab ko’rish mumkin, biroq sifat mavhumroq tushuncha uni aniqlash va baholash oson emas. Aynan sifatga bo’lgan talabni oshirish maqsadida hozirda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan Ta’lim tashkilotlarning attestatsiyadan o’tkazish mezonlari tasdiqlangan<sup>3</sup>. Mazkur xujjat bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o’tkazish mezonlari ham tasdiqlangan bo’lib, jahon tajribasini o’rgangan holda bir qator yangiliklar kiritildi. Albatta bu o’ziga xos yangi qadam bo’ldi. Biroq maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yangi mezonlarni to‘g‘ri tushungan holda, real hayotda qo’llashda muammolar ham mavjud. Ta’lim sifatini hamma bir xil aniq mezonlar bo‘yicha baholashini yo’lga qo‘yilmas ekan, bu borada rivojlanish bo’lmaydi. Shu sababli ham ushbu yangiliklar mazmun-mohiyatini tushungan holda, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga yangi tizimni yo’lga qo‘yishga yordam beradigan trenerlar tayyorlanmoqda.

Albatta, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish uchun olib borilayotgan islohotlar o‘z navbatida uning uzviy davomi bo’lgan maktab ta’limining ham sifat darajasiga ijobjiy ta’sir etmay qolmaydi. Maktab

<sup>3</sup> Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 27-yanvarda 3214 raqam bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan. <https://lex.uz/docs-4715787>



ta'lifi mamlakat ta'lim tizining taraqqiy etishida o'zining muhimlik darajasi bilan alohida ajralib turadi. Sababi, kelajak avlod aynan matabda tahsil olish jarayonida o'zining etuk shaxs sifatida shakllanish jarayonini boshdan kechiradi. "Yangi O'zbekiston maktabostonasidan boshlanadi" degan ulug' g'oya asosida mamlakatimizda maktab ta'limini umummilliy harakatga aylantirish bo'yicha boshlangan ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda<sup>4</sup>. Maktab ta'limini rivojlantirish uchun esa, bir qator asosiy yo'naliishlardagi dolzarb vazifalarni doimiy ravishda davom ettirishni talab etadi.

Birinchidan, maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyatga kiritish;

Ikkinchidan, jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish;

Uchinchidan, o'qituvchilarining yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

To'rtinchidan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg'or maktab direktori va namunali o'qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

Beshinchidan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo'naliishda uzlusiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, bola ta'lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o'rnini oshirish;

Oltinchidan, o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish;

Ettinchidan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning xalq ta'limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta'lim jarayonlarini jadallashtirish va boshqalar.

Ta'lim sohasidagi islohotlar puxta o'ylangan va ilmiy asoslangan shaklda olib borish bugun jamiyatimiz ziyorilariningning eng muhim

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh.M.Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "Ozbekiston" nashriyoti, 2022. – B 213.



mas'uliyatiga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida<sup>5</sup> ta'lif sohasida boshlangan islohotlarni davom ettirish zarurligini ta'kidladi. Shundan kelib chiqib, 2023-2024 o'quv-yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lif muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'nal-tirilgan yangi o'quv dasturlarini amaliyatga kiritilish vazifalari izchil davom ettirilayotganligi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bu kabi muhim islohotlar yoshlarning bilim olishga, ilmiy tadqiqotlarga rag'bat hissini uyg'otishi shubhasiz. Oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovation infratuzilmasini shakllantirish bugun ta'lif tizimi oldidagi strategik vazifalardan biri sifatida turibdi. Xususan, ta'lif, fan, innovasiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etishni izchil davom ettirish juda muhim. Oliy ta'lif muassasalari hududida ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish va klaster usulida faoliyat yuritishini tashkil etish, ishlab chiqarish rivojlangan hududlar, shu jumladan iqtisodiy zonalarda oliy ta'lif muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilayotganligi jahon standartlariga mos ta'lif tizimini joriy etilayotganligining yorqin dalilidir.

Bugungi eng zaruriy chora-tadbirlar sifatida aytulganda, xorijiy oliy ta'lif muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lif dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyatini kengaytirish, hamkorlikda o'tkaziladigan ilmiy konferensiylar va seminarlar sonini ko'paytirish, xalqaro ilmiy va ta'lif loyihibalarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish juda muhim. Buning uchun barcha imkoniyatlar yaratilganligini oliy ta'lif sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lif muassasalari, shu jumladan nufuzli xorijiy oliy ta'lif muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lif bilan qamrov darajasi kengaytirish, sohada raqobat muhiti yaratilganligida ko'rish mumkin.

<sup>5</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/5774>



Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakatimizda ta’lim tizimi o‘zining islohotlar davrini yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Ta’lim tizimining eng quyi bosqichidan boshlab barcha bo‘g‘inlarini ilm-fan sohasida ajdodlarimiz qo‘lgan kiritgan va uzoq tarixiy tajribaga asoslangan milliy yo‘limiz, qolaversa jahon andozalariga mos rivojlanish tendensiyalarini o‘zida aks ettirgan islohotlar qamrab olmoqda, desak xato bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish, ilm-fan sohasi vakillariga yaratilayotgan keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar, malakali pedagog kadrlar va olimlarning yangi avlodи shakllantirish yo‘lida qilinayotgan amaliy ishlar yaqin-yillarda o‘zining sermahsul natijasini berishi va O‘zbekistonda yangi uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorining yaratilishi shubhasiz. Ayni shu masalalar Taraqqiyot strategiyasining eng asosiy vazifalaridan qilib belgilanganligi bu jarayonlarning ortga qaytmas darajada olg‘a ildamlashini ta’minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M.Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “Ozbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.
2. Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 bet.
3. <https://lex.uz/docs/-4327235>
4. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Qoryog‘diyev Zufar Oxunjonovich, (PhD)*

*Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro, Tong ko‘chasi 19-uy*

*[Koryogdiyev.zufar@gmail.com](mailto:Koryogdiyev.zufar@gmail.com)*



**XIX ASR SO'NGGI CHORAGI – XX ASR  
BOSHLARIDA AFG'ONISTONDAGI SIYOSIY  
O'ZGARISHLARNING MIGRATSIYA  
JARAYONLARIGA TA'SIRI XUSUSIDA**



*Orziyev Mahmud Zaynievich*  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahri

**Annotatsiya:**

**KIRISH.** Ushbu maqolada Janubiy Turkiston Afg'oniston tomonidan bosib olingandan keyin, mahalliy aholining turli siyosiy jarayonlarda o'zlariga nisbatan adolatsiz, shafqatsiz munosabatda bo'lgan



afg'onlardan qochib, Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi hududlariga kirib kelishi sabablari oolib berilgan.

**MAQSAD.** Migratsion jarayonlar asosan siyosiy jarayonlar keltirib chiqargan migratsiyalar, ularni keltirib chiqargan omillar, buyuk davlatlarning migratsion jarayonlarga ta'siri masalalari oolib berilgan.

**MATERIALLAR VA METODLAR.** Turli tarixiy adabiyotlar va 1867-1917-yillar davomida yartilgan "Turkinston to'plami" manbasi asosiy materiallarni tashkil etadi. Mavzuni xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, tarixiylik usullaridan foydalangan holda yoritdik.

**XULOSA.** Siyosiy migratsiyalar tarixda kechgan ziddiyatli voqeyleklar natijasida yuzaga kelib, ko'p hollarda ma'lum bir etnosni o'z yashash joyidan majburiy ko'chishiga sabab bo'ladi. Siyosiy migratsiyaga ta'sir etuvchi omillar esa buyuk davlatchilik g'oyalari asosida shakllanadi.

**Kalit so'zlar.** Migratsiya, Janubiy Turkiston, ayg'oqchi, yozishma, qo'zg'olon, ziddiyat, kelishuv, zulm, shafqatsiz, diplomatiya, pushtunlashtirish, kanal

## О ВЛИЯНИИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПЕРЕМЕН В АФГАНИСТАНЕ В ПОСЛЕДНЕЙ ЧЕТВЕРТИ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА НА МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ

### Аннотація.

**ВВЕДЕНИЕ.** В данной статье после оккупации Южного Туркестана Афганистаном причины побега местного населения от афганцев, несправедливо и жестоко обращавшихся с ним в различных политических процессах, проникли на территории Бухарского эмирата и Российской империи.

**ЦЕЛЬ.** Миграционные процессы обусловлены главным образом политическими процессами, раскрываются факторы, вызвавшие их, а также вопросы влияния великих держав на миграционные процессы.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ.** Основными материалами являются различная историческая литература и источник «Туркестанский сборник», изданный в 1867-1917 годах. Мы освещали тему, используя методы хронологической последовательности, сравнительного анализа и историчности.



**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Политические миграции возникают в результате противоречивых реалий истории и во многих случаях становятся причиной вынужденной миграции определенного этноса с места его проживания. Факторы, влияющие на политическую миграцию, формируются на основе идей великой государственной мудрости.

**Ключевые слова.** Миграция, Южный Туркестан, шпион, переписка, восстание, конфликт, соглашение, притеснение, жестокость, дипломатия, пуштунизация, канал

## ON THE INFLUENCE OF POLITICAL CHANGES IN AFGHANISTAN IN THE LAST QUARTER OF THE 19TH CENTURY - THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY ON MIGRATION PROCESSES

### **Annotation.**

**INTRODUCTION.** In this article, after the occupation of South Turkestan by Afghanistan, the reasons why the local population escaped from the Afghans, who treated them unfairly and cruelly in various political processes, entered the territories of the Bukhara Emirate and the Russian Empire.

**AIM.** Migration processes are mainly caused by political processes, the factors that caused them, and the issues of influence of great powers on migration processes are revealed.

**MATERIALS AND METHODS.** The main materials are various historical literature and the "Turkistan Collection" source, published in 1867-1917. We covered the topic using the methods of chronological consistency, comparative analysis, and historicity.

**CONCLUSION:** Political migrations arise as a result of conflicting realities in history, and in many cases cause the forced migration of a certain ethnic group from its place of residence. The factors affecting political migration are formed on the basis of the ideas of great statesmanship.

**Keywords.** Migration, South Turkestan, spy, correspondence, rebellion, conflict, agreement, oppression, cruel, diplomacy, Pashtunization, channel



*XX* asrning ikkinchi yarmida Turkiston oʻlkasi mustamlakachi davlatlar tomonidan bosib olingan yoki qaram, vassal davlatlarga aylantirishgan edi. Sharqiy Turkiston Xitoyning Sin imperiyasi tomonidan istilo qilingan boʼlsa, Gʼarbiy Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingan, Buxoro amirligi, Xiva xonliklari esa vassal davlatga aylantirilgan. Turkistonning Janubiy qismi Afgʼoniston davlati tomonidan istilo qilingan boʼlib, bu erdagи oʼzbek bekliklari hududida afgʼonlar Chahorviloyat djeb nom bergan oʼlka tashkil qilingan. Buxoro va Afgʼoniston oʼrtasida ushbu hududlar uchun kurashlar 1869-1873-yillardagi ingliz-rus kelishuviga koʼra toʼxtatilgan boʼlib, Buxoro amirligining Janubiy Turkistonga daʼvosini Rossiya imperiyasi taʼsiri natijasida oʼzaro kurashlardan saqlanishiga erishilgan. Ammo, Afgʼonistonda Sheralixon (1863-1879 yy) davrida afgʼonlarning Janubiy Turkistondagi oʼzbek-tojiklarga koʼrsatgan zulmlari natijasida 12 ming oilaning Buxoro amirligi hududiga qochib oʼtganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib oʼtilgan<sup>6</sup>. Bu hol Buxoro amirligi va Rossiya imperiyalarining Afgʼoniston bilan munosabatlariga salbiy taʼsir koʼrsatgan.

Oʼzbeklarning Afgʼoniston hududidan qochib oʼtishi yoki Rossiya imperiyasi homiyligiga oʼtishga harakat qilishining asosiy sabablari sifatida afgʼonlar tomonidan oʼzbeklarni kamsitilishi va haddan ortiq zulm qilinishi, ularni harbiy xizmatga layoqatsiz deb, turli-tuman soliq va majburiyatlar yuklaganliklari deb hisoblash mumkin<sup>7</sup>. Afgʼonlar hatto Badaxshonda koʼpajuma (payshanbadan jumaga oʼtar kechasi er-xotin munosabati) deb atalgan soliq joriy qilishdan ham uyalmaganlar<sup>8</sup>. Bu kabi shariat va axloqqa toʼgʼri kelmaydigan soliq va majburiyalar mahalliy aholini gʼazablantirishi tabiiy. Aholining Rossiya boshqaruvidagi erlarga koʼchib ketishi, Rossiya istilosini davom etib, oʼzlari yashab turgan hududlarga kelishini xohlovchilar soni tobora koʼpayib borgan. Savdosoti va qon-qarindoshlik aloqalari orqali Rossiya imperiyasi boshqaruvi va uning afgʼonlar boshqaruvidan afzallini koʼrgan aholi tez orada Rossiya istilolarining davom etishiga umid bogʼlaganlar. Bu kabi holatlarni oʼsha davrda Afgʼonistonga sayohat qilgan Rossiya imperiyasining oliy martabalari amaldaorlari ham aniqlaganlar.

<sup>6</sup>Окимбеков У.В. Колонизация северного Афганистана и Английская разграничительная комиссия. // Вестник Института востоковедения РАН. № 1 (19). - М.: ИВ РАН, 2022. – С. 31.

<sup>7</sup> Гродеков Н. Через Афганистан // Туркестанский сборник Том. 241. – С. 23.

<sup>8</sup> Арендаренко Г.А. Досуги в Туркестан 1874-1889. – СПб: 1889. - С. 514.



Jumladan, N.I. Gorodekov Afg'onistonga 1878-yildagi sayohati davrida Janubiy Turkiston aholisini Rossiya Samarqand bilan cheklanib qolmasligini tez orada o'zlar yashayotgan erlarga ham kirib kelishini, ularni hatto bu voqeylekni tezroq bo'lib, xudodan ruslar yordamida afg'onlar zulmidan xalos bo'lishlarini so'rashlariga guvoh bo'lganini yozib qoldirgan<sup>9</sup>. Janubiy Turkistonda Rossiya ta'sirining o'sishi Afg'oniston va Angliya davlatlarini tashvishlantirishi va buning oldini olishga qaratilgan qator choralarni ko'rishga shoshilishiga sabab bo'lgan. Shu sababli Afg'oniston va Angliya, shuningdek, Usmonli turk sultanati ayg'oqchilari Buxoro, Xiva va Turkistonda o'z ayg'oqchilarini yuborib, Rossiya imperiyasiga qarshi kayfiyatni shakllantirish va o'lkada notinchliklar keltirib chiqarishga harakat qilganlar. Misol tariqasida N.V. Char'yikov ma'lumotlarini keltirib o'tish mumkin. N.V. Char'yikov (1886-1895-yillarda Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligini boshqargan) Abdurahmonxon hokimiyat tepasiga kelganiga ko'p bo'lmay, Buxoroda uning ikki ayg'oqchisini ko'rganligini yozib qoldirgan<sup>10</sup>. Amir Abdurahmonxon (1880-1901 yy) taxtga o'tirgunga qadar Samarqandda muhojir, qochqinlikda yashab, uning o'zi Afg'onistondagi aholi kayfiyatidan ruslarni xabardor qilib turgan. Shuningdek, Samarqandda bo'lgan davrda Badaxshon, Maymana, Qunduz oqsoqollari bilan yozishib turgan<sup>11</sup>. Hokimiyat tepasiga kelgach esa, Rossiya harbiy-siyosiy doiralarining Afg'oniston xususida zarur ma'lumotlarni qanday olishini yaxshi anglagani uchun o'zining avvalgi homiylariga qarshi ayg'oqchilik faoliyatini boshlab yuborgan.

Inglizlarning asosiy maqsadi O'rta Osiyo hududlarini ko'proq istilo qilish va Rossianing Hindistonga yaqinlashishiga yo'l qo'ymaslik bo'lgan. Shuning uchun Turkiston general-gubernatorligi chegaralari atrofida notinchliklar keltirib chiqarishni rejalashtirgan. Hatto, o'z qo'shinlarini Rossiya imperiyasiga xayrixoh bo'lgan hududlarga tashlashga ham harakat qilgan. Misol tariqasida, 1886-yili avg'onlardan yollangan ayg'oqchilar Chitral orqali inglizlarning generl Uilyam Lokxart boshchiligidagi harbiy bo'linmalari Badaxshonga Buxoro chegaralariga

<sup>9</sup>Гродеков Н.И. Через Афганистан: Путевые записки ген. штаба полк. Н.И. Гродекова. – СПб: кн. маг. “Нового времени”. 1880. - С. 31-32.

<sup>10</sup>Ищенко Н.С. Афганистан во внешнеполитическом дискурсе Российской империи в годы правления Александра III (1881-1894 гг.) // Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Москва-2023. - С. 50.

<sup>11</sup> Рамчендер. Мой визит Абдурахманхану в Ташкент // Туркестанский сборник Том 243. – С. 10.



kelayotgani xabari olinganligi bilan bog'liq ma'lumotni keltirib o'tish lozim<sup>12</sup>.

1888-yilda Janubiy Turkistonda Is'hoqxon qo'zg'olon ko'targan bo'lib, engilgach Kerki orqali Amudaryodan o'tib ruslardan panoh so'rangan. Buxoro bozorlaridagi Rossiya ayg'oqchilar mahalliy aholi kayfiyati xususida bergen ma'lumotlarida, bozorda Kerki yaqinida avg'onlar bilan jang bo'lgani, ruslar ikki yuz askar yo'qotgani, agar afg'onlar ruslarni engsa, buxoroliklar ham ruslarga qarshi isyon qilish maqsadida qurol sotib olayotganligi xabarini bergenlar<sup>13</sup>. Buxoroda ham Rossiya imperiyasi vassalligidan norozi bo'lgan kuchlar etarlicha topilgan. Janubiy Turkistonda aholi afg'onlar zulmidan ozod bo'lishni istasa, ayrim bekliklar masalan, Maymanabekligi 1880-yillarda ham Buxoro amirligi tarkibiga qayta qo'shilishga harakat qilgan<sup>14</sup>. Rossiya imperiyasi va uning ta'siridagi hududlarga intilish xalqaro munosabatlarda Rossiya-Angliya diplomatik doiralarida ko'rib chiqilgan.

Abdurahmonxonning amakivachchasi, Janubiy Turkiston hokimi sardor Is'hoqxonning 1888-yilgi qo'zg'oloni muvofaqiyatsizlikka uchragandan keyin Rossiya imperiyasi qo'l ostidagi Samarqand shahriga o'zining etti yuz kishidan iborat tarafdorlari bilan qochib kelgan. Rossiya ma'murlari ularni Shaharning Registon maydoni yaqinidagi Avg'onbog' mahallasiga joylashtirgan<sup>15</sup>. Is'hoqxonni Abdurahmonxonga topshirilmaganligi ham ikki mamlakat o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayishiga sabab bo'lgan. Sardor Is'hoqxon qo'zg'oloni davrida Rossiya imperiyasidan harbiy yordam so'rangan bo'lsada, Rossiya Angliya bilan ehtimoliy urush kelib chiqishini oldini olish maqsadida unga harbiy yordam ko'rsatmagan. Is'hoqxonni asosan Janubiy Turkistondagi o'zbek-tojiklar qo'llab-quvvatlaganlar qo'zg'olon mag'lubiyatga uchragandan keyin esa, mahalliy aholidan sakkiz ming nafardan oshiqrog'i Buxoro amirligi hududiga qochib o'tib jon saqlashga majbur bo'lgan<sup>16</sup>.

<sup>12</sup>Ищенко Н.С. Афганистан во внешнеполитическом дискурсе Российской империи в годы правления Александра III (1881-1894 гг.) // Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Москва-2023. - С. 76.

<sup>13</sup>Ищенко Н.С. Афганистан во внешнеполитическом дискурсе Российской империи в годы правления Александра III (1881-1894 гг.) // Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Москва-2023. - С. 170.

<sup>14</sup>Страница из истории Восточного вопроса. Англо-афганская распра. Выпуски 1-4 / Л.Н. Соболев. – Санкт-Петербург : Типография доктора М. А. Хана, 1880. – С. 432.

<sup>15</sup> Сердар Исхекхан // Туркестанский сборник Том. 511. – С. 1-4.

<sup>16</sup> Афганистан и безопасность Центральной Азии. Вып.2 / Под. ред. А.А. Князева. – Бишкек: Илм, 2005. – С. 13.



Afg'onlarning qo'zg'olonchilardan shafqatsizlik bilan o'ch olish jarayoni majburiy migratsiyani keltirib chiqargan.

Inglizlar Afg'oniston armiyasini har tomonlama qurol va zaruriy narsalar bilan ta'minlab afg'onlarni Amudaryo tomon siljib borishini rag'batlantirganlar. Afg'onlar esa Janubiy Turkiston aholisiga haddan tashqari shafqatsiz siyosat olib borgan. Majburiy migratsiya natijasida 1880-1890-yillarda Buxoro amirligi qo'l ostidagi Darvoz bekligiga Janubiy Turkistondan 30 ming oila ko'chib kelganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan<sup>17</sup>. Bundan tashqari, birgina Xulm bekligi hududidan aholining ommaviy ko'chib ketishi natijasida 1880-yillarda 1868-yilga nisbatan mahalliy aholi to'rt barobar kamayib ketgan. Toshqo'rg'onda esa, o'zbeklar 12 ming xonadondan etti ming xonadonga qadar kamaygan. Majburiy migratsiya natijasida Janubiy Turkistonda ko'plab qishloqlar tashlandiq, vayrona holga kelib qolgan<sup>18</sup>. Abdurahmonxon (1880-1901 yy) hukumronligi davrida Janubiy Turkistonda Rossiyaga xayrixoh kuchlarning nufuzi ortgan.

Janubiy Turkistonda mahalliy aholini itoatda tutib turish va o'z hokimiyati tayanchlarini yaratishning asosiy sharti sifatida amir Abdurahmonxon mahalliy aholini pushtunlashtirish va pushtun qabilalarini Turkistonga joylashtirish deb hisoblagan. 1884-yilga qadar Turkistonda pushtunlar umumiyligi aholining atigi to'rt foizini tashkil qilgan<sup>19</sup>. Keyingi davrlarda esa ularning salmog'i ko'payib borgan. Pushtunlashtirish siyosati natijasida XIX-asr oxirigi o'n-yilligida Turkiston hududiga 200 ming pushtunlar ko'chirilib, ularning mahalliy aholi orasidagi nufuzi 30 foizga etkazilgan<sup>20</sup>. Shuningdek, XX-asr boshlarida Afg'on Turkistoniga 62 ming pushtun ko'chirilgan. Ularga mahalliy aholidan hosildor erlarning 10 foizi tortib olib berilgan<sup>21</sup>. Mahalliy aholi qo'lidan unumdar erlar tortib olinib, ersiz va kam erli yollanma mehnat bilan shug'ullanuvchilarga aylantirilgan. Tirikchilik

<sup>17</sup>Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (восточная Бухара и западный Памир в конце XIX века). М.: Издательство восточной литературы, 1958. – С. 93-94.

<sup>18</sup>Мельников Д.А. Район операционных путей от Термеза к Кабулу: (опыт воен.-геогр.описания) / сост. Ген. штаба подполк. Д.А. Мельников. – Ташкент: тип. Штаба Туркест. воен. окр., 1907. – С. 142.

<sup>19</sup>Окимбеков У.В. Колонизация северного Афганистана и Английская разграничительная комиссия. // Вестник Института востоковедения РАН. № 1 (19). - М.: ИВ РАН, 2022. – С. 26.

<sup>20</sup>Окимбеков У.В. Колонизация северного Афганистана и Английская разграничительная комиссия. // Вестник Института востоковедения РАН. № 1 (19). - М.: ИВ РАН, 2022. – С. 32.

<sup>21</sup>Лалетин Ю.П. Межэтническое взаимодействие в Афганистане / Ю.П. Лалетин // Конфликты на Востоке: этнические и конфессиональные / Отв. ред. А.Д. Воскресенский; МГИМО (У) МИД России. — М.: Аспект пресс, 2008. — С. 292.



vositasisiz qolgan aholi qo'shni mamlakatlarga birinchi galda Buxoro amirligi hududlariga yollanma mehnat qilish uchun keta boshlaganlar. Misol tariqasida XX-asr boshlarida Buxoro amirligi hududiga 20 ming Afg'oniston fuqarolari qora ishchi sifatida kelib joylashganliklarini keltirib o'tish mumkin<sup>22</sup>. Rossiya imperiyasi qo'l ostidagi erlarda jumladan Termiz, Karki, Kushka hududlarida yollanib ishlagan Janubiy Turkiston aholisi orasida esa Rossiyaga xayrixohlik kayfiyati shakllangan.

Janubiy Turkistonga pushtunlarni ko'chirish, ularga imtiyozlar berilishi, Amudaryo bo'yida ariq-kanallar qazib yangi erlarni o'zlashtirish borasida ham amaliy ishlar boshlangan. 1892-yilda Amudaryoning Rossiya gornizoni turgan Kushka qarama-qarshisida afg'onlar tomonidan bir nechta kanal qazilgan. Amudaryo qirg'og'ining nishablik nivelirovkasi afg'oniston tomonga bo'lganligi sababli, Rossiya tomonidan Kushka yaqinida o'zlashtirilgan erlarda suv tanqisligi muammosi boshlangan. Kelib qiqqan ziddiyatni bartaraf etish maqsadida 1893-yilda ingliz, rus va afg'on vakillari Kushkada to'planib, mavjud vaziyatni muhokama qilganlar. O'zaro muzokaralarda Afg'oniston vakillari qazilgan kanallarni ko'mishga rozi bo'lgan. Shuningdek, ushbu hududdagi mahalliy aholini Afg'oniston hukumati boshqa erlarga ko'chib o'tishlarini buyurib, keltirilgan zararni davlat xazinasidan qoplab berishni va'da qilgan<sup>23</sup>. Muzokaralarning Rossiya foydasiga hal bo'lishi mintaqada ushbu davlat ta'siri kuchli ekanligini ko'rsatib bergan.

Inglzlarning Afg'oniston bo'yicha yuritgan siyosati o'z vassali bo'lgan ushbu davlatni harbiy jihatdan kuchaytirib, ular yordamida Buxoro amirligi, Xiva xonliklarining bir qismini o'z nazoratlari ostiga olishga qaratilgan bo'lgan<sup>24</sup>. Janubiy Turkistondagi siyosiy-psixologik vaziyat inglzlarni tashvishlantirib, Afg'onistonda mustahkam o'rashish orqali muammoni echishga harakat qilganlar. Jumladan, 1905-yil Hindiston va Qandahor oralig'ida temir yo'l qurilishiga Angliya

<sup>22</sup>Панин С.Б. Панисламизм в Средней Азии перед первой мировой войной / Панин Сергей Борисович // Вопросы истории. - 2015. - № 2. - С. 126.

<sup>23</sup>Ищенко Н.С. Афганистан во внешнеполитическом дискурсе Российской империи в годы правления Александра III (1881-1894 гг.) // Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Москва-2023. - С. 124.

<sup>24</sup>Туркестан в имперской политике России [Текст] : монография в документах / [Б.М. Бабаджанов, Т.В. Котюкова (отв. ред.), О.А. Махмудов, С.Н. Абашин] ; Ин-т всеобщ. истории РАН, Сектор истории Центральной Азии XIX-XX вв. - Москва : Кучково поле, 2016. – С. 36.



Afg'oniston amiri Habibulloxon roziligin olishga muvofaq bo'lgan<sup>25</sup>. Bizning fikrimizcha, Afg'oniston hukumatining bunday yo'l tutishiga Rossiya imperiyasining Afg'oniston shimolida ta'sirining o'sib borish omilli ham sabablardan biri bo'lgan. Inglizlarga esa, Afg'onistondagi ta'sirlarini yanada oshirish imkonini bergen.

XX asr bosqlarida ham Janubiy Turkistonda afg'onlar zulmiga oshib borgan. "Turkiston to'plami"da keltirilgan ma'lumotlarda, Badaxshonda Habibulloxon (1901-1919 yy)ning o'g'illaridan biri bo'lgan Hayotulloxon hokim bo'lib, uning shafqatsizligidan bezigan aholi Habibulloxonaga maktub yo'llab, o'g'lini hokimlikdan olishni, aks holda badaxshonliklar yoppasiga Panj daryosidan o'tib, Rossiya fuqaroligini qabul qilishlarini ma'lum qilganlar<sup>26</sup>. Bu kabi noroziliklar hatto qo'zg'olonlarga aylanib ketgan. Jumladan, 1908-yilda shia mazhabiga e'tiqod qiluvchi jamshidiylar isyonini keltirib o'tish mumkin. Jamshidlardan 1908-yili Rossiya imperiyasi hududiga 2,5 ming oila yoki taxminan 12-15 ming kishi qochib o'tgan<sup>27</sup>. Jamshidiylarning qochib o'tishiga Hirot hokimi Muhammad Sarvarxonning ushbu qabilani isyonga moyilligi xususidagi chaquvi sabab bo'lgan. Kechasi jamshidiylar o'rab olinib, yoppasiga qirg'in qilina boshlangandan keyin, ularning tirik qolganlari Rossiya imperiyasi hududiga tomon qocha boshlaganlar<sup>28</sup>. Jamshidiylar Habibullaxonning otasi amir Abdurahmonxon davrida ham diniy va etnik zulmga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. 1892-yili Jamshidiy va Hazora qabilalari qo'zg'oloni bo'lib, Abdurahmonxon bu qo'zg'oltonni katta qiyinchilik bilan bostirgan. Rossiya imperiyasi hududiga qochgan jamshidiylarning ko'pchiligin Buxoro amirligiga tegishli bo'lgan Hisor vodiysiga joylashtirishga harakatlar bo'lgan<sup>29</sup>. 1908-yilgi isyon ko'lami ancha keng bo'lib, jamshidiylarga qilingan shafqatsizlik ular bilan bir mazhbda bo'lgan va 1892-yil qo'zg'olonida ittifoqchi bo'lgan boshqa qabilalarni ham xavotirga solgan. Jumladan, jamshidiylarning Rossiya imperiyasi hududiga ketishi Afg'oniston shimoli-g'arbida Qalai-nav

<sup>25</sup> Роль Афганистана в Среднеазиатской вопросе и возможность войны в Туркестан из за Индии // Туркестанский сборник. Том. 441. – С. 146.

<sup>26</sup> Слуцкий И. Памиры в политическом отношении // Туркестанский сборник. Том. 534. – С. 80.

<sup>27</sup> Джамшиды. Миграционные процессы в российско-афганских отношениях в первые десятилетия XX в. / С.Б. Панин // Восток (Oriens). – 2014. – № 5. – С. 43.

<sup>28</sup> Губар М.Г.М. Афганистан на путях истории. - М.: Наука, 1987. – С. 30.

<sup>29</sup> К нашей политике в Средней Азии (Страницы истории) // Туркестанский сборник. Том. 52. – С. 159-160. – С. 154-162.



o'lkasidagi hazoralar va tog'li firuzko'hiylarning isyon ko'tarishiga ham sabab bo'lgan<sup>30</sup>. Bu kabi siyosiy notinchlik Rossiya imperiyasining mavqeini mustahkamlashga aholining Rossiya ta'siri ostidagi hududlarda adolatli boshqaruv joriy qilganligi, o'z hududlarida ham shunday boshqaruv bo'lishiga xohishlarini kuchaytirgan. Rossiya imperiyasi, Buxoro amirligi hududlarida kelib o'mashgan jamshidiylar Afg'onistonga qaytishni xohlamaganlar. Habibulloxon keyinroq jamshidiylar bilan ahil yashashni taklif qilib, bir necha bora yarashishni taklif qilgan. Masalan, jamshidiylarni Afg'onistonga qaytarishga 1912 va 1916-yillardagi urinishlari samarasiz ketgan<sup>31</sup>. Afg'onistonga qaytmagan jamshidiylar Rossiya imperiyasi ma'murlariga ayg'oqchilik qilishda ayblangan va ularni boshqa davlat hududida ham nazorat qilishga harakat qilganlar. Misol tariqasida, 1910-yili Buxorodagi Afg'oniston savdo agenti Muhammad Gausxon uyida tintuv o'tkazilganda, uning Habibulloxon bilan yashirin yozishmalari topilganligi, ushbu xatlarda Turkistonda yashab qolgan jamshidiylar xonlari (etakchilari) ahvolida xabardor qilib turishni buyurganligiga oid ma'lumotlarni keltirib o'tish lozim deb hisoblaymiz<sup>32</sup>. Afg'onistondan Turkiston hududiga aholi migratsiyasi XX-asr boshlarida shu tariqa nihoyasiga etgan.

Xulosa qilib aytganda, Afg'onistondan XIX asr ikkinchi yarmiv – XX asr boshlarida kechgan siyosiy jarayonlarda aholining Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi hududiga migratsiyasi sodir bo'lgan. Bizning fikrimizcha, migratsion jarayonlarga quyidagi siyosiy omillar ta'sir ko'rsatgan. 1. Janubiy Turkiston afg'onlar tomonidan bosib olinishi va milliy-etnik zulm, 2. Diniy ziddiyatlar, sunna-shia janjallari, 3. Buyuk davlatlar (Rossiya-Angliya) ta'siri natijasida kelib chiqqan zidiyatlar natijasida migratsion jarayonlar sodir bo'lgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Арендаренко Г.А. Досуги в Туркестан 1874-1889. – СПб: 1889. -
- Афганистан и безопасность Центральной Азии. Вып.2 / Под. ред. А.А. Князева. – Бишкек: Илм, 2005. – 247 с.

<sup>30</sup> Джамшиды. Миграционные процессы в российско-афганских отношениях в первые десятилетия XX в. / С.Б. Панин // Восток (Oriens). – 2014. – № 5. – С. 44.

<sup>31</sup> [https://www.academia.edu/31031090/Джамшиды\\_Восток\\_Oriens\\_M\\_2014\\_5\\_43\\_54\\_.pdf](https://www.academia.edu/31031090/Джамшиды_Восток_Oriens_M_2014_5_43_54_.pdf)

<sup>32</sup> Ўзбекистон Республикаси Миллий Архиви (ЎзМА), И-1-фонд, 31-рўйхат, 737-йифма жилд, 28-варак.



3. Гродеков Н. Через Афганистан // Туркестанский сборник Том. 241.

4. Гродеков Н.И. Через Афганистан: Путевые записки ген. штаба полк. Н.И. Гродекова. – СПб: кн. маг. “Нового времени”. 1880. - 130 с.

5. Губар М.Г.М. Афганистан на пути истории. - М.: Наука, 1987. –

6. Джамшиды. Миграционные процессы в российско-афганских отношениях в первые десятилетия XX в. / С.Б. Панин // Восток (Oriens). – 2014. – № 5. – С. 43-54.

7. Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (восточная Бухара и западный Памир в конце XIX века). М.: Издательство восточной литературы, 1958. - 130 с.

8. Ищенко Н.С. Афганистан во внешнеполитическом дискурсе Российской империи в годы правления Александра III (1881-1894 гг.) // Диссертatsія на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Москва-2023. - 224 с.

9. К нашей политике в Средней Азии (Страница истории) // Туркестанский сборник. Том. 52. – С. 154-162.

10. Лалетин Ю.П. Межэтническое взаимодействие в Афганистане / Ю.П. Лалетин // Конфликты на Востоке: этнические и конфессиональные / Отв. ред. А.Д. Воскресенский; МГИМО (У) МИД России. – М.: Аспект пресс, 2008. - С. 289-314.

11. Мельников Д.А. Район операционных путей от Термеза к Кабулу: (опыт воен.-геогр.описания) / сост. Ген. штаба подполк. Д.А. Мельников. – Ташкент: тип. Штаба Туркест. воен. окр., 1907. - 392 с.

12. Окимбеков У.В. Колонизatsія северного Афганистана и Английская разграничительная комиссия. // Вестник Института востоковедения РАН. № 1 (19). - М.: ИВ РАН, 2022. – С. 25-33.

13. Панин С.Б. Панисламизм в Средней Азии перед первой мировой войной / Панин Сергей Борисович // Вопросы истории. - 2015. - № 2. - С. 121 -

14. Рамчендер. Мой визит Абдурахманхану в Ташкент // Туркестанский сборник Том 243. – С. 10-12.

15. Роль Афганистана в Среднеазиатской вопросе и возможность войны в Туркестан из за Индии // Туркестанский сборник. Том. 441. – С. 141-

16. Сердар Исхекхан // Туркестанский сборник Том. 511. – С. 1-4.



17. Слуцкий И. Памиры в политическом отношении // Туркестанский сборник. Том. 534. – С. 70-90.
18. Страница из истории Восточного вопроса. Англо-афганская распрая. Выпуски 1-4 / Л.Н. Соболев. – Санкт-Петербург : Типография доктора М.А. Хана, 1880. – 702 с.
19. Туркестан в имперской политике России [Текст] : монография в документах / [Б. М. Бабаджанов, Т. В. Котюкова (отв. ред.), О. А. Махмудов, С. Н. Абашин] ; Ин-т всеобщ. истории РАН, Сектор истории Центральной Азии XIX-XX вв. - Москва : Кучково поле, 2016. – 878, [1] с.; 25 см.;
20. Ўзбекистон Республикаси Миллий Архиви (ЎзМА), И-1-фонд, 31-рўйхат, 737-йигма жилд, 28-варақ.
21. [https://www.academia.edu/31031090/Джамшиды\\_Восток\\_Orient  
s\\_M\\_2014\\_5\\_43\\_54\\_.pdf](https://www.academia.edu/31031090/Джамшиды_Восток_Orient_s_M_2014_5_43_54_.pdf)

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Orziev Mahmud Zaynievich*  
*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri*  
*m.z.orziyev@buxdu.uz*



A large, stylized circular brushstroke in shades of blue and white dominates the background, resembling a sun or a planet. The brushstrokes are thick and layered, creating a sense of depth. Small, scattered blue dots of varying sizes are scattered across the surface.

## **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**



## ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI QIYOSIY TAHLIL QILISH MEZONLARI



*Rashidov Mels Karimovich,  
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish-ularning rivojlanishi uchun rag'batlantirish asosi bo'lib xizmat qiladi. Jahon tajribasi asosida mamlakat va mintaqalar rivoji uchun erkin iqtisodiy zonalarning samarali faoliyati ko'rsatkichlarini aniqlash, uning tahliliga e'tibor qaratish va shuning asosida investorlarni jalg qilishning eng maqbul usullarini tanlash muhimdir. Maqolada bu jarayonga oid ko'rsatkichlar tahlili, tajribalar va ularni amalga oshirish muhimligi aytib o'tilgan.



**MAQSAD:** Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish-ularning rivojlanishi uchun rag'batlantirish va bu tushunchalar haqida ilmiy tahlillarni chuqur tahlil qilish.

**MATETIALLAR VA METODLAR:** Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini to'liq holda qiymat ko'rsatkichlari bilan o'lchab bo'lmaydi. Chunki ijobjiy o'zgarishlar nafaqat o'sha mintaqada, balki qo'shni mintaqalarda ham sodir bo'ladi. Erkin iqtisodiy zonalar nafaqat o'z maydoniga, balki zona atrofidagi mintaqalarga kapital mablag'lar va xorijiy valyutalar oqimini oshirish yo'li bilan ijtimoiy-iqtisodiy samara keltiradi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish mamlakat uchun yaxshi samara ham beradi, ya'ni milliy iqtisodiyotga yuqori malakali mehnat resurslari keladi, zamonaviy texnologiyalar, nou-xaular, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish tajribasi olib kelinadi hamda mahalliy kadrlarga o'rgatiladi. Erkin iqtisodiy zonalar marketing samarasini beradi, ya'ni zonada yaxshi ishni tashkil eta olgan korxonalar(firmalar) mamlakatning qolgan korxonalari uchun ishni tashkil etishda o'rnak bo'ladi.

Erkin iqtisodiy zonalarning samaradorligi, birinchi navbatda, uni barpo etish siyosatining, ya'ni zonal siyosatning puxta ishlab chiqilganligiga hamda bu siyosatni ketma-ketlikda, to'g'ri amalga oshira bilishga bog'liqdir. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligi, uning faoliyatini huquqiy jihatdan sifatli taminlanganligiga ham bog'liq. Shuning uchun erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirmoqchi bo'lsak, uning talablariga javob beradigan normativ-huquqiy bazani yaratish zarurdir.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda, erkin iqtisodiy zonalarni samaradorligini o'lhash ancha murakkab masaladir. Chunki uning ijobjiy ta'siri nafaqat o'sha zonada faoliyat yuritayotgan korxonalar ishining samarasiga, balki butun mintaqaning ishi samarasiga, qo'shni mintaqalarga, hatto, butun mamlakat iqtisodiyotiga ham ta'sir etadi. Bundan tashqari, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati darrov ijtimoiy-iqtisodiy samara (birinchi navbatda, ijtimoiy samara) bermaydi, u qandaydir vaqt oralig'ini talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** mintaqa, erkin iqtisodiy zona, samara, samaradorlik, bevosita samara, bilvosita samara, raqobat samarasi, infratuzilma, samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar.



## КРИТЕРИИ СРАВНИТЕЛЬНОГО АНАЛИЗА ЭФФЕКТИВНОСТИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН

### **Аннотація.**

**ВВЕДЕНИЕ:** Разработка критериев оценки деятельности свободных экономических зон служит основой стимулирования их развития. Основываясь на мировом опыте, важно определить показатели эффективной работы свободных экономических зон для развития страны и регионов, уделить внимание их анализу и, следовательно, выбрать наиболее оптимальные методы привлечения инвесторов. В статье упоминается анализ показателей, связанных с этим процессом, опыта и важности их внедрения.

**ЦЕЛЬ:** Разработка критериев оценки деятельности свободных экономических зон – стимулов для их развития и углубленный анализ научных анализов этих понятий.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Эффективность свободных экономических зон не может быть полностью измерена стоимостными показателями. Потому что положительные изменения происходят не только в этом регионе, но и в соседних регионах. Свободные экономические зоны приносят социально-экономические выгоды не только своей территории, но и регионам вокруг зоны за счет увеличения притока капитальных средств и иностранной валюты. Создание свободных экономических зон также принесет стране хорошие результаты, то есть в национальную экономику будут привлечены высококвалифицированные трудовые ресурсы, современные технологии, ноу-хау, опыт организаций производства и управления, а также местные кадры. Пройти обучение. Свободные экономические зоны обладают маркетинговым эффектом, то есть предприятия (фирмы), сумевшие организовать хорошую работу в зоне, будут примером для остальных предприятий страны.

Эффективность свободных экономических зон зависит, прежде всего, от тщательной разработки политики ее создания, то есть зональной политики, и умения последовательно и правильно реализовывать эту политику. Эффективность свободных экономических зон зависит от правового качества их деятельности. Поэтому, если мы хо-



тим повысить эффективность деятельности свободных экономических зон, необходимо создать правовую базу, отвечающую ее требованиям.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Короче говоря, измерение эффективности свободных экономических зон — очень сложный вопрос. Потому что его положительное влияние влияет не только на эффективность предприятий, работающих в этой зоне, но и на эффективность всего региона, соседних регионов и даже всей экономики страны. Кроме того, деятельность свободных экономических зон не дает сразу социально-экономических результатов (в первую очередь социальных), она требует определенного периода времени.

**Ключевые слова:** регион, свободная экономическая зона, эффективность, эффективность, прямой эффект, косвенный эффект, конкурентный эффект, инфраструктура, факторы, влияющие на эффективность.

## CRITERIA FOR COMPARATIVE ANALYSIS OF EFFICIENCY OF FREE ECONOMIC ZONES

### **Annotation.**

**INTRODUCTION:** The development of criteria for evaluating the activity of free economic zones serves as the basis of incentives for their development. Based on world experience, it is important to determine the indicators of the effective operation of free economic zones for the development of the country and regions, pay attention to its analysis, and therefore choose the most optimal methods of attracting investors. The analysis of indicators related to this process, experiences and the importance of their implementation are mentioned in the article.

### **AIM:**

Development of criteria for evaluating the activity of free economic zones - incentives for their development and in-depth analysis of scientific analyzes of these concepts.

### **MATERIALS AND METHODS:**

The effectiveness of free economic zones cannot be fully measured by value indicators. Because positive changes occur not only in that region, but also in neighboring regions. Free economic zones bring socio-economic benefits not only to their territory, but also to the regions around



the zone by increasing the flow of capital funds and foreign currencies. The establishment of free economic zones will also bring good results for the country, that is, highly qualified labor resources will be brought to the national economy, modern technologies, know-how, production organization and management experience will be brought, and local personnel will be trained. Free economic zones have a marketing effect, that is, enterprises (firms) that have managed to organize good work in the zone will be an example for the rest of the country's enterprises.

The effectiveness of free economic zones depends, first of all, on the careful development of the policy of its establishment, that is, the zonal policy, and the ability to implement this policy in a sequence and correctly. The effectiveness of free economic zones depends on the legal quality of their activities. Therefore, if we want to increase the effectiveness of the activity of free economic zones, it is necessary to create a legal framework that meets its requirements.

**CONCLUSION:** In short, measuring the efficiency of free economic zones is a very complicated issue. Because its positive impact affects not only the efficiency of the enterprises operating in that zone, but also the efficiency of the entire region, neighboring regions, and even the entire country's economy. In addition, the activity of free economic zones does not immediately give socio-economic results (primarily, social results), it requires a certain period of time.

**Key words:** region, free economic zone, efficiency, efficiency, direct effect, indirect effect, competitive effect, infrastructure, factors affecting efficiency.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning

"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" va 2016-yil 26 oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi farmonlari mamlakatning davlat va jamiyat rivojlanishi istiqbolini strategik rejorashtirish tizimiga sifat jihatdan yangicha yondashuvlarni boshlab berdi.

Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini to'liq holda qiymat ko'rsatkichlari bilan o'lchab bo'lmaydi. Chunki ijobjiy o'zgarishlar nafaqat o'sha mintaqada, balki qo'shni mintaqalarda ham sodir bo'ladi. Erkin



iqtisodiy zonalar nafaqat oʻz maydoniga, balki zona atrofidagi mintaqalarga kapital mablagʼlar va xorijiy valyutalar oqimini oshirish yoʼli bilan ijtimoiy-iqtisodiy samara keltiradi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish mamlakat uchun yaxshi samara ham beradi, yaʼni milliy iqtisodiyotga yuqori malakali mehnat resurslari keladi, zamonaviy texnologiyalar, nou-xaular, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish tajribasi olib kelinadi hamda mahalliy kadrlarga oʼrgatiladi. Erkin iqtisodiy zonalar marketing samarasini beradi, yaʼni zonada yaxshi ishni tashkil eta olgan korxonalar(firmalar) mamlakatning qolgan korxonalarini uchun ishni tashkil etishda oʼrnak boʼladi. Erkin iqtisodiy zonalarda hukumat tomonidan qoʼyiladigan toʼsiqlarni kamaytirish yoʼli ham ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy taʼsir qiladi. Bu esa mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonini tezlashishiga yordam beradi.

Erkin iqtisodiy zonalarlar ustunligining yana bir jihatil ilgʼor texnologiyalarning berilishi (tarqalish)dir. U bevosita, bilvosita va raqobat samaralarini beradi.

- bevosita samara - bu erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalarning yangi texnologiya tufayli zamonaviy, raqobatbardosh, sifatli, arzon tovarlar ishlab chiqarishlaridir;

- bilvosita samara – bu erkin iqtisodiy zonalardagi yangi texnologiya bilan ishlayotgan korxona, uni tayyor mahsulotini ishlataladigan, unga xom ashyo, yarim tayyor mahsulot etkazib beradigan korxonalarga ijobiy taʼsir qilishidir;

- raqobat samarasi – bu yangi texnologiyaga oʼtgan korxonalar zona ichida va zonadan tashqari firmalar oʼrtasida raqobatni kuchaytirib yuboradi, buning natijasida firmalarni ilgʼor texnologiyalarni qoʼllashga, yangi texnologiyalar yaratish uchun ilmiy tadqiqotlar qilishga majbur qiladi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar. Maqolada tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil va umumlashtirish, statistik taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Mavzu doirasida baʼzi bir xorijiy olimlar ilmiy ishlanmalarini oʼrgandik. Masalan, erkin iqtisodiy zonalarning geografik joylashuvi va ularda logistik xizmatlarni tashkil etish boʼyicha R.J.McCalla [1], erkin iqtisodiy zonalar nazariyasi va amaliyoti toʼgʼrisida M.Guangwen [2], erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, uning iqtisodiyotdagagi oʼrni haqida



Y.S.Druzik [3], xalqaro iqtisodiyotda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati bo'yicha N.V.Chernenko[4]larning ilmiy ishlarini keltirib o'tish mumkin.

Erkin iqtisodiy zonalarning samaradorligi, birinchi navbatda, uni barpo etish siyosatining, ya'ni zonal siyosatning puxta ishlab chiqilganligiga hamda bu siyosatni ketma-ketlikda, to'g'ri amalga oshira bilishga bog'liqdir. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligi, uning faoliyatini huquqiy jihatdan sifatli taminlanganligiga ham bog'liq. Shuning uchun erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirmoqchi bo'lsak, uning talablariga javob beradigan normativ-huquqiy bazani yaratish zarurdir.

Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarning hisobga olinishi lozim:

- erkin iqtisodiy zonalar uchun joy tanlashda oqilona yondashuv (tanlangan maydonda investitsiyaviy hamkorlikni olib borish uchun obyektiv sharoitlarning mavjudligi);
- imtiyoz va qulayliklar tizimini yaratishda xorijiy investorlar manfaatini har tomonlama hisobga olish;
- qabul qiluvchi mamlakatda qulay investitsiya muhitini saqlash kafolatining mavjudligi;
- erkin iqtisodiy zonalar zaruriy va ishchi infratuzilmasining mavjudligi yoki uni yaratish uchun moliyalashtirish imkonining borligi;
- zona ma'muriy boshqaruv tizimining samaraliligi va o'ta moslashuvchanligi.

### 1-jadval.

#### Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatida ko'p uchraydigan omillarning qiyosiy tahlili

№	Ko'p uchraydigan omillar	Ta'sir natijasi	Hozirgi kundagi holatni qiyosiy baholash		
			Navoiy	Angren	Jizzax
1.	Joy tanlashda oqilona yondashuv	Mahalliy resurslardan oqilona foydalanimishi	4	5	4
2.	Xorijiy investorlar manfaatini himoyalash tizimi	Manfaatdorlik darajasi	4	4	4



3.	Qulay investitsion muhit	Investorlar oqimi darajasi	4	5	4
4.	Zaruriy va ishchi infratuzilmaning mavjudligi	Infratuzilmaning holati	4	4	3
5.	Maʼmuriy boshqaruv tizimining moslashuvchanligi	Namunali boshqaruv tizimini yaratish	3	3	3

*Manba: Muallifning qiyosiy tahlil natijalari asosida*

Umuman olganda, jahon tajribasi shuni koʼrsatadiki, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati oʼz oqibatiga qarab turlicha boʼlishi mumkin. Ularning samaradorligi esa erkin iqtisodiy zonalar uchun joyni toʼgʼri tanlash, yoʼnalishni toʼgʼri tanlash, siyosiy, iqtisodiy, geografik va boshqa turli omillarni hisobga olish, xorijdan investitsiya va texnologiyani jalb qila bilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtira olishga bogʼliq. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning samaradorligi erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishdan koʼzlangan aniq bir maqsadni qoʼyilganligi, imtiyozlar tizimi qay darajada, qay tarzda tanlanganligiga ham bogʼliq. Qoʼyilgan maqsadlarning koʼpligi va noaniqligi asossiz ravishda imtiyozlar faoliyatning barcha shakllariga tarqalishiga, oxir-oqibatda zona ishida hech qanday samara bermaslikka olib keladi.

Erkin iqtisodiy zonalarning shaklidan biri boʼlgan, AQSH hukumatining uy-joy va shahar rivojlanishi departamenti tomonidan boshqariladigan “tadbirkorlik zonalari”dan 357 tasining xoʼjalik faoliyatining tahlili quyidagilarni koʼrsatdi: ishlovchilarning 34% ishlov berish sanoatida, 27% chakana savdoda, 19% xizmat koʼrsatish sohalarida, qolganlari esa moliya xizmati, qurilish, transport, kommunikatsiya va ulgurji savdo bilan band ekan. Eng koʼp ishlov berish sanoatida ish joylari yaratilgan. Zonalarning 33 foizida bandlik milliy darajasidan yuqori boʼlgan [5].

Zonalarda eng yaxshi samara bergen choralar quyidagilardan iborat boʼlgan:

- iqtisodiy rivojlanishni ragʼbatlantirish-ijtimoiy farovonlikni oʼziga moʼljal qilib olgan zonalarga nisbatan ragʼbat va imtiyozlarning aniq bir tizimiga ega boʼlgan zonalar ancha muvaffaqiyatli faoliyat olib borgan;

- davlat va mahalliy soliqlarni kamaytirish, investitsiya uchun kreditlar berish;

- sotish, mulk, aylanma mablagʼlar soliqlarini kamaytirish;



- ish joylarini kreditlash dasturlari;
- mahalliy hokimiyatning qatnashuvi va manfaatdorligi.

Tadqiqotchilar erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat yuritishi uchun o'zlashtirilishi lozim bo'lgan erlar va ularda ishlab chiqarishlarni mahsuldarligi, unumdarligini tiklash, mintaqaga aholisi uchun juda ko'p miqdorda ish joylarini yaratish, ijtimoiy va xususiy sektorlar o'rtaida kooperatsiyani rivojlantirish kabi omillarni muhim, deb hisoblashmoqda[6]:

Samarasiz erkin iqtisodiy zonalar tajribasini tahlil qilib, zona faoliyatini rejalashtirish bosqichida qator yo'1 qo'yilgan quyidagi xato va kamchiliklarni ham qayd etishimiz lozim:

- zona uchun muvaffaqiyatsiz joyning tanlanganligi, masalan, er va havo transporti yaxshi rivojlanmagan joyda joylashtirilishi;
- infratuzilmaning asosiy obyektlarini yaratishga etarli e'tibor berilmaslik, masalan, aloqa vositalari va energiya bilan ta'minot talab darajasida emasligi;
- zona ma'muriyatining turli xil hukumat organlari bilan tashkiliy aloqalarining etarli darajada rivojlanmaganligi, masalan, moliya vazirligi, bojxona boshqarmasi, soliq qo'mitasi kabilar bilan aloqalar, chunki ish yaxshi natija berishi uchun ular bilan yaxshi aloqa hamda ularning qo'llab-quvvatlashi zarur;
- zonani boshqarishda byurokratik uslublardan keng va ko'p foydalansa, ish samarasini pasayadi.

Xatolar kam bo'lishi uchun loyihami albatta obro'li, ishonchli xalqaro ekspertizadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu anchagina xatolarni boshlang'ich bosqichda minimumga keltirish va tuzatish imkonini beradi. Xorijiy investorlarni ro'yxatga olishda qiyinchiliklar, zona ustunliklarini reklama va tashviqotning yomonligi ish samarasiga kuchli salbiy ta'sir qiladi.

Tahlillar.

Tadqiqotimiz davomida dastlab, mamlakatimizdagi erkin iqtisodiy zonalarda yaratilgan shart-sharoitlarni qiyosiy tahlil qilishga harakat qildik. Bu jarayon bevosita ularning samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir.



## 2-jadval.

**Tahlil qilayotgan erkin iqtisodiy zonalarda yaratilgan shart-sharoitlarning qiyosiy tahlili (2017-2023-yildagi holat yuzasidan)[7]**

№	Erkin iqtisodiy zonalardagi shart -sharoitlar	Navoiy EIZ	“Angren” EIZ	“Jizzax” EIZ	O’rtacha
1	Mamlakatdagi siyosiy barqarorlik darajasi	5	5	5	5
2	Xorijiy va milliy investorlarning faoliyatini rag’batlantiruvchi va huquqlarini kafolatlovchi puxta ishlab chiqilgan qonuniy asoslarning mavjudligi, umumiy qulay investitsiyaviy muhit	3	4	3	3,3
3	Qulay tabiiy-geografik joylashuv	4	5	4	4,3
4	Rivojlangan infratuzilma (ishlab chiqarish, tijorat)	5	5	4	4,6
5	Qulay iqtisodiy konyuktura	5	5	5	5
6	G’amxo’r va moslashuvchan boshqarish tizimi	4	4	3	3,6

Izoh: Quyidagi baholash mezonlari muallif tomonidan taklif etilgan:

( 5 ) - hozirgi paytda erkin iqtisodiy zonalarida ushbu shart-sharoit muvaffaqiyatli ishlaydi.

( 4 ) - hozirgi paytda erkin iqtisodiy zonalarida ushbu shart-sharoit muvaffaqiyati past ishlamoqda.

( 3 ) - hozirgi paytda erkin iqtisodiy zonalarida ushbu shart-sharoit muvaffaqiyatsiz ishlamoqda.

Tahlillar natijasida “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasasi (NEIZ) faoliyati samaradorligini quyidagi mezon ko’rsatkichlarga qarab baholash mumkin degan xulosaga keldik:

xorijiy kapitalning oqimi, shu jumladan zonada faoliyat olib borayotgan qo’shma korxonalar soni;

mamlakat tovarlar importiga qilinadigan xarajatning kamayishi;

ishlab chiqarishning umumiy hajmida eksport mahsulotning hissasi;

faoliyatning yangi turlariga ixtisoslashuvi, shu jumladan zonada xizmat ko’rsatishning rivojlanishi;

ta’mintonning yaxshilanishi, xizmat ko’rsatishning rivojlanishi;



yangi yaratilgan ish joylari, zonada bandlik darajasining o’sishi.

Ammo, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini iqtisodiy natijalarining barchasini aniq hisoblab bo’lmaydi, ularning ayrimlari vaqt jihatdan kechikadi yoki cho’ziladi. Bunday natijalar bilvosita natijalar yoki samara deyiladi, ularga quyidagi mezon-ko’rsatkichlarni kiritish mumkin:

- yangi texnologiyalar bilan tanishishning osonlashuvi;
- xo’jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarishning yangi usullarini egallah;

- mamlakatning eksport bazasini kengaytirish;
- yangi tarmoqlarning yaratilishi;
- mintaqaviy nomutanosiblikni bartaraf etilishi;
- kadrlar salohiyatini saqlash va rivojlantirish (boshqa mintaqalar va xorijdan mutaxassislarni jalb qilish, firmalararo migratsiya va hokazo).

Xulosa qilib aytganda, erkin iqtisodiy zonalarni samaradorligini o’lchash ancha murakkab masaladir. Chunki uning ijobiy ta’siri nafaqat o’sha zonada faoliyat yuritayotgan korxonalar ishining samarasiga, balki butun mintaqaning ishi samarasiga, qo’shni mintaqalarga, hatto, butun mamlakat iqtisodiyotiga ham ta’sir etadi. Bundan tashqari, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati darrov ijtimoiy-iqtisodiy samara (birinchi navbatda, ijtimoiy samara) bermaydi, u qandaydir vaqt oralig’ini talab qiladi. Agar erkin iqtisodiy zonalar mavjud mintaqalarda ishlovchilarining ish haqlari o’sa boshlasa, xorijdan investitsiya ko’proq kela boshlasa, ishsizlar soni kamaya boshlasa, bozorlarda tovarlar ko’paya boshlasa, demak erkin iqtisodiy zona yaxshi ishlamoqda. Erkin iqtisodiy zonalar yaratishda barcha qoidalarga, talablarga rioya qilinsa hamda tayyorgarlik va tashkiliy ishlar boshidan puxta olib borilsa, uning samarali ishlashiga kafolat bor.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. McCalla R.J. The Geographical Spread of Free Zones Associated with Ports// Geoforum 21 (1) (1990): 123–128.
2. Guangwen M. The Theory and Practice of Free Economic Zones: A Case Study of Tianjin, People’s Republic of China//Doctoral Thesis, Ruprecht-Karls University of Heidelberg, Germany, 2003.
3. Druzik Y.S. Svobodniye ekonomicheskiye zoni. M.: FUAIinform, 1999.
4. Chernenko N.V. Svobodniye ekonomicheskiye zoni v mirovoy ekonomike// Vestnik BGEU, 1998.



5. Hamroyev H.R. Zonal siyosat: Monografiya.- Toshkent: Fan,- 2008.
6. Xoliquulov A.R. Erkin iqtisodiy zonalar: nazariy asoslar va jahon tajribasi. T., 2002.
7. Rashidov M.K. "Erkin iqtisodiy hududlarning mazmun – mohiyati va hududlar rivojlanishiga ta'siri"//Iqtisod va moliya ilmiy – amaliy jurnali mavzusida 2012-yil №3 son 50-54-b.
8. **Internet saytlari:**
  1. www.stat.uz
  2. www.fez.uz
  3. www.lex.uz
  4. www.ifmr.uz

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Rashidov Mels Karimovich*

*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Manzil: O'zbekiston, 200100, Navoiy shahri, G'alaba ko'chasi  
mels\_rashid\_k@mail.ru  
orcid.org/0009-0006-4587-095X*



**13.00.00 – PEDAGOGIKA  
FANLARI**



# ILMIY TADQIQOT ISHI BILAN SHUG'ULLANUVCHILARDА OBYEKTIV OMILLARNI HISOBGA OLİSH VA ILMIY QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH



**Olimov Temir Hasanovich**  
*Buxor davlat pedagogika instituti, Buxoro shahri*

## **Annotatsiya.**

**KIRISH:** ushbu maqolada ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda obyektiv omillarni hisobga olish va ilmiy qiziqishni shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishi hayotiy talablarni bilan bog'liqligida, metodikasi va metodlari esa, ilm-fanda qabul qilingan, ijodiyfaoliyatni



samarali o'tkazishga yordam beradigan usullar va mexanizmlardan foydalangan holda olib borilishi tahlil qilingan.

**MAQSAD:** tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda obyektiv omillarni hisobga olish va ilmiy qiziqishni shakllantirish, tanlanadigan mavzu madaniyatning pozitiv hodisaligini tasdiqlashi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yanada ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishi, aniq, ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Standart kompetensiya-ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati; Asosiy kompetensiya-ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qibiliyati;

Yetakchi kompetensiya-kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyatiga alohida e'tibor berilishi zamonaviy kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga asos bo'lmoqda.

**XULOSA:** ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda obyektiv omillarni hisobga olish va ilmiy qiziqishni shakllantirish borasida maqsadli, manzilli ishlar amalga oshirilmoqda, biz ushbu maqolada uning ayrim jihatlarini imkon darajasida yoritib berdik. Uni kelajakda yaxlit fundamental tadqiqot sifatida o'rganish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy tadqiqot, ilmiy izlanish, ilmiy metodlar, ijtimoiy taraqqiyot, ilmiy-texnik taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish, madaniy yuksalish, bilim, ilmiy tafakkur, shaxs imkoniyat.

## У ЛЮДЕЙ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТОЙ УЧЕТ ОБЪЕКТИВНЫХ ФАКТОРОВ И ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНОГО ИНТЕРЕСА

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** в данной статье раскрыта научно-теоретическая и практическая значимость учета объективных факторов и формирования научного интереса у лиц, занимающихся научными исследованиями. Также было проанализировано, что научно-исследовательская работа связана с жизненными потребностями, а ее методология и методы осуществляются с использованием принятых в науке методов и механизмов, которые помогают эффективно осуществлять творческую деятельность.



**ЦЕЛЬ:** учесть объективные факторы и сформировать научный интерес у занимающихся исследовательской работой, подтвердить положительное явление культуры в выбранной теме, разработать технологию дальнейшего увеличения материального и духовного богатства, показать четкие, научно обоснованные пути.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Стандартная компетенция – это способность выполнять обычные и рутинные задачи, связанные с деятельностью; Основной компетентность – способность выполнять инновационные задачи, связанные с данной деятельностью; Ведущая компетентность – это способность создавать новые виды профессиональной деятельности. Особое внимание следует уделить конкурентоспособности современных кадров является основой предоставления.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** проводится целенаправленная работа по учету объективных факторов и формированию научного интереса у лиц, занимающихся научными исследованиями, в данной статье мы представляем некоторые ее аспекты. Уровень. В будущем он будет использоваться в качестве комплексного фундаментального исследования. обучение является одной из следующих задач.

**Ключевые слова:** научные исследования, научные исследования, научные методы, социальное развитие, научно-техническое развитие, экономическое развитие, культурное развитие, знания, научное мышление, личные возможности.

## IN PEOPLE ENGAGED IN SCIENTIFIC RESEARCH WORK CONSIDERING OBJECTIVE FACTORS AND FORMING SCIENTIFIC INTEREST

### **Annotation.**

**INTRODUCTION:** this article reveals the scientific, theoretical and practical significance of taking into account objective factors and the formation of scientific interest among persons engaged in scientific research. It was also analyzed that research work is related to the needs of life, and its methodology and methods are carried out using methods and mechanisms accepted in science that help to effectively carry out creative activities.

**AIM:** to take into account objective factors and generate scientific interest among those engaged in research work, confirm a positive cultural



phenomenon in the chosen topic, develop a technology for further increasing material and spiritual wealth, and show clear, scientifically based ways.

**MATERIALS AND METHODS:** Standard competence is the ability to perform normal and routine tasks associated with an activity; Basic competence – the ability to perform innovative tasks related to this activity; Leading competence is the ability to create new types of professional activities. Particular attention should be paid to the competitiveness of modern personnel as the basis for provision.

**CONCLUSION:** purposeful work is being carried out to take into account objective factors and generate scientific interest among people engaged in scientific research; in this article we present some of its aspects. level. In the future, it will be used as a comprehensive basic research. training is one of the following tasks.

**Keywords:** scientific research, scientific research, scientific methods, social development, scientific and technological development, economic development, cultural development, knowledge, scientific thinking, personal capabilities.

*Tadqiqot mavzusini tanlashda obyektiv omillarni hisobga olish qanchalik muhim bo'lmasin, ular subektiv omillar borligini inkor qilolmaydi. Ijod, shu jumladan, ilmiy ijod ham tadqiqotchining qiziqishi, mayli, ongi, bilimi, dunyoqarashi, e'tiqodi, sensitiv kechinmalar, refleksiv va gnoseologik tajribalarining mahsulidir.*

Tadqiqotchining ilmiy qiziqishini hisobga olmasdan mavzu berish noo'rin. Qiziqishiga zid bo'lgan mavzu tadqiqotchini ilmiy yangilik, kashfiyat qilishga etaklamaydi. Vaholanki, ilmiy tadqiqot dan maqsad ilm-fanga biror yangilik olib kirish, betakror g'oyalar, fikr-xulosalar bilan ilmiy merosni boyitishdir.

To'g'ri, ilmiy qiziqish ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq kelmasligi, hatto ularga zid kelishi mumkin. Bunday taqdirda, tadqiqotchining shaxsiy, ilmiy qiziqishi bilan ijtimoiy talablarni muvofiqlashtirish tavsiya etiladi. Biroq, buni alohida esda tutish darkor, ijtimoiy talablar bayrog'i ostida tadqiqotchining qiziqishini unutish uning ilm-fanga haqiqiy sodiq mutaxassis, mustaqil, erkin fikrlovchi olim sifatida shakllanishiga yordam bermaydi.

Bilim va ilmiy tafakkurga ega shaxs tadqiqot mavzusini o'zi,



mustaqil tanlash imkoniga ega bo'ladi. Oliy ta'lim tizimi ana shunday bilim va ilmiy tafakkurning asosini shakllantiradi. Ammo ilmiy izlanishlar uchun ushbu asos etarli emas, tadqiqotchi mavzuga va uning muammolariga oid maxsus bilim va ilmiy tafakkurga ega bo'lishi zarur. Ushbu bilim va tafakkurni u magistratura, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida va ilmiy davralar, suhbatlar, konferensiyalarda qatnashish orqali oladi. Eng muhimi, tadqiqotchi tanlagan mavzusi va muammosi borasida ilmiy izlanishlar olib borgan, klassik deb tan olingan yirik olimlar merosidan yaxshi xabardor bo'lishi darkor. Ushbu merosni yaxshi bilmay, o'zlashtirmay, ilm-fanda biror yangi fikr aytish qiyin.

Ijtimoiy taraqqiyotni bugun ilmiy-texnik kashfiyotlarsiz, ixtirolarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson mehnatini engillashtirish va samaradorligini oshirish, ijodiy salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish imkoniyatini beruvchi vositalar, mexanizmlar va shart-sharoitlar yaratish ilmiy-texnik taraqqiyotning bosh vazifasidir. Bugun jon-jahd va fidoyilik bilan mehnat qilish etarli emas, mehnatni, faoliyatni ratsional tashkil etish, samaradorligini oshirish yo'llarini izlash muhimdir. Jamiyatga ilmiy aqliy quvvatlariga tayanib, mehnatni, faoliyatni oqilona uyushtirishga, ijtimoiy ehtiyojlarni to'la qondirishga qaratilgan usullarga, vositalarga tayanadigan, ushbu usullarni va vositalarni kashf etadigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham tadqiqot mavzusini ilmiy-texnik rivojlanish maqsadidan kelib chiqib tanlash talab etiladi. Ilm-fan oldiga ijtimoiy-siyosiy tuzum ham o'z talabini qo'yadi. Ijtimoiy-siyosiy tuzum ichki institutlarini o'z maqsadiga muvofiq faoliyat olib borishini istaydi, aks holda tuzum bilan institutlar o'rtasida begonalashuv yuzaga keladi. Aniq strategik maqsadi va rivojlanish dasturiga, modeliga ega ijtimoiy-siyosiy tuzum barcha sohalarni institutlarni, shu jumladan ilm-fanni ham ana shu strategik maqsad va rivojlanish dasturiga, modeliga xizmat qilishga yo'naltiradi. Ushbu obyektiv, ijtimoiy talabga xizmat qilishga tayyor tadqiqotgina siyosiy tuzum tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Iqtisodiy rivojlanish barcha davrlarda, barcha davlatlarda ilm-fan rivojlanishiga ta'sir etuvchi obyektiv omil bo'lib kelgan. Inson va jamiyatning moddiy ehtiyojlarini qondirish orqaligina ilm-fan, ilmiy izlanishlar o'zining ijtimoiy foydali mashg'ulot, faoliyat ekanini isbotlagan. Demak, ilmiy tadqiqot mavzusini tanlashda iqtisodiy rivojlanish omili unutilmasligi kerak.



Ilmiy tadqiqot oʼtkazish ratsional tashkil etiladigan, oʼziga xos metodika va metodlarga ega ijodiy faoliyatdir. Uning ratsionalligiinson aqlu idroki va real hayotiy talablarni bilan bogʼliqligida, metodikasi va metodlari esa, ilm-fanda qabul qilingan, ijodiy faoliyatni samarali oʼtkazishga yordam beradigan usullar va mexanizmlardan foydalanganidadir.

Ilmiy izlanish murakkab, serqirra va ziddiyatli kechadigan jarayondir. Tadqiqotchi ichki va tashqi taʼsirlari ostida izlanish olib boradi, mazkur taʼsirlarni ilmiy maqsadga yoʼnaltirish oson emas. Ilmiy tadqiqot oʼtkazish metodikasini egallagan, ilmiy metodlardan yaxshi xabardor va ularni qoʼllay oladigan shaxs koʼzlagan maqsadiga erishadi, ilm-fan sohasida biror eʼtiborli fikr ayta oladi. Ilmiy tadqiqot oʼtkazishning asosiy maqsadi obyektning real holatini ideal holatga koʼtarish hisoblanadi. Mazkur maqsadga etishning samarali yoʼllarini, mexanizmlarini topish va jamiyatga taklif etish olimning vazifasidir. Mualliflar yosh tadqiqotchilarni oʼz burchini obyektiv bajarishga, buning uchun esa ilm-fanda shakllangan metodlarga tayangan holda ijodiy kreativ pozitsiyada turishga daʼvat etadilar.

Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlashgacha boʼlgan jarayonlarni tadqiqotchining «oʼzini oʼzi izlash», «oʼzligini topish» davri deb atash mumkin. Bu davrda tadqiqotchi hali biror-bir mavzuni tanlashdan, uni biror muammo bilan bogʼlashdan uzoq boʼladi. Tajriba koʼrsatadiki, ilm sohasiga birinchi qadam tashlaganidayoq mavzu topib, uni biror muammo bilan bogʼlay olgan tadqiqotchi deyarli uchramaydi. Demak, mavzu tanlashda ilm sohasidan, mavzuga oid izlanishlar va muammolardan yaxshi xabardor mutaxassisning yordami, maslahati zarur. Bunday mutaxassis mavzu tanlashga taʼsir etuvchi obyektiv omillardan xabardor boʼlgani uchun ham «ilmiy rahbar», «ilmiy maslahatchi», tadqiqotni ratsional olib borishni oʼrgatuvchi «ustoz» deb ataladi.

Mavzuni tanlashga undovchi obyektiv omillar quyidagilardanI borat:

- ijtimoiy taraqqiyot talabi;
- ilmiy-texnik taraqqiyot talabi;
- iqtisodiy rivojlanish omili;
- madaniy yuksalish ehtiyoji.

Ilm-fanning ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishi aksiomadir. Shuning



uchun tanlanadigan mavzu ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari va vazifalari bilan bog'liq bo'lishi zarur. Ijtimoiy taraqqiyot deganda umuminsoniy rivojlanish, umumbashariy qadriyatlarni asrash va ko'paytirish, ijtimoiy hayotni yanadainsoniy lashtirish, global muammolarni hal etish, insoniyat erishganyutuqlarni, pozitiv tajribalarni yanada ko'paytirish nazarda tutila di. Mazkur maqsad va vazifalarga xizmat qilish orqaligina ilm-fan, o'tkaziladigan tadqiqot, tanlanadigan mavzu pozitiv ahamiyat kasb etadi.

Tanlanadigan mavzu g'ayrimadaniy bo'lmasligi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning pozitiv hodisa ekanligini inkor qilmasligi, hatto shubha ostiga olishi mumkin emas. Tanlanadigan mavzu madaniyatning pozitiv hodisaligi ni tasdiqlashi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yanada ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishi, aniq, ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatishi zarur. Tadqiqotchining maqsad va vazifalari shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ma'naviy-axloqiy tajribasini, qarashlarini ifoda etadi. Mavzu shunchaki nomlanish, hatto tadqiqot natijasigina emas, u tadqiqotchining ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi hamdir.

Mavzuning dolzarbligini asoslash orqali tadqiqotchi muammoning davr, taraqqiyot, ilm-fan uchun qanchalik muhimligini isbotlaydi. Mavzuning dolzarbligini yuqoridagi obyektiv va subektiv omillar orqali asoslash mumkin. Mavzuning o'rganilmaganligi yoki kam o'rganilgani, muammoga oid ziddiyatli yondashuvlir, konsepsiylar yoki pastulatlar ilgari surilayotgani, u yoki bu hodisaning pozitiv natijalariga olib kelmayotgani, taraqqiyotga to'siq bo'layotgani, shaxs va jamiyat munosabatlarida «begonalashuv» hollarining paydo bo'layotgani, huquqiy normalarni deviant xulq-atvorga samarali ta'sir etolmayotgani dolzarb mavzular sifatida tadqiq etilishi mumkin. Biroq mavzu dolzarbligini asoslashda ilmiy izlanishlardan kelib chiqarilgan bitta pastulatga tayanish darkor. U – tadqiqot obyekti (predmeti)ning real holati bilan ideal holati o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan kelib chiqishdir. Masalan, ob'ekt (inson) bugun, real holatida ikkita – o'zbek va rus tillarini biladi. Lekin u ideal holatida qirqta tilni bilishi, o'rganishi va ularda bemalol gaplashishi mumkin. Tadqiqot qanday sabablar, omillar insonning ideal holatga etishiga to'siq bo'lmoqda, nimalar qilganda insonni ideal holatga etkazish, tarbiyalash mumkin, degan savollarga javob izlashi darkor. Tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslayotganda



obyekt (predmet)ning ideal holatga ketishiga g'ov bo'layotgan asosiy sabablar, omillar ko'rsatilishi zarur.

Tadqiqot obyekti (predmeti)ning real holati bilan ideal holati o'rtaqidagi fundamental mushtaraklik uning (obyekt yoki predmetning) makon va zamonda mavjudligidir. Tadqiqot obyekti (predmeti) izlanishdan oldin ham makon va zamonda mavjud edi, u izlanishdan keyin ham makon va zamonda mavjud bo'lishi zarur. Lekin u real holatdan ideal holatga o'tganida sifatan o'zgarishi, ya'ni real holatida yo'q xislatlar, qarashlar, ko'nikmalar va aloqalarni o'zida shakllantirishi mumkin. Real holat ideal holatning antagonist emas, u ideal holatning takomillashtirilishi zarur bo'lgan ko'rinishidir. Ideal holat ham real holatning antagonist emas, u real holatning takomillashtirilgan ko'rinishidir. Biroq ijtimoiy taraqqiyot real holatni boricha, mavjudligicha qoldirolmaydi, uni takomillashtirmay, ijtimoiy taraqqiyot amalgalashmaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning immanent qonuni real holatdagi g'ov, to'siq, konservativ qarashlarni ideal holatning ziddi, hatto raqibiga aylantirishi mumkin. Shuning uchun ham jamiyat bir ijtimoiy-tarixiy bosqichidan ikkinchi, ko'pincha ilgarigi bosqichga zid, qarama-qarshi bosqichga o'tayotganida real holatdagi mavjud to'siqlarni kuch bilan bartaraf etadi.

Ko'pincha tadqiqotchilar mavzu dolzarbligini asoslashda tasdiqlash usulidan foydalanadilar. Aslida muammo mavjudligini ta'kidlash ham konstatatsiya usulidir. Ammo, bizning fikrimizcha, mavzu dolzarbligini asoslashda nafaqat konstatatsiya, shuningdek, ziddiyatlarni keltirish, real holatdagi to'siqlarni sanash, ideal holatga etishishning ijtimoiy zaruriyat ekanini ta'kidlash usulidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ijtimoiy hayotning sotsiodinamik xususiyati mavzu dolzarbligini real holatdan ideal holatga borish yo'llarini izlash orqali asoslashga undaydi. Konstatatsiya usuli ko'pincha barqaror, turg'un narsalarni, amalgalashmaydi. Tadqiqot obyekti (predmeti)ning real holatidan ideal holatiga borishi esa ijtimoiy taraqqiyotning sotsiodinamik xususiyatiga muvofiqdir, shuning uchun mavzu dolzarbliginiasoslashga sotsiodinamik yondashish darkor.

Har bir ilm sohasida mavjud empirik tajribalarni, gnoseologik izlanishlar natijalarini jamlash, umumlashtirishga zaruriyat mavjuddir. Bunday ilmiy izlanish fundamental ahamiyatga ega bo'lib, u ilm



sohasining real holatini, u duch kelayotgan nazariy, falsafiy, metodologik muammolar nimalardan iborat ekanini va uning rivojlanish yo'llarini, ideal holatga etish bosqichlarini aniqlab olishga yordam beradi. Ilm sohasining bunday xususiy muammolarini o'rganish tadqiqotchidan katta gnoseologik tajriba va ilm-fanning falsafiy metodologik muammolaridan yaxshi xabardorlikni talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'naliishlari. *fan, ta'lim va amaliyotning integrasiysi*, 1(1), 20-27.
6. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.

### **MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

Olimov Temur Hasanovich,  
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsenti,*  
*Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro, Dilodob-zafarobod-26*  
[olimovtemir7@gmail.com](mailto:olimovtemir7@gmail.com)  
<https://orcid.org/0009-0009-1783-8380;>



## OMMAVIY SPORT OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINI TASHKIL ETISHDA – MUHIM VOSITA SIFATIDA



*Rashidov Xurshid Karimovich,  
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Navoiy shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Jismoniy tarbiya, badantarbiya – sog'liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko'rsatkichlardan biri. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg'ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Bundan tashqari, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo'shib olib boriladi. Jismoniy tarbiyaning keng tarmoqli tizimi: oilaviy-maktabgacha davr



(chaqaloqlikdan boshlab bog'cha yoshidagi), maktab yoshi, o'rta maxsus va oliy ta'lif davri hamda katta yoshdagi (erkak va ayollar) badan tarbiyasini o'z ichiga oladi. Jamiyatimizning taraqqiyoti, yosh avlodning porloq kelajagi uchun muhim bo'lgan bu tizimni rivojlantirishda oila va ta'lif muassasalarini birdek mas'uldir.

**MADSAD:** Jismoniy tarbiya va sportga qiziqish, e'tibor qaratish, sportning biror-bir turi bilan shug'ullanish mantiqan fikrlash, xotira va diqqatni charxlaydi, bo'g'implarning harakatchanligi yaxshilanib, kuch, tezlik, chidamlilik va qobiliyatni tarbiyalaydi.

**MATERIALLAR VA METODIKALAR:** Barkamol avlod tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila sog'lom avlodni voyaga etkazuvchi muhim omil hisoblanadi. Demak, inson salomat yashashi uchun boshqa omillar bilan birga sog'lom oilaviy muhit ham lozim. Bunday muhit oila a'zolarining bir-birini tushunishga, oilaviy munosabatlarning to'g'ri o'rnatilishiga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, barkamol avlod tarbiyasi uchun sog'lom muhitni yaratish ota-onaning bosh vazifasidir.

Aytish joizki, kun tartibiga amal qilish sog'lom turmush tarzi asosidir. Kun tartibi insonning dunyoga kelgan kunidan boshlab amalda bo'luvchi doimiy jarayon sanalib, shaxsning turli mazmundagi faoliyatlarni — mehnat qilish, dam olish, ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish va hokazolarni muayyan vaqtida, tartib bilan ketma-ket bajarishidir.

**XULOSA:** Ommaviy sport turlarining inson salomatligini mustahkamlashdagi roli, ulug' allomalar va dunyoga mashhur shaxslarning jismoniy tarbiya va sport haqidagi fikrlari aks etgan tarqatma materiallar, ko'rgazmali burchaklar ham yaxshi targ'ibot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday tashqari, tarixiy shaxslar va tarixiy sanalarga bag'ishlab o'tkaziladigan turkum tadbirlar doirasida sport o'yinlari salmoqli joy olishi zarur.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy madaniyat, tarbiya, sog'lom turmush, oila, tizim, barkamol avlod, sport, targ'ibot.

## ПОПУЛЯРНЫЙ СПОРТ КАК ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ В ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА СЕМЬИ И СОСЕДСТВА

**Аннотація.**

**ВВЕДЕНИЕ:** Физическое воспитание, физическое воспитание является неотъемлемой частью общего образования, направленной



на укрепление здоровья и гармоничное развитие организма человека. Это один из индикаторов состояния физической культуры в обществе. Основные средства физического воспитания: физическое воспитание, физическое воспитание, гигиена труда и быта. Кроме того, оно сочетается с интеллектуальным, нравственным, трудовым и эстетическим воспитанием. Разветвленная система физического воспитания включает: семейно-дошкольный период (от младенческого до детсадовского возраста), школьный возраст, период среднего специального и высшего образования, взрослую (мужскую и женскую) физкультуру. Семья и образовательные учреждения в равной степени ответственны за развитие этой системы, важной для развития нашего общества и светлого будущего молодого поколения.

**ЦЕЛЬ:** Интерес к физкультуре и спорту, внимательность, занятия каким-либо видом спорта обостряют логическое мышление, память и внимание, улучшают подвижность суставов, развивают силу, скорость, выносливость и ловкость.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Воспитание идеального поколения начинается с семьи. Семья является важным фактором воспитания здорового поколения. Итак, чтобы человек жил здоровым, наряду с другими факторами необходима здоровая семейная среда. Такая обстановка зависит от взаимопонимания членов семьи и правильного налаживания семейных отношений. Поэтому главная задача родителей – создать здоровую среду для воспитания всесторонне развитого поколения.

Стоит сказать, что соблюдение режима дня – основа здорового образа жизни. Распорядок дня – это непрерывный процесс, происходящий со дня появления человека на свет.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Хорошим средством пропаганды также служит роль массового спорта в укреплении здоровья человека, раздачный материал и выставочные уголки, отражающие мнения великих ученых и всемирно известных деятелей о физическом воспитании и спорте. Кроме того, спортивные игры должны занять значимое место в ряду мероприятий, посвященных историческим личностям и историческим датам.

**Ключевые слова:** физическая культура, образование, здоровый образ жизни, семья, система, зрелое поколение, спорт, пропаганда.



## POPULAR SPORTS AS AN IMPORTANT TOOL IN ORGANIZING FAMILY AND NEIGHBORHOOD COOPERATION

### **Annotation:**

**INTRODUCTION:** Physical education, physical education is an integral part of general education aimed at strengthening health and harmonious development of the human body. It is one of the indicators indicating the state of physical culture in society. The main means of physical education: physical training, physical training, work and life hygiene. In addition, it is combined with intellectual, moral, labor and aesthetic education. The wide-ranging system of physical education includes: family-preschool period (from infancy to kindergarten age), school age, secondary special and higher education period, and adult (male and female) physical education. Family and educational institutions are equally responsible for the development of this system, which is important for the development of our society and the bright future of the young generation.

**AIM:** Interest in physical education and sports, paying attention, engaging in some kind of sport sharpens logical thinking, memory and attention, improves mobility of joints, develops strength, speed, endurance and ability.

**MATERIALS AND METHODS:** Education of a perfect generation begins with the family. The family is an important factor in raising a healthy generation. So, for a person to live healthy, a healthy family environment is necessary along with other factors. Such an environment depends on mutual understanding of family members and proper establishment of family relations. Therefore, it is the main task of parents to create a healthy environment for the education of a well-rounded generation.

It is worth saying that following a daily routine is the basis of a healthy lifestyle. Daily routine is a continuous process that takes place from the day a person comes into the world.

### **CONCLUSION:**

The role of mass sports in strengthening human health, handouts and exhibition corners that reflect the opinions of great scientists and world-famous persons about physical education and sports also serve as a good means of promotion. In addition, sports games should take a significant place within the series of events dedicated to historical figures and historical dates.



**Key words:** physical culture, education, healthy life, family, system, mature generation, sport, propaganda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oldimizga mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va istedodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalarni qo'ydilar. Jismoniy tarbiya va sportga qiziqish, e'tibor qaratish, sportning biror-bir turi bilan shug'ullanish mantiqan fikrlash, xotira va diqqatni charxlaydi, bo'g'imlarning harakatchanligi yaxshilanib, kuch, tezlik, chidamlilik va qobiliyatni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, yuqori elka kamari, oyoq-qo'llar mushaklari ishi faollashib, organizmning hamma a'zolari va tizimlari ishi rag'batlantiriladi. Insonga ana shunday bebaho imkoniyatlarni beradigan sportga bolalarni qiziqtirish, ularni sport bilan mashg'ul qilish, avvalambor, oiladan boshlansa, maqsadga muvofiqdir.

Darhaqiqat, oilada ota-onalar o'zlari jismoniy tarbiya bilan shug'ullanib, oilada chiniqtirish ishlarini tashkil etib va ertalab bajariladigan jismoniy daqiqalarni zaruriy va odatiy mashgulotga aylantirsalar, farzandlariga o'zlari shaxsiy namuna bo'lgan holda eng to'g'ri tarbiyani bera boshlagan bo'ladilar. Vaholanki, qush uyasida ko'rganini qiladi, deb bejizga aytilmagan.

Chunki ommaviy sportni rivojlantirishning negizi oilada bajariladigan, hech qanday mablag' talab etilmaydigan yoki ortiqcha muammolar keltirib chiqarmaydigan oddiy ertalabki badantarbiyaning o'zginasidir. Jismoniy tarbiya mashqlarini bajarish faqatgina instruktor yoki trener rahbarligida, uning ko'rsatmalari asosida emas, balki har bir inson o'zining fiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqib, ongli ravishda amalga oshirishi zarur. Bu narsa insonning ham jismoniy, ham tibbiy ham estetik madaniyati saviyasini belgilaydigan mezondir. Zero, jismoniy tarbiya va sport – tengsiz go'zallik va bebaho boylik hisoblangan salomatlikning garovi ekanigini farzandlarimiz ongiga bolalikdan singdirsakkina ezgu maqsadimizga erishgan bo'lamiz.



Barkamol avlod tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila sog'lom avlodni voyaga etkazuvchi muhim omil hisoblanadi. Demak, inson salomat yashashi uchun boshqa omillar bilan birga sog'lom oilaviy muhit ham lozim. Bunday muhit oila a'zolarining bir-birini tushunishga, oilaviy munosabatlarning to'g'ri o'rnatilishiga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, barkamol avlod tarbiyasi uchun sog'lom muhitni yaratish ota-onaning bosh vazifasidir. Mustaqil O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi tub o'zgarishlar ham oilada yangilanish, o'zgarishni amalga oshirishni taqozo etadi. Azal-azaldan oilada inson tarbiyasi va komil farzand tarbiyalash muhim jarayon hisoblangan. Sog'lom avlodni barkamol tarbiyalash oila zimmasiga tushadi. Eng avvalo, oilada sog'lom ma'naviy muhit, oila a'zolari o'rtasida o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarni shakllantirish, ma'naviy qadriyatlarimizni saqlab qolish asosiy vazifamiz bo'lib qolmog'i lozim. Aytish joizki, kun tartibiga amal qilish sog'lom turmush tarzi asosidir. Kun tartibi insonning dunyoga kelgan kunidan boshlab amalda bo'luvchi doimiy jarayon sanalib, shaxsning turli mazmundagi faoliyatlarni — mehnat qilish, dam olish, ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish va hokazolarni muayyan vaqtida, tartib bilan ketma-ket bajarishidir. Tabiiyki, kun tartibi hamma uchun bir xil emas va u shaxsning yoshi, sog'lig'i, ish qobiliyati va maishiy turmush sharoitiga muvofiq tuziladi. Uning umumiy talablariga amaliy mehnat bilan jismoniy mehnatning to'g'ri taqsimlanishi, o'z vaqtida dam olish, har kuni muayyan vaqt va meyorda ovqatlanish, ma'lum vaqtida uyquga yotish va barvaqt uyg'onishga odatlanish, ochiq havoda sayr etish kabilar kiradi. Insonning sog'lom yoki nosog'lom turmush tarzi ham kun tartibining to'g'ri yoki noto'g'ri uyush-tirilganiga bog'liq. To'g'ri tuzilgan kun tartibi organizmning har tomonlama to'g'ri rivojlanishi, irodaning mustahkamlanishi, mehnat unumdoorligi yuqori bo'lib, ishslash qobiliyatining uzoq vaqt yaxshi saqlanishi, kasallanishining oldini olishda muhim o'rinn tutadi. Sog'lom turmush tarzi omillaridan yana biri — ozodalikdir. Ushbu tamoyilni, asosan, oila muhitida shakllantirish va unga amal qilishni o'rgatish joizdir.

Oilalarda ma'naviy-axloqiy muhit jismoniy tarbiya orqali mustahkamlashga va sog'lomlashtirishga ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida munosabati darajalari bo'yicha statistik tahlil ishlarini Fisher kriteriyasi orqali tahlil qilamiz.



Ota-onalar bilan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida olingan natijalar bo'yicha statistik tahlili Fisher kriteriyasi empirik qiymatini hisoblovchi formulasidan, ya'ni  $\varphi_{\text{emp}} = |2\arcsin\sqrt{p_1} - 2\arcsin\sqrt{p_2}| \cdot \sqrt{\frac{n_1 \cdot n_2}{n_1 + n_2}}$  foydalanildi. Bu erda  $p_1, p_2$  tajriba boshi va tajriba oxiridagi ota-onalarning ijobjiy o'zlashtirish ko'rsatkichlari,  $n_1, n_2$  lar mos ravishda tajriba boshi va tajriba oxiridagi ota-onalarning soni,  $\varphi_{\text{krit}}(0.05) = 1.67$

$H_0$  gipoteza sifatida  $\varphi_{\text{emp}} < \varphi_{\text{krit}}$ , ya'ni olingan natijalarda farq yo'q,  $H_1$  gipoteza sifatida esa  $\varphi_{\text{emp}} > \varphi_{\text{krit}}$  ya'ni olingan natijalarda farq mavjud va u samaradorlikka ega deb olamiz.

Tajriba boshi va tajriba oxiridagi ota-onalarning oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni jismoniy tarbiya orqali mustahkamlashga va sog'lomlashtirishga munosabati darajalari statistik tahliliga ko'ra tajriba boshi va tajriba oxiridagi olingan natijalarda farq mavjud bo'lib,  $\varphi_{\text{emp}} > \varphi_{\text{krit}}$  bo'lgani uchun  $H_1$  gipoteza qabul qilinadi, bu esa ota-onalarning oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni jismoniy tarbiya orqali mustahkamlashga va sog'lomlashtirishga munosabati darajalari ekanligini bildiradi.

Ushbu formulalar asosida yuqorida olingan natjalarning statistik tahlilini quyidagi jadvallarda keltirildi(1-jadval).

1-jadval.

### Mamlakatimizdagi uch viloyatning uch hududida o'tkazilgan tajribaning statistik tahlili

Viloyatlar, tumanlar	Ota-onalar soni	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Olingan natijalar farqi	Tajriba sinfi ijobjiy koyeffitsient	Nazorat sinfi ijobjiy koyeffitsient	Fisherning empirik qiymati	Fisherning qritik qiymati	Kriteriya xulosasi
Navoiy viloyati Navoiy shahar	52	46,2%	63,5%	17,3%	0,462	0,635	3,58	1,67	$H_1$
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani	51	49,0%	66,7%	17,6%	0,490	0,667	3,68	1,67	$H_1$



Samarqand viloyati Paxtachi tumani	53	43,4%	66,0%	22,6%	0,434	0,660	4,70	1,67	H1
Jami	156	46,2%	65,4%	19,2%	0,462	0,654	3,99	1,67	H1

Shunday qilib, oilalarda maʼnaviy-axloqiy muhit jismoniy tarbiya orqali mustahkamlanganligi va sogʼlomlashtirilganligi matematik-statistika metodlariga murojaat etilganligida oʼz ifodasini topdi.

Chunki nolinchgi gipoteza yuqori darajali qiymatda rad qilinmoqda, bu tajriba-sinov guruhi va nazorat guruhi chastotalari farqi statistik ishonchli ekanidan dalolat beradi.

Shunday qilib, tahlillar shuni koʼrsatmoqdaki, tajriba-sinov boshida  $\alpha=0,05$  darajada oilalarda maʼnaviy-axloqiy muhit mustahkamlanganligi va sogʼlomlashtirilganligi jismoniy tarbiya natijasida sezilarli koʼrsatkichlarni berdi.

Tajriba-sinov davrida oilalarda maʼnaviy-axloqiy muhit jismoniy tarbiya orqali mustahkamlanganligi va sogʼlomlashtirilganligi koʼrindi.

Unutmang! Sogʼlom turmush tarzi, bu — har qanday kasalliliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovidir. Sogʼlom turmush tarzi qoidalari rioya etgan odam oilasida, mehnat jamoasida, umuman, jamiyatda oʼz oʼrniga ega boʼladi, turli murakkab vaziyatlarni engib oʼtish, hayot qiyinchiliklari oldida oʼzini yoʼqotmaslikka oʼrganadi. Yana bir gap! Sogʼlom turmush tarzi qoidalari bir-birini qoʼllab-quvvatlaydi, biri ikkinchisiz sodir boʼlishi amrimahol. Ularni ertaga qoldirmasdan, hoziroq amalga oshirishni boshlash bilan sogʼlom va baxtli hayot sari ilk qadamlarimizni tashlagan boʼlamiz. Sogʼlik bu insonning birinchi muhim ehtiyoji boʼlib, uning ishga yaroqlilagini, shaxsning har tomonlama rivojlanishini taʼminlaydi. Sogʼlom va maʼnaviy rivojlangan kishi baxtlidir. U oʼzini yaxshi his etadi, oʼz ishidan qoniqadi, yoshlikning soʼnmas hissiyoti va ichki goʼzalligi ila ilm olishga intiladi. Sogʼlom turmush tarzi qoidalari inson sogʼligini taʼminlashda xizmat qiladi, kasalliklarning boshlangʼich profilaktikasi, sogʼlikning muhim omili sifatida tan olingan. Sogʼlom turmush tarzining eng ustuvor yoʼnalishi – bu harakatlar tartibidir. Uning asosini toʼgʼri ovqatlanish hamda tizimli jismoniy mashqlar, sport bilan shugʼullanish tashkil etadi. Sport – umrimiz oxiriga qadar sogʼlom hayot kechirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi .



U yosh ham, joy ham, hattoki shart-sharoit ham tanlamaydi. Uning koʻrinishlari, shakllari, usullari koʻp. Yoga, piyoda yurish, yugurish, turnikka tortilish, raqs, gimnastika, futbol va hokazolar . Istaganingizni tanlang, jismonan faol boʼlsangiz kifoya. Har kuni emas, kunora 30-60 daqiqa sport bilan shugʼullansangiz, sogʼlom boʼlishingiz uchun etarli. Kamroq oʼtirish va koʼproq harakatlanish kerak. Agarda kasbingiz oʼtirib ishlashni taqozo etsa, har soatda kamida 5 daqiqa tanaffus qiling va bu vaqtda turli engil mashqlarni bajarib, elka, bel va oyoqlar chigilini yozing. Hozirgi kunda Oʼzbekiston Respublikasida sportni rivojlantirishga va yosh sportchilarni xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish, jismoniy salohiyati yuqori, ruhiy tetik sportchilarni tayyorlashga katta eʼtibor koʼrsatib kelinmoqda. Hozirgi kunda Oʼzbekiston Respublikasi barcha umumtaʼlim muassasalarida sport bilan shugʼullanish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Maktablarda muntazam ravishda oʼtkaziladigan “Quvnoq startlar”, sport musobaqalarining oʼtkazilishi yosh avlodning jismoniy tarbiya bilan shugʼullanishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Yoshlikdanoq farzandlarimizni jismoniy tayyorgarlikka mos ravishda tarbiyalashimiz davr taqozosidir. Sport shunday bir ulkan kuchki, barcha yutuqlarni dunyo miqyosida namoyish eta oladi. Oʼzbekiston ham oʼzining championlari bilan dunyo minbarida oʼz nufuziga egadir. Bizning mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga juda kata eʼtibor berilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida sport yuqori pogʼonaga koʼtarildi. Ibn Sino bobomiz aytganidek: “Tarbiyaning ajratib boʼlmaydigan bir tarkibi jismoniy tarbiyadir”. Inson salomatligining 10%-tibbiyat, 15%-irsiy belgilar, 20%-atrof muxit, 55%-tur mush tarzi belgilab beradi. Demak, ming-yillar oldin ham jismoniy tarbiya va inson harakati orqali etuklikka, sogʼlom hamda ruhan tetik yashashga erishilgan.

Maʼlumki, insonning ruhan tetik boʼlishi uning salomatlik darajasi bilan birga jismoniy faolligiga uzviy bogʼliq. Bejizga: “Toʼxtaganni oʼtirgisi, oʼtirganni yotgisi, yotgan odamni uxlagisi keladi”, – deyishmagan. Toʼxtab qolgan har qanday narsada yomon oʼzgarish sodir boʼlgani kabi, yaʼni oddiygina oqar suv ham toʼxtashi natjasida aynigani kabi harakatsizlik ham inson organizmi uchun bora-bora zararli oqibatlarni keltirib chiqaradi.



Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha bir qancha meyoriy hujjatlar qabul qilinib, ijrosi yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunday bir sharoitda sportning ommaviy turlari bilan muntazam shug'ullanishni targ'ib qilish orqali yosh avlodni jismonan sog'lom voyaga etishini ta'minlash bilan birgalikda yurt ravnaqi va jamiyat taraqqiyoti uchun ham o'z hissamizni qo'sha olamiz.

*Buning uchun quyidagilarni muntazam amalga oshirib borish lozim bo'ladi:*

1. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining malakasini tom ma'noda oshirib borish.
2. Doimiy va izchil targ'ibot.
3. Shaxsiy namuna.
4. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Aynan maktab yoshidagi bolani jismoniy tarbiyaga qiziqtirishda o'qituvchi mahorati alohida o'rinni tutadi. Mahoratli o'qituvchi o'zi dars beradigan sinfdagi har bir o'quvchisini 45 daqiqalik dars davomida kuzatishga, uning ruhiy va jismoniy holatini baholashga, shunga asoslanib, guruhda va yakka tartibda, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarda qanday ishlashgacha bo'lgan jarayonni rejalashtira oladi. Afsuski, ko'pchilik jismoniy tarbiya fani o'qituvchilar hattoki sinf jurnalida o'zlari to'ldiradigan antropometrik ko'rsatkichlar mohiyatini to'liq anglab etmaydi. Bola psixikasini yaxshi bilmaganligi bois dars jarayonlarida zo'ravonlik holatlariga duch kelamiz. Shu sababli jismoniy tarbiya darslarida etarlicha samaradorlikka erishib bo'lmayapti.

Targ'ibot uchun ta'sirchan va turli-tuman usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Maktabda o'tkaziladigan sport musobaqalari oldidan, al-batta, bu musobaqalarning ahamiyati to'g'risida ko'rgazmali, og'zaki, yozma targ'ibot olib borilishi, musobaqalar jarayoniga turli kasb egalari tashrifi va ularning faol ishtirokini ta'minlash yaxshi samara beradi. Ommaviy sport turlarining inson salomatligini mustahkamlashdagi roli, ulug' allomalar va dunyoga mashhur shaxslarning jismoniy tarbiya va sport haqidagi fikrlari aks etgan tarqatma materiallar, ko'rgazmali burchaklar ham yaxshi targ'ibot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, tarixiy shaxslar va tarixiy sanalarga bag'ishlab o'tkaziladigan turkum tadbirilar doirasida sport o'yinlari salmoqli joy olishi zarur. Shu o'rinda milliy sport o'yinlarini o'tkazib borish, "Alpomis va Barchinoy"



kabi milliy timsollar nomi bilan bog'liq mavsumiy o'yinlarni yo'lga qo'yish lozim. Biologiya, odam va uning salomatligi darslarining mazmunida jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlarini targ'ib qilish alohida ahamiyatga ega. Chunki har bir mavzu mazmuniga bog'langan holda tushuntirilgan, ko'rgazmali yoki amaliy bajarib ko'rsatilgan mashq o'quvchi ongiga yaxshiroq etib boradi, qalban anglab etadi. Zero, har qanday bilim qalban anglab etilmas ekan, u shunchaki bilimligicha qoladi, amaliy ahamiyat kasb etmaydi. Maktab o'qituvchilarining, birinchi navbatda, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining qat'iy tartib-intizomga ega bo'lishi, kun tartibini to'g'ri rejalshtirish bo'yicha o'quvchiga aniq tavsiyalar bera olishi, lozim bo'lganda shaxsiy namuna ko'rsatishi avval o'quvchilarning kichik guruhida, keyinroq ko'proq o'quvchini o'ziga tortadigan magnitga aylanishi mumkin. Bunda har bir tavsiya aniq isbotlangan fikr bilan mustahkamlanishi lozim bo'ladi. Masalan: odamning kechki 22:00 dan 2:00 oralig'ida uyquda bo'lishi organizmning normal o'sishi va rivojlanishi uchun xizmat qiladigan moddalar etarli miqdorda ishlab chiqilishi uchun muhim ekanligi, sutkaning hech qaysi boshqa vaqtidagi uyqu bunday natija bermasligini anglatish kerak. Shuningdek, ertalabki badantarbiyaning muntazam bajarilishi, yugurish vaqtida baxt gormonlari ajralishi, jismoniy va aqliy faoliyatni navbatlash, etarli va sifatli uyqu shartlari, ommaviy sport turlari bilan muntazam shug'ullanishda irodaviy sifatlarning tarbiyalanib borishi, g'alaba va mag'lubiyatni oson qabul qila olish kabi jarayonlar haqida asosli ma'lumotlar berib borish muhim.

Xulosa o'mnida aytish mumkinki, inson kimnidir o'zgartirmoqchi bo'lsa, buni avvalo o'zidan boshlamog'i lozim chunki biz o'zgalarning, hattoki farzandlarimizning tanasiga egalik qila olishimiz mumkin, ammo qalbiga to'g'ridan to'g'ri egalik qila olmaymiz. Sog'lom turmush tarziga rioya qilgan ota-onalarning yutuqlariga qarab, ularga ergashgan farzandlarning ham kelajagi, albatta, buyuk bo'ladi. Sog'lom tanda sog' aql bo'lishi ham hayotiy haqiqatdir aslida. Hozirgi kunda yo'lga qo'yilgan maktab o'qituvchilarining ertalabki badantarbiya mashqlari bilan shug'ullanishlari, salomatlik kunlari kabi tadbirlarni yanada takomillashtirib borish kerak bo'ladi.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh. Mirziyoyev Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risidagi qarori. 05.06.2017yil
2. Rashidov X.K. Oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni jismoniy tarbiya orqali mustahkamlash va sog'lomlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. (Monografiya). – Navoiy. "Navoiy", 2023. - 145 bet.
3. Rashidov X.K. Jismoniy chiniqtiruvchi mashqlar yordamida oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish "Uzlyuksiz ta'lim" Ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent 2021. 82-85 bet.
4. Rashidov X.K.,Urinov Sh.R. "The Importance of Sport Games in Creating a Healthy Environment in the Family"// Indonesian Journal of Public Policy Review. Vol 18 (2022): April, 10.21070/ijppr.v18i0.1167 Environmental Policy.
5. Russo J.J. "Emil yoki Tarbiya to`g`risida" ( "Emile ou del Education"// Fransya.
6. Rashidov X.K.,Urinov Sh.R. "Oilada sog'lom muhitni yaratishda sport bilan shug'ullanishning ahamiyati"// Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya [Jild: 01 Nashr: 01 (2022)]

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Rashidov Xurshid Karimovich*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*


*Manzil: O'zbekiston, 200100, Navoiy shahri*

*[rashidovxurshid8@mail.com](mailto:rashidovxurshid8@mail.com)*

*ORCID: 0000-0001-9437-9741*



## OLIY TA'LIMDA TYUTORLIK FAOLIYATINING O'ZIGA XOS O'RNI



**Lukmonova Salomat Gafurovna**  
*Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada bugungi kunda yo'lga qo'yilgan tyutorlik faoliyatining oliy ta'limda o'ziga xos o'rni, uni tashkil etishdagi me'yoriy hujjatlarda talablar, tyutorlik faoliyatining maqsad va



vazifalaridan kelib chiqqan holda, oliy ta'limga uning huquqlari haqida so'z boradi.

**MAQSAD:** Respublikamiz oliy ta'limga muassasalarida faoliyat yuritayotgan tyutorlik faoliyatining o'ziga xos o'rnnini yoritib berish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Yurtimizda tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun bir qator qaror va farmoishlar qabul qilinganligi; jahonga yuz tutadigan ta'limga tizimimizda jahon andozalaridan namunalar olinganligi, bir qator ilmiy izlanishlar natijalari asos qilib olindi.

**XULOSA:** Bugungi kunda O'zbekiston har sohada rivojlanib borayotgan mamlakatlar sirasiga kiradi. Xususan ta'limga tizimida ham. Shuni e'tiborga olgan holda oliy ta'limga tizimi ham jahon standartlariga to'la javob bera olishi kerak. Shu sababli oliy ta'limga tyutorlik faoliyati jahon andozasida milliy talablar asosida joriy etilishi bu ayni muddaodir.

**Kalit so'zlar:** Tyutor, tyutorlik faoliyati, pedagogik-psixologik holati, oliy ta'limga, boshqaruv, nazorat, davomat, majburiyat, ma'naviy-ma'rifiy, tadbirlar.

## УНИКАЛЬНОЕ МЕСТО РЕПЕТИОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В статье говорится о конкретной роли тьютерства в высшем образовании, требованиях нормативных документов к его организаций, целях и задачах репетиторства, его правах в высшем образовании.

**ЦЕЛЬ:** внедрить систему тьютерства в обучение студентов педагогического университета. Разработать методику тьютерства для обучения студентов

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Принят ряд решений и распоряжений по налаживанию тьютерской деятельности в нашей стране; результаты ряда научных исследований были взяты за основу для взятия выборки из мировых моделей в нашей глобальной системе образования.

**ВЫВОД:** Сегодня Узбекистан входит в число развивающихся стран во всех сферах. Особенно в системе образования. Учитывая это, система высшего образования должна быть в состоянии полностью



соответствовать мировым стандартам. Поэтому важно внедрять тьютерскую деятельность в сфере высшего образования на основе национальных требований в глобальном масштабе.

**Ключевые слова:** Воспитатель, тьютерская деятельность, педагогико-психологическое состояние, высшее образование, управление, контроль, посещаемость, приверженность, духовно-воспитательные мероприятия.

## UNIQUE PLACE OF TUTORING ACTIVITY IN HIGHER EDUCATION

### **Annotation.**

**INTRODUCTION:** The article talks about the specific role of tutoring in higher education, the requirements of regulatory documents for its organization, the aims and objectives of tutoring, its rights in higher education.

**AIM:** to introduce a tutoring system into the education of pediatric university students. Develop a tutoring methodology for teaching students

**MATERIALS AND METHODS:** A number of decisions and orders have been adopted to establish tutoring activities in our country; The results of a number of scientific studies were used as a basis for drawing a sample from world models in our global education system.

**CONCLUSION:** Today Uzbekistan is among the developing countries in all areas. Especially in the education system. With this in mind, the higher education system must be able to fully meet global standards. Therefore, it is important to implement tutoring activities in higher education based on national requirements on a global scale.

**Key words:** Educator, tutoring activities, pedagogical and psychological state, higher education, management, control, attendance, commitment, spiritual and educational activities.

Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 563-tonli qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 13-



sentabrdagi 390-sonli buyrug'iga asosan Oliy ta'limga ilk marta tyutorlik faoliyatini joriy qilindi.

Respublikamizning barcha oliy ta'limga muassasalarida ayni kunlarda tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Tyutorlik lavozimiga munosib nomzodlar oliy ta'limga rahbarlari tomonidan saralab olinyapti.

Ularni lavozimiga tayinlashda quyidagicha talablar qo'yilgan.<sup>33</sup>

Malaka talablari:

A) Tyutorlar oliy ma'lumot (magistr darajali yoki mutaxassis diplomli shaxslar)ga ega bo'lishi (ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega shaxslarga afzalliliklar beriladi);

B) 25 yoshdan kichik, 55 yoshdan (ayollar uchun 50 yosh) katta bo'lmasligi;

V) pedagogik va psixologik, o'quv-tarbiyaviy, o'quv-uslubiy, ta'limga tizimida boshqaruva faoliyati bilan shug'ullangan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda 2-yildan kam bo'limgan (2-yildan ko'p bo'lganlarga ustuvorlik beriladi) mehnat stajiga ega bo'lishi;

S) Qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'limga berish huquqidani mahrum etilmagan bo'lishi;

D) namunaviy shaxsiy fazilatlarga – intellekt, madaniyatli, ijodiy, xushmuomalalik, vatanparvarlik va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lishi, mas'uliyat hissi, mustaqil ish tutish xususiyatlariga ega bo'lishi zarur.

Tyutor o'zi kim? Oliy ta'limga u qanday vazifani bajaradi? Qanday huquq va majburiyatlarga ega? Bu savol ham shu yaqin kunlarda bar-chani o'ylantirib qo'ydi.

Tyutor - bu oliy ta'limga muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan xodim bo'lib, o'ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta'limga olishlarida, shuningdek, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko'maklashadi, ularni insonparvarlik,adolat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to'garak va klublarga jalb etish, ta'limga olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o'rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi.

<sup>33</sup>Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirining 2021-yil 30-sentabrdagi 412-son buyrug'i



Demak, tyutor- shaxs va jamoaning shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi jarayonini boshqaradi. Shuningdek, tyutor talabalar turar joylarida, ijara dagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabaling yashash manzillariga muntazam borib, u erda yaratilgan sharoitlar va talabalarning muammolarini o’rganib borish va ulami yaxshilash choralarini ko’rish faoliyati bilan shug’ullanadi.

*Quyidagilar tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadlari hisoblanadi:*

- ta’lim va tarbiya jarayoni uyg’unligini samarali tashkil etish;
- ta’lim muassasasi va talabalar o’rtasidagi munosabatlami tartibga solish;
- talabalarga ijtimoiy-ma’naviy va psixologik yordam ko’rsatgan holda o’zini yanada yaxshiroq anglash, o’qish va hayotda to’g’ri qaror qabul qilish tanlagan
- kasbiga muhabbatni oshirish;
- ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish,
- o’quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog’liq masalalarda jamoat kengashi va mahallaning rolini kuchaytirish.
- talabalarning dars mashg’ulotlarini o’zlashtirib borishini tahlil qilish va darsdan bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishlarini ta’minlash;
- ulaming ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo’lishdan iborat

Tyutorning asosiy funktsiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) bilimlarni o’zlashtirishni ta’minlash funktsiyasi tyutor tomonidan pedagogik qo’llab-quvvatlash o’quv materialini tushunishni va uni o’zlashtirishni ta’minlashi kerak, yangi ko’nikmalar va xatti-harakatlarni rivojlantirishni rag’batlantirishi zarur;
- 2) tashkiliy funktsiya talabaning ta’lim muassasa bilan o’zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tyutorni talabalar va talabalarni bir-biri bilan bilan o’zaro munosabatlarini tashkil etish, o’quv jarayoni ketma-ketligi va vaqtini boshqarish;
- 3) kommunikativ funktsiya talabalar va tyutor o’rtasidagi aloqani amalga oshirish; guruh dinamikasini boshqarish, guruhdagi pozitsiyalar va rollarni taqsimlash bilan bog’liq;



4) motivatsion funktsiya talabalarning individual motivlari va ehtiyojlarini aniqlashni talab qiladigan taʼlim bilan bogʼliq shaxsiy istiqbollarini anglashga yordam berish;

5) monitoring va nazorat funktsiyasi talabalarning individual qiyinchiliklarini aniqlashga qaratilgan, ushbu qiyinchiliklarni engish uchun yordam berish; talabalar faoliyatini bosqichma-bosqich monitoring qilish; taʼlim jarayoni yakunida bilim va koʼnikmalarini nazorat qilish va baholash.

Tyutorlarning oʼz oldiga qoʼygan maqsadi va uni amalga oshirish belgilangan vazifalaridan kelib chiqib, ular oliy taʼlim muassasalarida quyidagi huquqlarga egadirlar:

- oʼziga biriktirilgan talabalarning dars larini, talaba davomati va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish;

- TTJga joylashishlari uchun talabalarga eʼlon berish va ular tomonidan tegishli hujjatlarni yigʼib taqdim etish hamda tashkil etiladigan komissiya yigʼilishida talabalarning ishtirokini taʼminlash;

- talabaning talabalar turar joyidan chiqarilishiga rozilik berish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash boʼyicha takliflar kiritish;

- oʼquv-tarbiyaviy sohalardagi muammolarini bartaraf etish boʼyicha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishslash;

- madaniy-maʼrifiy tadbirlar va sport musobaqalarini oʼtkazishda dekanat,

- rektorat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

- talabaga tavsifnomा va akademik taʼtil berish masalasini hal etishda ishtirok etish, talaba haq idagi fakultetda mavjud maʼlumotlardan toʼla foydalanish;

- talabaning darslariga qatnashishi, oʼzlashtirish va ijtimoiy hayotidagi roliga oid takliflarni fakultet dekanatiga kiritish, talabaning ragʼbatalantirilish yoki jazolanishi va maxsus stipendiyalar ga loyiqligi boʼyicha xulosa berish;

- yoshlar ittifoqi boshlangʼich tashkiloti, kasaba uyushmasi va taʼlim sifatini nazorat qilish boʼlimi bilan birgalikda talaba bilimini odilona baholashni nazorat qilish;

- tyutor qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega boʼlishi mumkin.



Tyutorlar ma'naviy-ma'rifiy va ahloqiy-tarbiya, o'quv va o'quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida o'z faoliyatini olib boradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Беляева Т.К., Никишина О.А. Тьюторство как ресурс повышения качества образования иностранных студентов в вузе [Электронный ресурс] / Т.К.Беляева, О.А. Никишина // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 6. – URL: <https://www.science-education.ru/ru/article/view?id=22754> (дата обращения: 19.03.2017).
2. Гасанова Р.Р. Стressовые ситуатсии студентов в процессе обучения в вузе /Р.Р. Гасанова // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. -- №8. С. 212-214
3. Mirqosimovna, S.M. (2022). Tyutor kim?. Journal of new century innovations, 17(2), 142-148.
4. Muhammadovna, O.R.N. (2022). Talaba shaxsini individual rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining asosiy konseptsiyalari. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 144-149.
5. O'ranova, N. M. (2023, May). Tyutorlik faoliyatini tashkiliy metodik jihatdan shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 2, No. 6, pp. 5-10).

### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Lukmonova Salomat Gafurovna*

*Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro, Ohangaron ko'chasi*

*sara.gafurovna2@gmail.com*

*[https://orcid.org/0000-0001-9040-0232;](https://orcid.org/0000-0001-9040-0232)*



**19.00.00 – PSIXOLOGIYA  
FANLARI**



## TOLERANTLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI



**Chudakova Vera Petrovna**

*Kostyuk nomidagi Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiev*



**Bafayev Muxiddin Muxammadovich**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Tadqiq qilinayotgan muammoning nazariy-metodologik tahlili mazkur tushunchaning terminologiya apparatini kengaytirish, hamkorning o'zaro hamkorlikdagi ochiqligi, ijobiy emotsional qabul qilishi bilan ta'kidlanadigan "tolerant ong" va "tolarantlik" shaxslararo munosabatlarni, boshqalar dunyoqarashi va qadriyatlariga empatik reaksiyalarni o'z ichiga oladi.



**MAQSAD:** Mavzu yuzasidan tahlil qilingan omillarning barchasiga ta'sir ko'rsatib, yoshlar muhitida tolerant xulqni shakllantirishga maqsadli ta'sir ko'rsatish mumkin.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Tolerantlik har bir insonning o'z maslaklariga amal qilishi va boshqalarda ham bunday huquq borligini tan olishdir. Darhaqiqat, insonlar tabiatan tashqi ko'rinishi, maqomi, fe'l-atvori va qadriyatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar hamda shu farqlarga qaramay yaxlit dunyoda yashash va o'z individualligini saqlab qolish huquqiga egadirlar.

Ma'lumki, insoniy munosabatlar tizimining faol ishtirokchisi sifatida shaxs gavdalanadi. Ayniqsa, ularda ijobiylar salbiy shaxs sifatlarining shakllanishi atrofdagi insonlar va yashayotgan muhitiga bog'liq. Shuning bilan birga ularda jamoatchilik, jamoaviy faoliyatni to'g'ri tashkil qilish, o'zaro va shaxslararo munosabatlarni oqilona yo'lga qo'yishlari bilan tavsiflanadi.

"Tolerantlik" tushunchasi uzoq asrlar davomida shakllangan va hozirgi vaqtida ham turli ilmiy yondashuvlar bilan to'ldirib borilmoqda. Tolerantlik tushunchasi turli madaniyat va xalqning tarixiy tajribasi bilan bog'liqlikda xilma-xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** bag'rikenglik, tolerant ong, chidamlilik, tarixiy tajriba, madaniyat, shaxsiy yondashuv, fasilitativ yondashuv, ekzistentsial-gumanistik yondashuv, diversifikatsion yondashuv.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** Теоретико-методологический анализ исследуемой проблемы расширяет терминологический аппарат данного понятия, «толерантное сознание» и «толерантность», подчеркиваемые открытостью партнера во взаимном сотрудничестве, положительным эмоциональным принятием, включают межличностные отношения, эмпатические реакции на включает мировоззрение и ценности других.

**ЦЕЛЬ:** Оказывать целенаправленное воздействие на формирование толерантного поведения в среде молодежи можно путем воздействия на все анализируемые по теме факторы.



**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Толерантность заключается в том, что каждый следует своим интересам и признает, что другие имеют такие же права. На самом деле люди отличаются друг от друга своим внешним видом, статусом, характером и ценностями, и, несмотря на эти различия, они имеют право жить в целом мире и сохранять свою индивидуальность.

Известно, что человек воплощается как активный участник системы человеческих отношений. В частности, формирование у них положительных и отрицательных личностных качеств зависит от окружающих людей и среды, в которой они живут. В то же время для них характерна правильная организація общественной и коллективной деятельности, ратсіональное установление взаимных и межличностных отношений.

Понятие «толерантность» формировалось на протяжении многих столетий и в настоящее время дополняется различными научными подходами. Понятие толерантности проявляется по-разному в связи с разными культурами и историческим опытом народов.

**Ключевые слова:** толерантность, толерантное сознание, выносливость, исторический опыт, культура, личностный подход, фасилитативный подход, экзистенциально-гуманистический подход, диверсифікаціонный подход.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL AND THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TOLERANCE

### Annotation.

**INTRODUCTION:** The theoretical-methodological analysis of the researched problem expands the terminological apparatus of this concept, the "tolerant consciousness" and "tolerance" emphasized by the openness of the partner in mutual cooperation, positive emotional acceptance, includes interpersonal relations, empathic reactions to the worldview and values of others. includes

**AIM:** It is possible to have a targeted effect on the formation of tolerant behavior in the environment of young people by affecting all the factors analyzed on the topic.

**MATERIALS AND METHODS:** Tolerance is that everyone follows their own interests and recognizes that others have the same right. In fact,



people differ from each other in their appearance, status, character and values, and despite these differences, they have the right to live in the whole world and preserve their individuality.

It is known that a person is embodied as an active participant in the system of human relations. In particular, the formation of positive and negative personal qualities in them depends on the surrounding people and the environment in which they live. At the same time, they are characterized by the correct organization of public and collective activities, rational establishment of mutual and interpersonal relations.

The concept of "tolerance" has been formed for many centuries and is currently being supplemented by various scientific approaches. The concept of tolerance is manifested in different ways in connection with different cultures and people's historical experience.

**Key words:** tolerance, tolerant consciousness, endurance, historical experience, culture, personal approach, facilitative approach, existential-humanistic approach, diversification approach.

Tolerantlik tushunchasi ko'p qirrali ijtimoiy-siyosiy, madaniy va huquqiy, sotsiologik va psixologik adabiyotlarda keng tarqalgan zamonaviy atamalardan biridir. Tolerantlik (lot. tolerantia – chidam, sabr-toqat), bag'rikenglik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish. Bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashga intilishidir [9].

Tolerantlik – turli emosional ta'sirlar ostida ham odamning hissiy turg'unligini uning xulqning turg'unligida namoyon bo'ladigan holat. Qiyinchiliklarga chidamlilik, boshqa odamlar xulqiga toqatlilik [6].

Tolerantlik, bag'rikenglik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish. Bu bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashidir. Biror bir insonda yoki o'zga madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon etkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa, ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak. Ya'ni tolerantlik bu o'zgalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda bo'ysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar,



ijtimoiy guruhlar oʻrtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yoʻlidagi faol axloqiy nuqtai nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi. Tolerantlikni toʻgʼri shakllanishi bilan faol pozisiya va shaxsnинг oʼzini namoyon qilish va oʼzini anglashga intilishi shakllanadi.

Angliyada XVII asrda roʼy bergen voqealarni oʼrganish natijasida Volterning bu masaladagi fikrlari shakllandı. Oʼshanda diniy xilma-xillik va milliy bagʼrikenglik sharoitida fuqarolar oʻrtasida tinchlikka erishilgan va mehribonlik muhiti qaror topgan edi. U 1763-yilda tolerantlik toʼgʼrisida maxsus risola eʼlon qilib, unda quyidagicha fikrlarni bayon etadi: “Biz barcha kishilarni oʼz birodarimiz deb bilmogʼimiz kerak. Turk ham, xitoy ham sening birodaringmi? deb soʼrarsiz. Ha, hech shubhasiz, ular ham mening birodarlarimdir. Biz hammamiz bir otaning farzandlarimiz”. Tadqiqotlar yakunida tolerantlikni umumbashariy qadriyat va yaxshi fazilat degan xulosaga keladi.

Jon Stuart Mill (1806-1873) tolerantlikni va xilma-xillikni bir-biridan ajralmas deb hisoblab, oʼzining “Ozodlik toʼgʼrisida”gi asarida xilma-xillikni “buyuk qadriyat” deb eʼlon qildi [1].

Sotsiologik tadqiqotlarda qayd etilishicha, tolerantlikka falsafiy kategoriya sifatida qaralib, materiyaning obyektiv amal qilish shakli tarzida, yaʼni tushuncha hamda ongda oʼz ifodasini topishini ham eʼtibordan soqit qilmaslik kerak. Tolerantlik – oʼzga shaxsga yoki narsaga, yoxud begona, farqlanuvchi shaxs-hodisaga nisbatan oʼz histuygʼularimizni qoʼlga ola bilish demakdir. Tolerantlik – oʼzini oʼzi cheklash orqali ifodalanadigan irodadir va bu oʼzgalarga xayrixoh murosasozlik bilan qarash imkoniyatini bildiradi [7].

Psixologik nuqtai nazardan tolerantlik – insoniy bagʼrikenglikning bir koʼrinishini yoki ifodasi boʼlib, inson uchun yoqimsiz, noxush boʼlgan biror omilga nisbatan qatʼiy javobning yoʼqligi yoki uning kuchsizligini bildiradi. Oʼsha vaziyat yoki omil qanchalik shaxsga yoqmasa-da, u bunga moslashadi.

Tolerantlik tushunchasi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Koʼpgina tadqiqotlar (S.K. Bondareva, D.A. Leontyev, V.S. Muxina, G.U. Soldatova va boshqalar) tolerantlik nafaqat boshqalarning dunyoqarashini, fikrlarini tan olish, balki u insonni oʼzini oʼzi qabul qila bilish, uni shaxsiy hurmat qilish va tan olishdir deb talqin etadi. A.G. Asmolov “Tolerantlik” tushunchasi mazmunida uchta asosiy



jihatni ajratadi: birinchi mazkur tushuncha chidamlilik, bardoshlilik bilan bog'langan, ikkinchi – sabrlilik bilan, uchinchi – ijozat, ijozat berish, rad etishga ijozat berish [1].

Ta'kidlash joizki, mazkur masalada to'rtinchi jihat tarbiya bilan bog'liq bo'lgan, oldingi uchta jihatdan kam bo'lmanган ahamiyatga molik yangi qirrani ochishga imkon beradi va bu ham diqqat-e'tiborga loyiq jihatdir. Tolerantlik insonni o'zini o'zi anglash tizimida, "Men" qiyofasi va "boshqa kishi" qiyofasining o'zaro munosabatlari bog'lanishi kabi tushunchalarni o'zida mujassam etadi.

Zamonaviy tadqiqotlar esa tolerantlikni shaxsning kompleks sifatlari kabi jihatlari asosida talqin qiladi. Bundan tabiiy tolerantlik, muammoli tolerantlik, majburiy tolerantlik, manfaatli, g'arazli tolerantlik va tarbiya tolerantligi ajratiladi.

Tolerantlik tushunchasini falsafiy tomondan mushohada qiluvchi V. Lektorskiy tolerantlikning to'rtta ehtimoliy tushunish usulini taklif qiladi. Birinchisi "tolerantlik befarqlik kabi", bunda ba'zi haqiqiyligi hech qachon isbotlana olmasligi mumkin bo'lgan fikrlar mavjudligi taxmin qilinadi (diniy qarashlar, turli madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari, o'ziga xos etnik e'tiqodlar, maslaklar va boshqalar). Ikkinchisi, "tolerantlik o'zaro tushunishning ilojsizligi kabi" ifodalangan munosabatlarda, tushunish va murosaning imkoniy yo'qligi sababli boshqaga bo'lgan bardoshlilik va hurmatni chegaralab qo'yadi. "Tolerantlik ko'ngilchanlik kabi" ifodalanganda, inson ongida nufuzli deb o'rashgan o'z madaniyatidan boshqa madaniyatlarni ancha zaif deb baholash tushuniladi: ularga chidash mumkin, lekin shu bilan bir qatorda nafratlaniladi. Va nihoyat, "tolerantlik o'z tajribasini oshirish va tanqidiy monolog sifatida" nafaqat boshqalarning vaziyatini tushunish, balki o'zaro muloqot natijasida o'z fikrini o'zgartirishga ham imkon beradi. Muallifning qarashlarini umumlashtirgan holda zamonaviy vaziyatlarda tolerantlikka, aynan shu kabi yondashuv mosligini ta'kidlab o'tadi [7].

Tolerantlik turli falsafiy va psixologik yondashuvlarda keng doirada ko'rib chiqiladi. Hozirgi kun adabiyotlarida bixevoiral tolerantlik insonning alohida xulq shakli sifatida ko'rindi, kognitiv tolerantlik asosida bilish va rasional sabablarga ega yondashuvlar ustunlik qiladi. Tolerantlikka nisbatan bir qancha yondashuvlar mavjud bo'lib, o'ziga xos tarzda ifodalangan [3].



Shaxsiy yondashuv – tolerantlikning murakkab anatomiyasida uning psixologik asosi va bosh oʻlchovi tolerantlikning shaxsiy oʻlchami (qadriyatlar, shaxsiy ustanovkalar) hisoblanadi.

Fasilitativ yondashuv – shaxslararo munosabatlar jarayonida toʼliq tolerantlik nafaqat shakllanadi, balki rivojlanadi ham; tolerantlikning shakllanishida unga rivojlanish uchun yaratilgan sharoitlar yordam beradi.

Bundan tashqari ekzistensial-gumanistik yondashuv – tolerantlik qandaydir omillar harakatining mexanik natijasi hisoblanmaydi, haqiqiy tolerantlik bu shaxsning anlangan va masʼuliyatli tanlovi boʼlib, insonning boshqalar bilan oʼzaro munosabat oʼrnatishdagi pozisiyasi va faolligidir. Ekzistensial-gumanistik nuqtai nazardan toʼliq, etuk tolerantlik bu – soʼzsiz anglash, tushunish va masʼuliyatlilikdir. Bunday tolerantlik avtomatizmi, yaʼni oddiy stereotipik harakatlar emas, balki qadriyat va hayotiy pozisiya boʼlib, ularni amalga oshirish har bir aniq vaziyatda oʼziga xos maʼnoga ega va tolerantlik subʼyektdan ushbu mazmunni anglashni talab etadi.

Tolerantlikka diversifikasion yondashuv – tolerantlikning psixologik mazmuni, alohida bir xususiyatga tavsifnomaga berishga olib kelishi mumkin emas, bu murakkab, koʼp aspektli va koʼp imkoniyatli fenomen boʼlib, bir nechta bazaviy oʼlchamlarga ega. Maʼlumki, rus psixologlaridan B.G. Ananyev oʼtgan asrning 60-yillarida tolerantlik atamasidan birinchi boʼlib foydalangan boʼlsa, bu fenomenning ijtimoiy psixologiyasini ilk marotaba Sankt-Peterburglik olima G.L. Bardiyer (2007) tadqiq etgan [2].

Tolerantlik atamasi odatda kimningdir his qilish, fikrlash yoki harakat qilish uslubi kutilganidan farqli, tanish, tahdidli koʼrinadigan va norozilikni keltirib chiqaradigan holatlarda qoʼllaniladi. Tolerantlik taʼqib qilish (jazolash) qobiliyatini anglatadi, ammo buni qilmaslik uchun ongli qaror. Ushbu atama odatda zoʼravoniksiz xatti-harakatlarga nisbatan qoʼllaniladi va din, madaniyat, siyosat va axloq muammolari bilan bogʼliq holda qoʼllaniladi. Koʼpincha bagʼrikenglik deb talqin qilinadigan tolerantlik, odamlar atrofidagi koʼpchilikdan farqi ularni gʼazablantiradigan odamga yoki ijtimoiy guruhgaga toqat qilishga va toqatli boʼlishga tayyorligini anglatadi. Ijtimoiy atama sifatida tolerantlik madaniyatlar oʼrtasidagi muloqot holatlarini tavsiflash, konsensusga



erishish va xilma-xillik sharoitida tinch va barqaror birga yashash yo'llarini topish ustuvorligini ta'minlash uchun ishlatiladi. Murosasizlik atamasi zo'ravonlik, kamsitish, inson huquqlarining buzilishi, ijtimoiy beqarorlikning kuchayishi va qat'iy bir xillikka intilish holatlarini tasvirlash uchun ishlatiladi.

Jahon hamjamiyati va unga a'zo mamlakatlar, shu jumladan mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanishining o'zgaruvchan sharoitida mazkur hodisa ijtimoiy amaliyot ehtiyojlari bilan belgilanadi. Zamonaviy sharoitda tolerantlik mavzusidagi tadqiqotlar dolzarbligining uchta global jihatini aniqlaymiz: instrumental, me'yoriy va profilaktik.

Instrumental jihat shundan iboratki, bugungi murakkab va rang-barang dunyoda tolerantlik, ayniqsa, qadriyatlari turlicha bo'lgan odamlar va guruhlar o'rtasida ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida transformatsiya jarayonida tolerantlikni o'qitish texnologiyalari muzokaralar madaniyatini shakllantirish, mas'uliyatli qarorlarni qabul qilishda murosaga kelish san'atini rivojlantirish, turli moliyaviy, sanoat, siyosiy va boshqa ijtimoiy guruhlar o'rtasida samarali raqobat va hamkorlik yo'llarini izlash sharoitida dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Tolerantlikni o'rganishning dolzarbligining me'yoriy tomoni uning umuminsoniy gumanistik qadriyatlar bilan bog'liqligi bilan belgilanadi. Ushbu qadriyatlar kontekstida tolerantlik odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijtimoiy tasdiqlangan huquqiy normasi sifatida ishlaydi. Ushbu normada nazarda tutilgan o'zaro hamkorlik tamoyillari Yuneskoning bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida (1995) va inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan boshqa xalqaro hujjalarda bayon etilgan.

Tolerantlikka oid tadqiqotlar dolzarbligining profilaktik jihat terrorizm, ekstremizm, etnik murosasizlik, ksenofobiya va boshqalar kabi murosasizlikning ekstremal ko'rinishlariga qarshi kurashish bo'yicha ijtimoiy strategiyani ishlab chiqish bilan bog'liq.

O'zbek segmentida yangilik bo'lмаган бу атама тез-тез ishlatilishiga qaramay, uni tushunish va qo'llashda hali ham birlik yo'q va ko'p hollarda bag'rikenglik deb tushuniladi, ba'zi hollarda toqatlilik sifatida talqin etiladi. Xo'sh tolerantlik nima? Tolerantlik va uning



chegaralari haqida zamonaviy psixologiyada fikrlar doirasi juda keng. Ba’zi mualliflar tolerantlikni “bag’rikenglik munosabatlari” deb ifoda etsalar, boshqalari tolerantlikni shaxsiy xususiyat sifatida, yana boshqalari esa tolerantlikni xulq-atvor qobiliyati deb e’tirof etadilar. Adabiyotlarda tolerantlikka yondashuvlarni qadriyat yo’nalishi, guruh normasi, ijtimoiy o’zaro ta’sir shakli, aloqa mexanizmi, ziddiyatli vaziyatdan chiqishning o’ziga xos xususiyati, muloqot madaniyati, odamlar bilan ishlaydigan mutaxassislarning kasbiy ahamiyatli sifati – shifokorlar, psixologlar, siyosatchilar, menejerlar, o’qituvchilarga xos bo’lgan sifat deb ta’riflaydilar. Shu bilan birga, ko’plab tavsiflar va ta’riflar tolerantlikning turli jihatlarini muhim xususiyatlar sifatida ta’kidlaydi, uni turli omillar va determinantlar bilan bog’laydi, uni o’rganish uchun turli tadqiqot paradigmalari va vositalaridan foydalanishni taklif qiladi. Aniq sharoitlarda, ya’ni ijtimoiy voqeliklar va jarayonlar (referent guruhdagi ijtimoiy hamkorlik)da tolerantlikni shaxs faoliyatida tutgan o’rni hamda uning qay tarzda namoyon bo’lishi, shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillarni aniqlashga qator olimlar o’z diqqatlarini qaratib kelmoqdalar.

Tolerantlik tushunchasiga turli soha mutaxassislari tomonlaridan ta’riflar keltiriladi. Jumladan, tolerantlik falsafiy ma’noda lotinchadan, chidam, chidamlilik, toqat qilish, keng fe’llik ma’nosida qo’llanilib, falsafada bag’rikenglik, halimlik va xayrixohlik tushunchalarini ifodalaydi.

Psixologik ma’noda tolerantlik bu – individning o’zi asab va ruhiy muvozanatini tiklash muvaffaqiyatli moslashish, adovatga yo’l qo’ymaslik va uni o’rab turgan olam bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida muammoli va inqirozli vaziyatlarda tashqi muhit bilan faol aloqa qilish qobiliyatini belgilovchi birlashma, integral xususiyat sifatida ma’no-mazmun kashf etgan.

N.M. Lebedeva o’z tadqiqotlarida tolerantlikning etnomadaniy jihatlarini o’rganib, o’z madaniyatini hurmat qilish, uning qiymati va ijobiy mazmuniga qat’iy ishonish ham ko’proq boshqa o’z madaniyatidan farqli madaniyatlar bilan to’qnashib turishi kabi fikrlarni ilgari suradi [4]. Shuningdek, u tolerantlikni bir xillikka va avtoritarizmga qarshi bo’lgan shaxsiy xususiyatlar kabi talqin qilinadi. U bu xususiyatni to’satdan yuzaga kelgan yangi sharoitlarga moslashishi uchun zarur bo’lgan sifat



deb hisoblaydi. Tolerantlikka ega bo'lмаган, о'згаришларга лayoqatsiz bo'lgan kishilar, o'rab turgan atrof-muhit hodisalarni ortiqcha soddalashtiradi va qat'iyatlik ko'rsatadi.

Shunday qilib, tolerantlik tushunchasi ko'pgina manbalarda bardoshlilik tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Tolerantlik faol, boshqalarning fikriga, dunyoqarashiga va harakatlariga notabiyy ravishda bo'ysunish emas, balki faol axloqiy-ma'naviy dunyoqarash va etnoslar orasidagi ijtimoiy guruhlar orasidagi o'zaro munosabatlarda insonni bardosh bilan sabr qilishga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatib turuvchi faol pozisiya deb xulosa qilish mumkin. Shu bilan birga, bugungi kunda psixologlar, siyosatshunoslar, ijtimoiy ish sohasi vakillari va boshqa mutaxassislar tomonidan faol qo'llaniladigan tolerantlikni shakllantirishning ko'plab modellari, dasturlari, usullari jiddiy ilmiy umumlashtirish va tizimlashtirishga muhtoj.

Ijtimoiy psixologiyaga oid nazariy va empirik tadqiqotlarning maqsadi ijtimoiy psixologiyaning yangi ilmiy sohasi sifatida tolerantlikning konseptual asoslarini ishlab chiqishdir. Qolaversa, tolerantlikni tadqiq etishda quyidagi maqsadlarni belgilash maqsadga muvofiq:

- 1) tolerantlikning nazariy va konseptual tavsifi, uning predmeti, muammolari, kategorik va konseptual asoslari, fenomenologiya, boshqa fanlar bilan aloqalari, tadqiqot metodologiyasi va uning namoyon bo'lishini tasniflash mezonlarini tizimlashtirish;

- 2) tolerantlik mohiyatini to'la tushuntiruvchi psixologik modellarini ishlab chiqish;

- 3) tolerantlikni ijtimoiy-psixologik o'rganish uchun uslubiy vositalarni yaratish va sinovdan o'tkazish hamda uning empirik bazasini rivojlantirish;

- 4) tolerantlikning amaliy asoslarini ishlab chiqish, uning ayrim turlarining namoyon bo'lish qonuniyatlarini amaliy jihatdan ijtimoiy-psixologik tadqiq qilish.

Ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida nazariy va konseptual tushunish hamda ijtimoiy-psixologik muammolarning asosiy kategoriyasini sifatida tolerantlik (intolerantlik) namoyon bo'lishini tadqiq etish muhim. Jumladan,



1. Tolerantlik - bu insonning atrofdagi ijtimoiy farqlarga ijobiy javob berish qobiliyati. Ushbu farqlar o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan uchta yo'naliш mavjud: ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy bilish va ijtimoiy xatti-harakatlar. Tolerantlik tuzilishi affektiv, kognitiv va konativ komponentlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun farqlarga javob hissiy, kognitiv, konativ yoki murakkab bo'lishi mumkin. Javobning yo'naliш farqlar belgilarini oshirish yoki o'xhashlik belgilarini izlash strategiyalari bilan belgilanadi.

2. Farqlarga javobning intensivligi ularning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati bilan belgilanadi. Farqlarning ahamiyati ularning ijtimoiy kontekstining sifat xususiyatlari (keskinlik, xavf, umidsizlik) va tolerantlik sub'yektlining farqlar (tolerantlik ob'yektlari) bilan munosabatlarining pozision darajasi bilan belgilanadi.

3. Tolerantlik quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: a) aqliy jarayonlar (idrok, fikrlash, hissiyotlar, iroda); b) ruhiy holatlar (barqarorlik, muvozanat); v) aqliy xususiyatlari (bag'rikenglik, ta'lim, hurmat, mehribonlik). Tolerantlik turlari biologik, madaniy, psixologik yoki ijtimoiy farqlarning shartliligi bilan belgilanadi.

4. Tolerantlikning (murosasizlikning) yo'naliш va miqdoriy ifodasi insonning o'ziga xos psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi, ular uch guruhga bo'linadi: psixofiziologik, psixologik va ijtimoiy-rol xususiyatlari.

5. Katta ijtimoiy guruhlarda tolerantlikning (intolerantlikning) miqdoriy ifodalananish darajasiga ta'sir qiluvchi omillarga quyidagilar kiradi: kasbiy bandlik, yashash hududi va guruh vakillari joylashgan sosializatsiya bosqichi.

6. Tolerantlik psixologiyasining amaliy sohalari tolerantlik turlari, uning sub'yektlari va ob'yektlari tasnifiga, shuningdek, tolerantlik (intolerantlik) namoyon bo'lishining tipik holatlariga muvofiq shakllanishi mumkin.

7. Tolerantlik psixologiyasi talabalarning asosiy faoliyatiga yo'naltirilgan uni shakllantirish va tuzatish texnologiyalariga asoslanishi mumkin.

Demak, tolerantlik mohiyatini to'la tushuntiruvchi psixologik modellarini ishlab chiqish asosida tolerantlikni ijtimoiy-psixologik o'r ganish uchun uslubiy vositalarni yaratish va sinovdan o'tkazish hamda uning empirik bazasini rivojlantirishga, tolerantlikning amaliy asoslarini ishlab chiqishga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Асмолов А.Г. На пути к толерантному сознанию. – М.: Смысл, 2000. – 255 с.



2. Бардиер Г. Л. Социальная психология толерантности. Автореф. дисс. д. психол.н. – СПб.: 2007. – 45 стр.
3. Бафаев М.М. Глобаллашув жараёнида миллий бағрикенглики шакллантиришнинг ижтимоий-психологик детерминантлари. – Психология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. – Тошкент, 2021. – 150 б.
4. Лебедева Н.М. Этническая и кросс-культурная психология: Учебник для высших учебных заведений. – М.: МАКС Пресс, 2011. – С. 61-80.
5. Оллпорт Г.В. Толерантная личность // Век толерантности. 2003. Вып. 6. С. 39-50.;
6. Psixologik atamalar ruscha-o'zbekcha izohli lug`ati. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 339 bet.
7. Победа Н. А. Толерантность: содержательные смыслы и социологическая интерпретация // СОЦИС. Социологические исследования. 2007. № 6. С. 13-28.
8. Рузиев А.Э. “Илк ўспирин шахсида толерантликни шакллантирувчи ижтимоий-психологик омиллар”, 19.00.05– Ижтимоий психология. Этнопсихология (психология фанлари). пс.ф.б.ф.д..илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. Т., 2019. – Б. 28-50
9. Фалсафа: энциклопедик луғат. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. – Б.260-261

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Chudakova Vera Petrovna*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim*

*Bafayev Muxiddin Muxammadovich*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri*

*ped\_mahorat@inbox.ru*



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI



*Qodirov Umarali Do'stqobilovich  
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi  
metodikalarga o'rnatish milliy markazi direktori, Termiz shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Mazkur maqolada umumiyl o'rta ta'limg muassasalarida psixologik xizmat ko'rsatish amaliyotining o'ziga xos nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy jihatlari bilan bog'liq tahlillar bayon etiladi.



**MAQSAD:** Taʼlim psixologik xizmatining rivojlanishi bilan taʼlim amaliyotchi psixologi (maktab psixologi) kasbi ommaviy kasblardan biriga aylanmoqda. Bir qator meʼyoriy-dasturiy, huquqiy hujjatlarda taʼlim muassasasida psixolog amalga oshiradigan ishlar, uning maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. Biroq baʼzan ushbu mutaxassisning maktabdagi mavqeい, oʼrni ikki yoqlamali xarakter kasb etadi. U taʼlim, oʼquv jarayoni uchun xizmat qiladi, biroq unda bevosita ishtirok etmaydi. Muayyan maqsadlarga ega, biroq ularni taʼlim jarayoni ishtirokchilarining barchasi ham tushunmaydi. Boshqa biror oʼqituvchi, mutaxassis bajara olmaydigan oʼzining kasbiy vazifalari (diagnostika (tashxis) oʼtkazish, maslahat, konsulʼtatsiya berish va h.k.)ni amalga oshiradi, biroq buning uchun tarbiyachi va oʼqituvchilar bilan hamkorlik ishlarini olib borishi kerak (psixologdan farqli ravishda pedagog, oʼqituvchilar dars berish jarayonida psixologning aralashuviga muhtoj boʼlmaydi).

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Psixologning direktor va maktabning boshqa rahbarlari bilan konstruktiv munosabatlarni yoʼlga qoʼyishi ahamiyatli boʼlib, uning pedagogik jamoa va bilan kirishib ketishida, mutaxassis sifatidagi maqomining tan olinishida juda muhim oʼrin tutadi.

Oʼz ishini yaxshi biladigan, zamonaviy direktor maktabga psixolog nima uchun kerak ekanligini, qanday muammolarni hal etishda undan foydalanish mumkinligini juda yaxshi tasavvur qiladi. Psixologning madaniyatli, psixologik maʼrifatga ega, faoliyatida yangiliklarni qoʼllashga tayyor direktor bilan ishlashi oson kechadi.

**XULOSA:** Psixologga tez-tez murojaat qilish bundan tashqari oʼqituvchilarning muloqotga kirishuvchanlik, qiziquvchanlik, yangi tajribalarni egallashga tayyorlik, faoliyatga ijodiy yondashish yoxud xavotirlanish darajasining yuqoriligi, oʼziga ishonchning pastligi singari shaxs xususiyatlariga ham bogʼliq boʼlishi mumkin. Bunday hollarda pedagoglarning psixologik muammolarni koʼra olishi, psixolog kasbi toʼgʼrisida tasavvuri adekvatligi, psixologning professional imkoniyatlarini toʼgʼri anglashi shubha ostida qoladi va pedagoglarning psixologdan kutadigan natijalari muammozi yuzaga keladi. Maktabda ishlaydigan har bir psixolog mazkur muammoga duch kelishga va uni hal etishga tayyor turishi kerak.



**Kalit ko'zlar:** psixologik xizmat, tashxis, maslahat, maktab rahbariyati, o'quvchilar, bolalar amaliyotchi psixologi, kasbiy-professional burch, pedagogik jamoa.

## ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В СРЕДНИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

### Аннотатсия.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье раскрывается теоретическое и практическое исследование особенностей компетентности психолога в судебно-следственном процессе, выявляются социально-психологические факторы и компоненты, развивающие социально-психологическую компетентность и эмоциональный интеллект судебного психолога, коммуникативную компетентность. Эмоциональный и личностный характер судебного психолога изучает проявление и развитие его компонентов; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

**ЦЕЛЬ:** оценивая конкретные стороны компетентности психолога в судебно-следственном процессе, определить проявление факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и разработать практические рекомендатсии, основанные на их пропорциональном развитии с профессиональной компетентностью. .

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Анализируя научные исследования, направленные на изучение проблемы проявления и развития социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов в современной психологии, мы уделили особое внимание теоретической интерпретатсии многих психологических особенностей, связанных с методологией формирования профессиональной и социально-психологической компетентности. в них. . На основе анализа ряда научной литературы мы видим, что существуют разные подходы исследователей к определению социальной и психологической компетентности.

Процесс социально-психологической компетентности мы можем видеть не только в социальной и прикладной психологии, но и в практике многих психологических наук. Подобная категория



выражена в научной литературе, и до сих пор не принятая единая научно-методическая разработка совершенного уровня, позволяющая оценивать эффективность профессиональной деятельности только как критерий социально-психологической эффективности как средства компетентности.

Наши наблюдения по изучению социально-психологической компетентности судебного психолога и анализ фундаментальной литературы, связанной с проблемой исследования, требуют обратить особое внимание на взгляды ученых, занимающихся проблемами социально-психологической компетентности.

Под социально-психологической компетентностью судебного психолога-эксперта понимается профессиональная деятельность судебного психолога-эксперта, предполагающая способность осуществлять практическую профессиональную деятельность и профессиональное лечение на достаточно высоком уровне. При этом социально-психологическая компетентность судебного психолога может быть оценена по соразмерности его профессиональных знаний и умений, с другой стороны, его профессиональному положению и психологическим качествам.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Способность судебного психолога иметь адекватные взаимоотношения с тем или иным лицом, в частности, высокий уровень общения при судебно-психологических экспертизах, умение анализировать ситуацiiи общения, адекватная чувствительность к поведению, действиям, психическим переживаниям собеседника и различным ситуацiiи, характеризующиеся определенной степенью гибкости.

Проявление социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов, прямая зависимость от таких факторов, как профессионально-коммуникативная компетентность, которая формируется уникальным образом у каждого судебного психолога-эксперта, служит определению социально-психологической компетентности, эффективности профессиональной деятельности. и обеспечить целостность личности.

**Ключевые слова:** судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая



экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

## SPECIFIC ASPECTS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS

### **Annotation.**

**INTRODUCTION:** This article describes the analysis of specific theoretical-scientific and practical-methodological aspects of the practice of providing psychological services in general secondary educational institutions.

**AIM:** With the development of educational psychological services, the profession of practicing educational psychologist (school psychologist) is becoming one of the popular professions. A number of regulatory and legal documents define the activities of a psychologist in an educational institution, his AIMs and tasks, rights and obligations. However, sometimes the position and place of this specialist in the school acquires a two-sided character. It serves for the educational process, but does not directly participate in it. It has certain AIMs, but not all participants of the educational process understand them. Any other teacher performs his professional tasks (diagnosis, advice, consultation, etc.) that cannot be performed by a specialist, but for this he must cooperate with educators and teachers. (in contrast to a psychologist, a pedagogue, teachers do not need the intervention of a psychologist during the teaching process).

**MATERIALS AND METHODS:** It is important for the psychologist to establish constructive relations with the director and other leaders of the school, and it plays a very important role in his introduction to the pedagogical team and recognition of his status as a specialist.

A modern director who knows his work well has a very good idea of why the school needs a psychologist and what problems he can be used to solve. It is easy for a psychologist to work with a cultured, psychologically enlightened director who is ready to apply innovations in his work.

**CONCLUSION:** In addition, frequent referral to a psychologist may also depend on personal characteristics of teachers, such as openness to communication, curiosity, readiness to acquire new experiences, creative



approach to activities or high level of anxiety, low self-confidence. In such cases, the pedagogues' ability to see psychological problems, the adequacy of their vision of the psychologist's profession, the correct understanding of the psychologist's professional capabilities are called into question, and the problem of the results pedagogues expect from the psychologist arises. Every school psychologist should be ready to face this problem and solve it.

**Keywords:** psychological service, diagnosis, consultation, school management, students, child psychologist, professional duty, pedagogical team.

*Umumiy oʻrta taʼlim maktabi oliy taʼlim muassasasini tugatgan psixologlar ish boshlash uchun eng koʼp murojaat qiladigan muassasalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda matabda psixolog faoliyatining zarur ekanligi kunday ravshan boʼlib qoldi, endi 10-15-yillar ilgaridagidek, ushbu mutaxassisning matabga zarur ekanligini isbotlashga hojat yoʼq. Maʼlumotli, malakali, madaniyatli psixolog matabga kerak va uni albatta muassasada kutishadi.*

Matabda bolalar amaliyotchi psixologi (matab psixologi, pedagog-psixolog) taʼlim psixologik xizmatining asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshiradi hamda mutaxassis sifatida oʼquvchilarning psixik va psixologik salomatligi uchun javob beradi; bolaning har bir yosh davrida rivojlanishi uchun maqsadga muvofiq shart-sharoitlar yaratilishiga harakat qiladi, ontogenezning tegishli bosqichlarida rivojlanishning individual imkoniyatlarini roʼyobga chiqarishda koʼmaklashadi. Uning faoliyatidagi asosiy yoʼnalish belgisi, nishoni – bolaning shakllanayotgan shaxs sifatidagi manfaatlari.

Psixolog oʼzining kasbiy-professional burch, vazifalariga loyiq boʼlishi uchun nimalarni bilishi, tushunishi va amalga oshira olishi kerak? Qanday qilib boshlovchi mutaxassis zamonaviy matabning talablariga javob bera oladi? Bunda u nimalarga eʼtibor qaratishi lozim? Matabda psixologning oʼzini nimalar kutmoqda? U nimalarga tayyor turishi kerak? Shu va shu kabi savollarga quyida javob topishga harakat qilamiz.

Taʼlim psixologik xizmatining rivojlanishi bilan taʼlim amaliyotchi psixologi (matab psixologi) kasbi ommaviy kasblardan biriga aylanmoqda. Bir qator meʼyoriy-dasturiy, huquqiy hujjatlarda taʼlim muassasasida psixolog amalga oshiradigan ishlar, uning maqsad va



vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. Biroq ba'zan ushbu mutaxassisning mактабдаги mavqei, о'rni ikki yoqlamali xarakter kasb etadi. U ta'lim, o'quv jarayoni uchun xizmat qiladi, biroq unda bevosita ishtirok etmaydi. Muayyan maqsadlarga ega, biroq ularni ta'lim jarayoni ishtirokchilarining barchasi ham tushunmaydi. Boshqa biror o'qituvchi, mutaxassis bajara olmaydigan o'zining kasbiy vazifalari (diagnostika (tashxis) o'tkazish, maslahat, konsul'tatsiya berish va h.k.)ni amalgalashiradi, biroq buning uchun tarbiyachi va o'qituvchilar bilan hamkorlik ishlarini olib borishi kerak (psixologdan farqli ravishda pedagog, o'qituvchilar dars berish jarayonida psixologning aralashuviga muhtoj bo'lmaydi). Shu bilan birga psixolog ikki yoqlama bo'ysunuvga ega: kasbiy-professional nuqtai nazardan u metodik markaz (tashxis markazi, malaka oshirish markazi)ga hisobot bersa, ma'muriy jihatdan mакtab direktoriga bo'ysunadi.

Bunday ikki yoqlamalilik yosh mutaxassisning mакtabga moslashuvini qiyinlashtiradi. Uning muvaffaqiyati nafaqat ob'ektiv (masalan, hali to'liq egallash uchun ko'p zahmat chekishga to'g'ri keladigan kasbiy mahorat) balki, pedagogik jamoa bilan munosabatlarni yo'lga qo'yib olish; o'zi kutayotgan natijalarini ma'muriyat va pedagoglar kutayotgan natijalarga muvofiqlashtirish, mакtab rahbarlarini psxolog faoliyatiga qiziqtirish kabi sub'ektiv omillarga ham bog'liq bo'ladi.

Psixologning direktor va mакtabning boshqa rahbarlari bilan konstruktiv munosabatlarni yo'lga qo'yishi ahamiyatli bo'lib, uning pedagogik jamoa va bilan kirishib ketishida, mutaxassis sifatidagi maqomining tan olinishida juda muhim o'rinn tutadi.

O'z ishini yaxshi biladigan, zamonaviy direktor mакtabga psixolog nima uchun kerak ekanligini, qanday muammolarni hal etishda undan foydalinish mumkinligini juda yaxshi tasavvur qiladi. Psixologning madaniyatli, psixologik ma'rifatga ega, faoliyatida yangiliklarni qo'llashga tayyor direktor bilan ishlashi oson kechadi.

Biroq, psixolog va mакtab rahbariyati bilan o'zaro iliq munosabatlar darhol yo'lga qo'yilmasligi, nafaqat darhol, balki umuman yo'lga qo'yilmasligi ehtimoli ham bor. Buning sababi shundaki, har ikki tomon ham bir-birlariga o'ta yuqori darajadagi talablarni qo'yadi va ko'pincha natijalar kutilganiday bo'lib chiqmaydi. Masalan, psixolog oldiga mакtabda yig'ilib qolgan hamma muammolarni tezlik bilan bartaraf qilish



vazifasini qo'yishadi va deylik, bir haftadan keyin samara kutilganidek bo'limgani uchun rahbarlarning psixologdan hafsalasi pir bo'ladi. O'zini kuchli mutaxassis sanaydigan psixolog ham mакtabga tashrif buyurganidan so'ng "yangi hayot" boshlanishini kutadi, chunki u "nimani qanday bajarishni biladi". Afsuski, rahbarlarning ham, psixologning ham umidlari o'zini oqlamaydi. Natijada oqibati qanday tugashini taxmin qilish qiyin bo'limgan rahbariyat va psixologning muxolifligi boshlanadi.

Maktab ma'muriyati ilgari psixolog-mutaxassis bilan o'zaro muloqotda bo'lish tajribasiga egaligini va aftidan, bu tajriba rahbariyatda noxush taassurot qoldirganini istisno qilib bo'lmaydi. Bunday holda rahbarlarning ishonchini qozonish va maqsadga muvofiq o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun psixologning ko'p zahmat chekishiga, mehnat qilishiga to'g'ri keladi.

Boshqa bir variant kuzatilishi ehtimoli ham mavjud: maktab rahbariyati psixologlarning talablari, takliflari, "xarxasha" siga e'tibor bermasdan ilgarigidek, beg'alva ishlashni xohlashadi. Bunday vaziyatda psixolog oldida maktab jamoasining psixologik ma'rifatini oshirishi uchun keng imkoniyatlar ochiladi.

Har qanday holatda ham psixolog maktab rahbarlarining e'tibori, e'tirofini qozonish uchun ishlamasligini (albatta, ularning xayrixohligi psixolog ishini ancha engillashtirishi ko'rinish turgan haqiqat) esdan chiqarmaslik kerak. Avvalo, psixologik yordamga muhtoj o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar psixolog ish olib borishi kerak bo'lgan sub'ektlardir. Psixolog birinchi navbatda ular bilan ishlash uchun o'zining bor kuch-g'ayratini safarbar qilishi lozim. Psixologning kompetentligi, omilkorligi, maktabda duch kelgan vaziyatlarga bilimdonlik bilan yondashishigina maktab jamoasi, ota-onalar va o'quvchilar tomonidan tan olinishi va unga ishonch bildirilishiga olib keladi.

Maktab rahbariyati bilan muloqot qilib borish shartligini tushunish kerak. Rahbariyat va pedagogik jamoa a'zolari bilan ijobjiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, asosiysi – kelajakda bu munosabatlarni rivojlantirib borish birinchi navbatda psixologning o'ziga bog'liq. Gap bu erda malaka, psixologning tajribasida ham emas. Xohish bo'lsa malaka, tajribani oshirish mumkin. Muhim, hatto shart bo'lgan jihat –



psixologning turli-tuman, har qanday insonlar bilan muloqot qila olishi va konstruktiv munosabatlarni yo'lga qo'ya bilishidir.

Bunda maktabda ancha vaqtlardan beri muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritib kelayotgan, obro'li shaxslar bilan muloqot va o'zaro hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish yaxshi natija beradi. Shuningdek, o'ziga ishonch, bosiqlik, xushmuomalalik, fikrini asosli va aniq bayon etish (lozim hollarda e'tiroz bildirish) ham zarar qilmaydi.

Psixologning ham, o'qituvchilarning ham faoliyatidagi e'tibor qaratiladigan asosiy shaxs, bu – bola, o'quvchi. Biroq sir emaski, ushbu mutaxassislarning pozitsiya, kasbiy ustanovkalari (yo'l-yo'rqliklari), qarashlari har xil bo'lishi mumkin. Bu nomutanosibliklar pedagog va psixologning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqanligi uchun to'la ravishda qonuniy.

Ob'ektiv professional pozitsiyalarning turlichaligi pedagoglar va psixolog umumiy til topa olmasligini anglatmaydi. Tajriba, amaliyotning ko'rsatishicha, umuman olganda pedagogik hamjamiyat psixologlar bilan hamkorlik qilishga tayyordir. O'qituvchilar psixolog tavsiyalarini o'z faoliyatlarida darhol qo'llashga shoshilmasalar-da, psixolog hamkasblarining fikrlariga befarq emaslar. Pedagoglar nazarida psixolog timsoliga xos jihatlar quyidagilar: professional kompetentlik va xushmuomalalik, xayrixohlik, e'tiborlilik, g'amxo'rlik, kuyinchaklik singari insoniy sifatlar. Psixolog timsolida kasbiy va shaxsiy sifatlar uyg'unlashib ketgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, psixologning pedagogik jamoaga kirishishi mutaxassis va shaxs sifatiga xususiyatlari qabul qilinishiga ham bog'liq ekan.

O'qituvchilarning do'stona, xayrixoh muomalasi endi ish boshlayotgan, professionallik xususiyatlari endi shakllanayotgan psixolog uchun muhim hisoblanadi. Bundan tashqari ayni munosabat yosh mutaxassisga biror xatolikka yo'l qo'yanida (endi ish boshlayotgan psixolog faoliyatida bunday hol uchrashi tabiiy) jamoadoshlari tomonidan kechirilishiga umid hissini beradi, o'ziga xos "bo'nak", "avans" tariqasida xizmat qiladi.

Qabul jarayoni o'zaro bog'liq xarakter kasb etadi: psixolog jamoani qabul qilgandagina jamoa psixologni qabul qiladi. Shuning uchun yosh mutaxassisning alohida o'qituvchilar va pedagogik jamoa bilan o'zaro munosabatlarining shakllanishi avvalo, psixologning o'ziga bog'liq bo'ladi.



Maktab psixologlari tomonidan to'plangan tajribaning ko'rsatishicha, psixologning o'qituvchilarga nisbatan pozitsiyasi samarali o'zaro hamkorlik tabiatiga ta'sir qiluvchi muhim omillardandir.

Albatta, maktabda psixolog ish boshlagach, barcha pedagoglar uning tavsiyalariga mos holda faoliyat olib borishni boshlashadi, deb o'yash soddalikdir. Bunday bo'lishi qiyin. Psixolog o'qituvchilar tomonidan uning faoliyatiga doir har xil munosabat ifodalanishi (uning tavsiyalarini nazarpisand qilmaslikdan tortib, mayda-chuyda, bo'lar-bo'lmas narsalarda ham maslahat so'rashlari)ga tayyor turishi lozim.

Ko'p-yillik mehnat tajribasiga ega o'qituvchilarning psixologga kam murojaat qilishlari kuzatiladi (endi ish boshlagan psixologga-ku, inchunin). Yosh va tajribasiz o'qituvchilar bajonidil psixolog bilan hamkorlik qilishadi va uning yordamidan yuz o'girishmaydi.

Psixologga tez-tez murojaat qilish bundan tashqari o'qituvchilarning muloqotga kirishuvchanlik, qiziquvchanlik, yangi tajribalarni egallashga tayyorlik, faoliyatga ijodiy yondashish yoxud xavotirlanish darajasining yuqoriligi, o'ziga ishonchning pastligi singari shaxs xususiyatlariga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday hollarda pedagoglarning psixologik muammolarni ko'ra olishi, psixolog kasbi to'g'risida tasavvuri adekvatligi, psixologning professional imkoniyatlarini to'g'ri anglashi shubha ostida qoladi va pedagoglarning psixologdan kutadigan natijalari muammozi yuzaga keladi. Maktabda ishlaydigan har bir psixolog mazkur muammoga duch kelishga va uni hal etishga tayyor turishi kerak.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ежова Н.Н. Краткий справочник практического психолога / Н.Н. Ежова. – Ростов-н/Д.: Феникс, 2014. – 319 с.
2. Рокицкая Ю.А. Психологическая служба в образовании: учебное пособие для вузов / Ю.А. Рокицкая – Челябинск: Изд-во ЗАО «Библиотека А. Миллера», – 2023.
3. Nishanova. Z.T. Psixologik xizmat: Oliy o'quv yurtlari pedagogik-psixologiya bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Т.: Yangiyul poligraph service,2007.
4. Шоумаров Ф.Б., Қодиров У.Д. Таълим психолигик хизматининг илмий асослари. “Таълим тизимида психолигик хизматнинг замонавий тенденциялари: назария ва амалиёт” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари, Термиз ДУ педагогика институти, 2022 йил 22-23 апрель.



5. Шоумаров Ғ.Б., Қодиров У.Д. Ўзбекистонда психологияк хизматнинг долзарб муаммолари. “Ўқув-тарбия жараёнларини таомиллаштиришнинг миллий-психологик асослари” мавзуусида Республика илмий-амалий анжумани материаллари, Қарши, 2019 йил 18-19 апрель.

6. Шоумаров Ғ.Б., Қодиров У.Д. Ўзбекистонда психологияк хизмат муаммолари. “Таълим тизимида психологик хизматнинг замонавий тенденциялари: назария ва амалиёт” мавзуусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари, Термиз ДУ педагогика институти, 2022 йил 22-23 апрель

7. Kadirov U. FACTORS AND IMPORTANCE OF FORMING PERSONAL CONSCIOUSNESS IN THE INFORMATION SOCIETY. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 18, 1 November, 2023.

8. Кадыров У.Д., Авазов К.Х. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества//Интернаука.2021. No 3-1 (179). С. 53-54.

9. Қодиров, У. (2023). Психологияк хизмат – замонавий таълим тизимининг ажралмас таркибий қисми. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 21–24. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23460>

10. Kadyrov U.D., Kadyrov G.U. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. Science and innovation international scientific journal. Volume 3 | March, 2024.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Qodirov Umarali Do'stqobilovich  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Manzil: O'zbekiston, 200100, Termiz shahri  
[umaralikadirov@mail.ru](mailto:umaralikadirov@mail.ru)*



## MILLIY TARBIYANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



**Jabborov Xazrat Xusenovich**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Maqolada milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, milliy tarbiyaning metodologik asoslari va milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari bo'yicha psixometrik va ijtimoiy-psixologik so'rovnomalarning empirik natijalari va ular asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar bilan tanishish mumkin.



**MAQSAD:** yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar berish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, N.P.Kapustinning «O'quvchilar tarbiyasi darajasini diagnostikalash» metodi, E.G.Eydemiller, V.Yustiskisning «Tarbiya nuqsonlari omillarini aniqlash» testi, T.I.Pashukova tomonidan ishlab chiqilgan «O'smirlar shaxsidagi egotsentrik yo'naliishlarning sifat ko'rsatkichlari», V.Stefansonning «Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o'rganish», Y.Kulning «Rejalashtirishda harakatni nazorat shkalasi» metodikalaridan, S.R.Panteleyev va V.V.Stolin tomonidan «Subyektiv lokal nazorat», Y.V.Zalyubovskayaning «Shaxs tomonidan guruhni idrok etishni o'rganish», Meri Edvarsning «Shaxsni ma'qul topilgan jihatlarni aniqlash», M.Kubishkinaning «MAS» so'rovnomalaridan, «Siz va farzanlariningiz» hammualliflik (Sh.R.Baratov; X.X.Jabborov) so'rovnomasidan foydalanildi. Olingen natijalarning statistik ishonchilik darjasini matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** ota-onaning bolaga munosabati natijasida farzandga nisbatan g'amxo'rlik qilish, kuchli hissiy aloqa bildirishning «o'rtoqlik» (hamkorlik) omiliga bog'liq ravishda kuchli namoyon bo'lishi tufayli o'smirlarda milliy tarbiya shakllanishiga ijobiy ta'sir etuvchi «mustaqillik», «muloqotmandlik», «kurashga tayyorlik», «jamoaviylik», «affiliatsiya», «tartib-intizom», «ko'makni qabul qilish» kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar aniqlanganligi va shaxs xususiyatlariga ko'ra xalqimiz orasida ko'proq milliylik kasb etgan va milliy qadriyatga aylangan «mehmono'stlik», «tinglovchanlik», «muruvatlilik», «g'amxo'rlik», «hojatbarorlik», «ahillik» va «hurmatlilik» kabi fazilatlarni xulqda ustuvor namoyon bo'lishi sababli o'smirlarda milliy tarbiyalanganligini ta'minlovchi o'z-o'ziga bo'lgan munosabatning ijobiyligi, o'ziga ishonchni ijobiyligi, o'zini o'zi hurmat qilish, boshqalardan ijobiy munosabatni kutish va «Men»ni «Biz»ga proeksiyalash kabi tayanch mezonlarni differensiatsiyalash zaruratiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.



**XULOSA:** Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishing ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va omillarini tahlil qilish ta'lim tizimida o'quvchilarni barkamol shahs etib tarbiyalash bilan bog'liq jarayonlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, fazilat, axloq, milliy tarbiya, milliy xarakter, g'oya, mafkura

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ ХАРАКТЕРИСТИКИ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В статье можно ознакомиться с эмпирическими результатами психометрических и социально-психологических опросников по социально-психологическим характеристикам национального образования, методологическим основам национального образования и социально-психологическим факторам формирования национального образования, а также научным исследованиям, на их основе сделаны выводы.

**ЦЕЛЬ:** дать научно обоснованные практические рекомендации по социально-психологическим особенностям формирования национального воспитания молодежи.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В процессе исследования использовались интервью, анкетирование, методы наблюдения, а также метод Н. П. Капустин «Диагностика уровня образования учащихся», Э. Г. Эйдемиллер, тест В. Юстисиса «Детерминирующие факторы образовательных дефектов», Т. И. Пащуковой «Качественные показатели» эгоцентрических направлений в личности подростков». Из методов В. Стефансона «Исследование мотивов поведения в группе», Ю. Куля «Шкала контроля движений в планировании», «Субъективного локального контроля» С.Р. Пантелеева и В.В. Столина, «Исследование группового восприятия личностью» Ю.В. Залюбовской, «Личность» Мэри Эдвардс, определяющая благоприятные стороны», опросники «МАС» М.Кубишкиной, в соавторстве с опросником «Вы и ваши дети» (Ш.Р. Баратов; Х.Х. Джабборов). Уровень статистической достоверности полученных результатов подтверждали с помощью  $t$ -критерия Стьюдента,  $r$ -коэффициента корреляции К. Пирсона и факторного анализа.



**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** «самостоятельность», «коммуникативность», что положительно влияет на формирование национального воспитания у подростков за счет сильного проявления заботы о ребенке, выражения сильной эмоциональной связи за счет фактора «дружбы» (сотрудничества) в результате отношение родителя к ребенку, «готовность к борьбе», «общность», «принадлежность», «дисциплинированность», «принятие помощи» и социально-психологические характеристики, а по личностным характеристикам приобрели среди наших больше национализма и национального значения. Самооценка человека, обеспечивающая национальное воспитание подростков за счет приоритетного проявления в поведении таких качеств, как «гостеприимство», «слушание», «доброжелательность», «забота», «нужность», «гармония» и «уважение». определяется разработкой предложений и рекомендаций о необходимости дифференциации основных критериев, таких как положительное отношение к себе, положительная уверенность в себе, самоуважение, ожидание положительного отношения от других и проекция «Я» на «Мы».

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Анализ социально-психологических особенностей и факторов формирования национального воспитания молодежи служит развитию процессов, связанных с воспитанием студентов как всесторонне развитой личности в системе образования.

**Ключевые слова:** воспитание, добродетель, нравственность, национальное воспитание, национальный характер, идея, идеология

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL NATIONAL EDUCATION CHARACTERISTICS

### **Annotation.**

**INTRODUCTION:** In the article you can familiarize yourself with the empirical results of psychometric and socio-psychological questionnaires on the socio-psychological characteristics of national education, the methodological foundations of national education and socio-psychological factors in the formation of national education, as well as scientific research. conclusions are drawn based on them.



**AIM:** give scientifically based practical recommendations on the socio-psychological features of the formation of the national education of youth.

**MATERIALS AND METHODS:** During the research, interviews, questionnaires, observation methods were used, as well as the method of N. P. Kapustin "Diagnostics of the level of education of students", E.G.Eidemiller, the test of V.Yustiskis "Determining factors of educational defects", T.I.Pashukova "Qualitative indicators". egocentric directions in the personality of adolescents." From the methods of V.Stefanson "Study of the motivation of behavior in a group", Yu. Kul "Movement control scale in planning", "Subjective local control" S.R.Panteleev and V.V.Stolin, "Study of group perception by personality" by Yu.V.Zalyubovskaya, "Personality" by Mary Edwards, determining favorable aspects," "MAS" questionnaires by M. Kubishkina, co-authored with the "You and your children" questionnaire (Sh.R.Baratov; Kh.H.Jabborov). The level of statistical reliability of the results obtained was confirmed using Student's t-test, K. Pearson's r-correlation coefficient and factor analysis.

**DISCUSSION AND RESULTS:** "independence", "communication", which has a positive effect on the formation of national education in adolescents due to the strong manifestation of care for the child, the expression of a strong emotional connection due to the factor of "friendship" (cooperation) resulting in the attitude of the parent to the child, "readiness to fight", "community", "belonging", "discipline", "accepting help" and socio-psychological characteristics, and in terms of personal characteristics they have acquired more nationalism and national significance among us. Self-esteem of a person, ensuring the national education of adolescents through the priority manifestation in behavior of such qualities as "hospitality", "listening", "goodwill", "care", "neediness", "harmony" and "respect". is determined by the development of proposals and recommendations on the need to differentiate the main criteria, such as a positive attitude towards oneself, positive self-confidence, self-esteem, expectation of a positive attitude from others and the projection of "I" onto "We".

**CONCLUSION:** Analysis of the socio-psychological characteristics and factors in the formation of the national education of youth serves the development of processes associated with the education of students as comprehensively developed individuals in the education system.



**Key words:** education, virtue, morality, national education, national character, idea, ideology

Bugungi globallashuv va vertuallashuv davri xalqlar orasida o'ziga xos madaniy uyg'unlashuvni yuzaga keltirmoqda. Bu holat albatta umuminsoniy g'oyalarni kuchaytirishi bilan bir qatorda, millatlarning o'ziga xosligini kamaytiruvchi ijtimoiy psixologik xodisalardan biri hisoblanadi. Shu bois hozirgi kunda har bir millatlarda kuzatilayotgan bir tendensiya ko'zga tashlanmoqda, ya'ni har bir millat va xalqlar o'z yoshlarida milliy fazilatlar asosida milliy xarakterini, milliy o'zligini asrab qolishga qaratilgan ta'sirchan texnologiyalardan foydalanayotir. Mazkur masala bo'yicha davlat dasturlari, konsepsiylar, qarorlar, farmonlar qabul qilinayotir. Demak bu jarayonlardan shuni anglash mumkinki, har bir millat o'zligini asrab qolishga, millat sifatida yashab qolishi, xalq sifatida esa o'zining etnopsixologik, etnopedagogik qadriyat va an'analarini kuchaytirishi zarur bo'ladi[5].

Milliy tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari haqida gap ketganda beixtiyor taniqli o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari inson e'tiborini tortadi [2, s.108-118]. Buni isbotini bugungi kunda ijtimoiy fanlarda inson omili va uning ijtimoiy-psixologik jihatlari bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borishga talab va extiyojni oshganligi bilan ham izohlash mumkin. Mazkur tadqiqotlarning aksariyat qismida shaxsning barkamolligi, ma'naviy etukligi yoki aksinchalik axloqiy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha juda qiziqarli empirik ma'lutolar qo'lga kiritilmoqda, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati insoniyat uchun juda katta ma'naviy tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni tarbiya masalasiga e'tiborsizlik illati millatlarning axloqiy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Shuning uchun biz mazkur maqolamizda yoshlarda ijobjiy fazilatlarni tarbiyalashnig metodologik jihatlari, yoshlarni milliy tarbiya masalasiga munosabatlari hamda hamda milliy tarbiya metodlarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratdik[6].

Mazkur masalani dolzarlibligini 2019-yil 31 dekabrda qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 1059-soni qarori bilan ham izohlash mumukin. Mazkur konsepsiada bugungi yoshlarimizning shaxsiy va ijtimoiy



farovon, baxtli hayot qura olishlari uchun zarur bo'lgan aniq fazilatlar majmui belgilab berildi.

Bu haqda Qarorning 2-bandida Konsepsiya va uni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yunalishlaridan biri etib "Yoshlarda Vatanga sadokat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovation fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish" [1] ta'kidlangan.

Bu davlatimizning yoshlar tarbiyasiga yondashishda maqsadli innovation yondoshuv bo'lib, tarbiya jarayonini ilmiy asosga qurilishini va milliy tarbiya masalasida uning ijtimoiy-psixologik indikatorlari ishlab chiqishimizni talab qiladi.


Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash ketayotgan bir vaqtida, eng katta sarmoya farzandni yaxshi ta'lim va tarbiyasiga tiktikilayotganligi bu albatta yaxshi holat hisoblanadi [7].

Bugungi zamon va makon shaxsning eng asosiy ichki resurslaridan biri bo'lgan tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo'yayotgani biz soha vakllarini doim diqqat markazimizda bo'lishiligi lozim. Zero, shiddati virtualashish jarayoni kuchaytgan bir davrda ta'lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslarga, qat'iy talablar bilan yondashish juda muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Biz maqolamiz uchun yoshlarni milliy tarbiya masalasiga munosabatlari va daxldorlik darajalarini bilish uchun ijtimoiy-psixologik so'rovnama o'tkazdik, ularni tahlili qildik va quyidagicha empirik ma'lumotlarni qo'lshga kiritdik.

Talabalarga "Sizdagi tarbiyaning shakllanishiga ko'proq qaysi omil ta'sir ko'rsatgan?" degan savolga quyidagicha empirik natijalar qo'lga kiritildi.

### Sizdagi tarbiyaning shakllanishiga ko'proq qaysi omil ta'sir ko'rsatgan?






Yuqoridagi natijalardan koʻrinib turbidiki bugunki kunda yoshlар tarbiyasini shakllanishida eng koʻp taʼsir omili bu ommaviy axborot vositalari (40%) ekan. Keyingi taʼsir omillarini oila (27%), taʼlim (18%), mahalla (15%) tashkil etgan. Demak biz yoshlар tarbiyasi boʼyiya targʼibot ishlarini ommaviy axborot vositalarida kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq ekan.

Talabalarga “Sizda shakllangan xarakter va fazilatlarni koʼproq qismini kimdan oʼrgangansiz?” degan savolga quyidagicha empirik natijalar qoʼlga kiritildi.

#### SIZDA SHAKLLANGAN XARAKTER VA FAZILATLARNI KOʼPROQ QISMINI KIMDAN OʼRGANGANSIZ?




Demak yoshlар tarbiya ishlarida otaning (60%) roli va oʼrnini koʼproq yoʼqlashdsh. Demak oilada farzand tarbiyasi boʼyicha targʼibot ishlarida otaning tarbiya ishlar bilan shug’ulanishi boʼyicha koʼrsatmalarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Keyingi savol “Sizningcha tarbiya nechi yoshdan boshlab shakllanadi?” deb nomlandi va quyidagicha natijalar qoʼlga kiritildi.

#### SIZNINGCHA TARBIYA NECHI YOSHDAN BOSHLAB SHAKLLANADI?

■ Ona qorniligidan ■ Yoshligidan (3 yosh) ■ Aniq bilmayman





Respondentlarning 60% ona qorniligidan, 22% 3 yoshdan va 18% aniq bilmayman degan javobni bergan. Bizni tarbiya borasidagi ishlarimizni kemtik joylarini aynan 18% respondent aniq bilmayman degan javob ko'rsatib berdi. Qolaversa talabalarning 22% ham tarbiyani 3 yoshdan boshlanadi deb javob berishyapti bu ham xavotirli javob aslida. Chunki tarbiya ishlariga 3-yil kechikiliyapti.

Navbatdagi savol "Sizningcha tarbiyada kimlarni roli ko'proq bo'lishi kerak?" dagan ma'noda bo'lди va quyidagicha natijalar qo'lga kiritildi.


#### **"Sizningcha tarbiyada kimlarni roli ko'proq bo'lishi kerak?**



Yuqoridagi natijalardan ko'rinish turibdiki, tarbiyada ota-onaning roli ko'proq ekan. Shunday ekan jamiyatda milliy tarbiya masalasida, oilada farzand tarbiya masalasida ota-onaning roldan unumli foydalanish kerak. Ota-onalarni tarbiyaning milliy va zamonaviy metodlari bilan ta'minlash kerak. Mahallalarda maqsadli va manzilli seminar-treninglar tashkil etib ota-onalarni tarbiya metodlari bo'yicha bilimlarni oshirish maqsadga muvofiq.

Navbatdagi savol "Milliy tarbiyani ko'proq nimirlardan o'rganasiz?" ma'nosida berildi va quyidagicha natijalar qo'lga kiritildi.


#### **Milliy tarbiyani ko'proq nimirlardan o'rganasiz?**





Yoshlarimiz milliy tarbiyani eng ko'proq jamiyatdan (50%) o'rghanishayotgan ekan. Demak tarbiya ishlarida jamiyatimizda jamaotchilik nazoratini kuchaytirishimiz kerak ekan.

"Ota-onalaringizni sizga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o'ylaysiz?" deb berilgan savoliga quyidagicha javob beroishdi.



"Ota-onalaringizni sizga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o'ylaysiz?" deb berilgan savoliga 28% ota-onalar tarbiya metodlarini yaxshi bilmaydi, 18%i tarbiyadagi oilaning mas'uliyatini anglamaydi deb, 22% i farzandi bilan muloqot qilmasligi deb javob berishgan bo'lsa 32%i mazkur savolga bilmayman deb javob bergan, bu ko'rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tibor borasida masalani jiddiy o'ylab ko'rishlarini taqazo qiladi.

Navbatdani savollar "Ota-onangiz siz bilan tarbiya mavzusiga bir kunda qancha vaqt ajratadi?" deb nomlandi.

Tekshiriluvchilarini 58% bir kunda ota-onasini tarbiya mavzusiga 5-10 minut ajratishlarini ta'kidlashgan, 20% 15-30 minut va eng og'riqligi 12% bir xaftha davomida 10-15 minut suxbathashiladi va yana 10% tekshiriluvchilar tarbiyasizlik qilib qo'ygan vaziyatlarimda bu mavzuga vaqt ajratiladi deb javob berilgan. Dkmak yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rinish turibdiki ota-onalarimiz o'z farzandlariga ko'proq vaqt ajratishlari maqsadga muvofiq. Zero bu tahlikali va ochiq axbort asrida bizni farzandalarimizga tarbiya beradigan buzg'unchi va vayronkorlik ruhidagi muxolifatlar ham yo'q emas[8].

Yuqoridagi empirik natijalarda tarbiya ishlari va metodikasi bilan bog'liq ishlarimizgi nisbatan e'tiborsizlik holatlari yaqqol ko'zga



tashlandi. Zero buyuk vatandoshimiz Imom G'azzoliy quyidagi fikrlaridan ham bilishimiz mumkin, ya'ni mutafakkirimizni ta'kidlashicha "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning sa-vobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi".

Bugungi kunda yoshlarni axloqiy masalalariga e'tiborsizlik er yuzida qanchadan-qancha ma'naviy tahdid va illatlatlarni keltirib chiqarayotganligi hech kimga sir emas[9].

Yuqoridagi so'rovnomalardan ayon bo'ldiki, ota-onalr farzand tarbiyasida ma'rifatli bo'lishlari talab etiladi, zero bugun har bir ota-onsa pedagog bo'lishi lozim tarbiya metodlarini puxta o'zlashtirmog'i lozim, chunki farzand ta'lim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya eng foydali va eng kafolatli sarmoyadir [3, c.320].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarda milliy fazilatlarni tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari bugungi asrning eng dolzar masalaridan biri hisoblanadi. Bu masalada ota-onalarning, tarbiyaga mas'ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning imkoniy yo'q. Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko'ra, virtual voqelik ta'siriga ko'proq tobe bo'lib borayotgan bir vaqtida tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo'nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31 dekabrь 1059-sonli Qarori.

2.X.Jabborov. "Milliy tarbiya - ijtimoiy-psixologik, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida". Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya. ISSN: 2181-1776. "Bilik – ilmiy faoliyat" nashri <http://bilig.academiascience.or>. Jild: 03 | nashr: 02 | fevral 2022. 108-118



3.M.Quronov. "Bolam baxtli bo'lsin desangiz..." Toshkent «Ma'naviyat» 2013. 320 b.

4. Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-1-209-219>.

5.Jabborov X.X. "O'smirda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

6. Жабборов Хазрат Хусенович. Психологические особенности идеологического влияния "массовой культуры" на человеческий разум. СОЦИАЛЬНЫЙ ПСИХОЛОГ журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.

7. Жабборов Хазрат Хусенович. The influence of psychological protective mechanisms in the formation of the ideological immunity in adolescents. European journal of psychological research vol. 4 No.1, 2017 ISSN 2057-4794.

8. Jabborov Kh.Kh.. The study of the problem of national education by eastern thinkers. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677/ Online Link:- <http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>

9. Khazrat H. Jabborov. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION International Journal of Mechanical Engineering. ISSN: 0974-5823. Vol. 7 No. 2 February, 2022 –B 1838-1843.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Jabborov Xazrat Xusenovich**

*Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent*

*Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri*

*[xxjabborov@mail.ru](mailto:xxjabborov@mail.ru)*

*ORCID 0000-0002-0722-8265*



## SUD VA TERGOV JARAYONIDA PSIXOLOG KOMPETENTLIGINING O'ZIGA XOSLIGI



*Olimov Laziz Yarashovich*  
*Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligining o'ziga xos jihatlari nazariy hamda amaliy tadqiqi ochib berilgan bo'lib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsiyal intellektini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsiyal va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.



**MAQSAD:** sud va tergov jarayonida psixolog kompetentligining o'ziga xos jihatlarini baholash orqali sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishini aniqlash va ularning kasbiy kompetentlik bilan o'zaro mutanosib rivojlanishi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Zamonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi namoyon etilishi va rivojalanishi muammosini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagи kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ishimiz mumkin.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko'pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezoni sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladi, bunda etarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomonidan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

**XULOSA:** Sud psixolog ekspertining u yoki bu insonlar bilan o'zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini



tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o'ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog'liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsiyal intellekt, kasbiy faoliyat.

## ХАРАКТЕРИСТИКА КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГА В СУДЕБНОМ И СЛЕДСТВЕННОМ ПРОЦЕССЕ

### **Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ.** В данной статье раскрывается теоретическое и практическое исследование особенностей компетентности психолога в судебно-следственном процессе, выявляются социально-психологические факторы и компоненты, развивающие социально-психологическую компетентность и эмоциональный интеллект судебного психолога, коммуникативную компетентность, эмоционально-личностный характер судебного психолога, изучение проявления и развития его компонентов; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

**ЦЕЛЬ:** путем оценки конкретных сторон компетентности психолога в судебно-следственном процессе определить проявление факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и разработать практические рекомендации, основанные на их пропорциональном развитии с профессиональными компетентностями.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Анализируя научные исследования, направленные на изучение проблемы проявления и развития социально-психологической компетентности судебных психологов-



экспертов в современной психологии, необходимо теоретически осмыслить многие психологические характеристики, связанные с методологией профессиональной и социальной -психологическая компетентность на них мы обратили внимание. На основе анализа ряда научной литературы мы видим, что существуют разные подходы исследователей к определению социальной и психологической компетентности.

Процесс социально-психологической компетентности мы можем видеть не только в социальной и прикладной психологии, но и в практике многих психологических наук. Подобная категория выражена в научной литературе, и до сих пор не принятая единая научно-методическая разработка совершенного уровня, позволяющая оценивать эффективность профессиональной деятельности только как критерий социально-психологической эффективности как средства компетентности.

Наши наблюдения по изучению социально-психологической компетентности судебного психолога и анализ фундаментальной литературы, связанной с проблемой исследования, требуют обратить особое внимание на взгляды ученых, занимающихся проблемами социально-психологической компетентности.

Под социально-психологической компетентностью судебного психолога-эксперта понимается профессиональная деятельность судебного психолога-эксперта, предполагающая способность осуществлять практическую профессиональную деятельность и профессиональное лечение на достаточно высоком уровне. При этом социально-психологическая компетентность судебного психолога может быть оценена по соразмерности его профессиональных знаний и умений, с другой стороны, его профессиональному положению и психологическим качествам.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Способность судебного психолога иметь адекватные взаимоотношения с тем или иным лицом, в частности, высокий уровень общения при судебно-психологических экспертизах, умение анализировать ситуацію общения, адекватная чувствительность к поведению, действиям, психическим переживаниям собеседника и различным ситуаціям, характеризующиеся проявлением качеств гибкости на определенном уровне.



Проявление социально-психологической компетентности судебных психологов-экспертов, прямая зависимость от таких факторов, как профессионально-коммуникативная компетентность, которая формируется уникальным образом у каждого судебного психолога-эксперта, служит определению социально-психологической компетентности, эффективности профессиональной деятельности. и обеспечить целостность личности.

**Ключевые слова:** судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

## CHARACTERISTICS OF THE PSYCHOLOGIST'S COMPETENCE IN THE COURT AND INVESTIGATION PROCESS

### Annotation.

**INTRODUCTION:** This article reveals the theoretical and practical research of the specific aspects of the psychologist's competence in the judicial and investigative process, the identification of the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence and emotional intelligence of the forensic psychologist, the communicative, emotional and personality of the forensic psychologist. study the manifestation and development of its components; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their relationship with the legal system is revealed.

**AIM:** by evaluating the specific aspects of the psychologist's competence during the court and investigative process, it is to determine the manifestation of the socio-psychological competence factors in the activity of the court psychologist and to develop practical recommendations based on their proportional development with professional competence.

**MATERIALS AND METHODS:** Analyzing the scientific research works aimed at studying the problem of the manifestation and development of the socio-psychological competence of forensic psychologist experts in modern psychology, it is necessary to theoretically interpret many psychological characteristics related to the methodology of professional and socio-psychological competence in them. we paid attention. Based on



the analysis of several scientific literature, we can see that there are different approaches by researchers to determine social and psychological competence.

We can see the process of social-psychological competence not only in social and applied psychology, but also in the practice of many psychological sciences. A similar category is expressed in scientific literature, and a single scientific methodological development of a perfect level has not yet been adopted to assess the effectiveness of professional activity only as a criterion of socio-psychological efficiency as a means of competence.

Our observations on the study of the socio-psychological competence of a forensic psychologist and the analysis of the fundamental literature related to the research problem require paying special attention to the views of scientists dealing with the problems of socio-psychological competence.

Socio-psychological competence of a court psychologist expert means the professional activity of a court psychologist expert, which implies the ability to perform practical professional activities and professional treatment at a sufficiently high level. At the same time, the socio-psychological competence of a forensic psychologist can be assessed by the proportionality of his professional knowledge and skills, and on the other hand, his professional position and psychological qualities.

**CONCLUSION:** The ability of a forensic psychologist to have an adequate relationship with one or another person, in particular, a high level of communication in forensic psychological examinations, the ability to analyze communication situations, adequate sensitivity to the interlocutor's behavior, actions, mental experiences and different situations characterized by the manifestation of the qualities of flexibility at a certain level.

The manifestation of socio-psychological competence of forensic psychologist experts, the direct dependence on factors such as professional and communicative competence, which is formed in a unique way in each forensic psychologist expert, serves to determine socio-psychological competence, the effectiveness of professional activity and ensure the integrity of the individual.

**Key words:** forensic psychologist expert, socio-psychological competence, forensic psychological expertise, professional competence, competence, emotional intelligence, professional activity.



*O*zbekistonda oxirgi-yillarda sudlov va huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

“Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo‘gan xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzARB muammo sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 5-iyuldaggi PF-6256-son “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 17-martdagii PF-89-son “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minalash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbazarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 13-dekabrdagi 705-sonli “Sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 21-fevraldagii 73-sonli “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o’tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda psixologlar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi.



Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko'pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga fagat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezoni sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda etarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda "qobiliyat" tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulqatvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda yuridik faoliyat amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to'laroq anglash va amaliyotga keng doirada tadbiq etish uchun esa uning shakllanish yo'lini, tarixiy rivojlanishini bilish talab etiladi. Huquqbazarlik jarayonidagi ishtirokchilarining (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi, xolis) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o'rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo'lgan.



Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'rnini bo'shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o'zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat taraqqiyoti barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turki bo'ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik tajribalarning ahamiyati yanada ortib, uni o'tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o'z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkorlik asosida, odilona olib borilishini ta'minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko'p hollarda faqat suda yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog'liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarning ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga etmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur va idrok qilish va xayol jarayonlarini tadqiq qilishga alohida etibor qaratilgan.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan ma'lum bo'lishicha, birinchi bo'lib 1810-yilda Napoleon "Jinoyat kodeksi"ga o'z hatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik layoqatini aniqlash tushunchasini kiritadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchi (gumonlanuvchi shaxsi)ning o'z hatti-harakati yoki qilmishlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertizasini o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilib, ushbu psixiatrik ekspertizasi tarkibiga psixologik ekspertizasini o'tkazish ham nazarda tutilgan edi. Shu vaqt dan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlanadi.

XX asrning o'rtalariga kelib, eksperimental psixologiya va psixodiagnostika sohasi bo'yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalana boshlandi. Ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqot laboratoriyalari tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulq-atvoridagi o'zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilalar o'rganila boshlandi.

1922-yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. XX asrning boshlarida sobiq ittifoqning bir



qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini oʼrganish boʼyicha markazlar ochilib, ularda sudga oid psixologik ishlar olib borila boshlandi.

XIX-asrning oxiri XX-asrning boshida sud psixologik ekspertizaning xulosalari isbot-dalillarning mustaqil manbai sifatida qoʼllaniladi. Uning nazariy asoslari yirik olimlar tomonidan, xususan, Germaniyada - V.Shtern, G.Gross, Italiyada – E.Ferri va R.Garrofalo, Rossiyada – L.Vladimirov, A.Freze, V.Bexterev va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Sudga oid psixologik ekspertizasiga doir tadqiqotlarda sud psixolog eksperti faoliyatiga aloqador turli jihatlarini, xususan: K.Marbe psixolog jinoiy va fuqarolik ishlarda ekspert sifatidagi ishtiroki, V.Shtern sud psixolog ekspertining jinsiy jinoyat ishlari yuzasidan yosh guvohlar koʼrsatmalarini baholash va ekspertiza qilinayotganlarning aqliy qobiliyatlarni aniqlashning psixologik usullarini, G.Gross esa kriminal psixologiya sohasiga doir ekspertiza oʼtkazish mexanizmlarini oolib bergen.

Guvohlik koʼrsatmalarini tadqiq etish sohasida psixologik ekspertiza oʼtkazish va boshqa muammolar boʼyicha tadqiqot ishlari amalgalashirilib, psixolog A.Luriya tomonidan 1927-yilda Moskva guberniya prokuraturasi qoshida tashkil qilingan amaliy psixologiya laboratoriyasida jadal tadqiqot ishlari olib borilgan. U erda psixologik ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va jinoyatlarni ochish uchun amaliy psixologiya usullarini qoʼllash imkoniyatlari oʼrganib chiqilgan.

Taʼkidlash joizki, amaliy psixologiyada yuridik amaliyot ehtiyojlari uchun uning qoʼllanilishi asosan jinoiy jarayon ishtirokchilari koʼrsatmalarning haqiqiyligini aniqlash metodikalarini ishlab chiqish uchun qoʼllanilgan. T.V.Saxnova yozishicha, bir tomonidan qonunbuzar shaxsini oʼrganib chiqishga eʼtibor kuchayishidan darak bergen (ilgari u faqat qonunbuzarning oʼzini oʼrganilishida toʼxtalgan), bu esa oʼz navbatida, obʼektiv va subʼektiv tomonlarni inobatga olgan holda sodir etilgan qonunbuzarlikka aniq va toʼgʼri baho berishga imkon bergen. Boshqa tomonidan esa, jarayon (sodir etilgan holat) ishtirokchilarining koʼrsatmalini haqiqiy ekanligini isbotlash uchun, ekspert sud yoki tergov jarayonida berilgan maʼlumotlar qay darajada haqiqiy ekanligini aniqlash boʼyicha vazifani oʼz zimmasiga yuklatadi.

T.V.Saxnovaning fikricha, ekspertiza doirasida shaxsga tashxis qoʼyish orqali haqiqatni aniqlash uchun qoʼllanilgan. Respondentning erkin hikoyasi (oʼzi bilan sodir boʼlgan holat yoki hodisa toʼgʼrisida



bildirgan fikrlari, yoki ko'rsatuvlari) va ekspert bergen savollarning javoblari asosida, ob'ektiv u yoki bu shaxs tipi bilan shartlangan, yolg'on belgilari mavjudligi (yoki mavjud emasligi) haqida xulosa qilinadi. Taxmin qilinishicha, sovuqqon, xo'mraygan va yopiq odamlar oldindan uylab qo'ygan yolg'oni aytishga tayyor bo'lishadi. Shuning uchun u bergen ko'rsatmalar ahamiyatli emas, deb baholash mumkin. Bajarilmagan istak-xohishlar majmui mavjud bo'lgan shaxsning ko'rsatmalari ham to'la haqiqiy deb tan olinmasligi mumkin, biroq boshqa sabablariga ko'ra: sub'ekt boshqalar nigohida o'z mavqeiga ega bo'lishi uchun, istaklarini qiziq tarzda amalga oshiradi. Bu turdag'i ekspertizalar voyaga etmagan guvohlarga nisbatan samaralidir. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, o'sha paytda ishonchli, ilmiy asoslangan shaxsni tadqiq etish bo'yicha metodikalar ishlab chiqilmagan edi, shu tufayli ekspert vazifasini ob'ektiv tarzda hal etish imkonni bo'lмаган.

O'rghanish jarayonida keltirilgan vajlarning haqiqiyligini aniqlash ekspertizaning asosiy kamchiligi sifatida bundan iborat bo'lмаган. Ko'rsatmalarning haqiqiyligi haqida savolga javob berayotganda, ekspert-psixolog o'zining maxsus bilimlari chegarasidan, jarayondan tashqari, o'z vakolati doirasidan chiqib ketgan va sud vakolati chegaralariga kirgan. Rivojlanishining birinchi bosqichida sud ekspertizasi imkoniyatlariaga vakolatidan ortiqcha baho berish, ehtimol qonuniydir, chunki amaliy psixologiya darajasi yuridik amaliyot ehtiyojlardan ancha orqada qolgan edi. Bu esa o'z navbatida vazifalarni noto'g'ri, xato belgilashga va ularni echish uchun vositalarni noadekvat tanlashga olib kelar edi.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifikasi yuklanib, faqatgina ko'rsatmalar haqiqiyliginigina tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo'lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammallahib borayotgan amaliyotning, o'sib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanning imkoniyatlariiga etarlicha baho bera olmaslik o'rnlidir.

Olimlarning jiddiy tadqiqot ishlari (xususan, A.R.Luriya, M.M.Kochenov, A.R.Ratinov, V.L.Vasilev, V.F.Pirojkov, A.V.Dulov,



V.F.Yengalichev, S.S.Shipshin va boshqalarning) jinoiy va fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonlarining maqsadlariga nisbatan sifatli darajada psixologik vazifalarni qo'yish va hal etish imkonini beradi.

Sud psixolog ekspertlarining emotsiyal intellekti bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo'lgan alomatlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikda o'z aksini topgan. Besh-yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to'g'ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Ular ekspertiza qilinayotganlarning ishga oid ko'rsatuvarlarini (xususan, berayotgan ko'rsatmalari rostmi, yoki yolg'onligi, ularning fantaziyaga berilayotganligi yoki yo'qligi) tinglash va tushunish uchun ortiqcha emotsiyal kechinmalarga berilish kerak emas, degan xulosaga kelganliklarini anglatadi. Natijada, sud psixolog ekspertlari ekspertiza jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli holatlar va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishni biladilar.

Besh-yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsiyal intellektini o'zaro bog'lovchi jihatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda insonlarni tushunish bilan o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ( $r=0,503$ ,  $p\leq 0,05$ ), axloqiy ustankalar bilan o'z emotsiyasini boshqarish ( $r=0,562$ ,  $p\leq 0,05$ ), emotsiyal barqarorlik bilan empatiya ( $r=0,526$ ,  $p\leq 0,05$ ), ego kompetentlik bilan o'z-o'zini rag'batlantirish ( $r=0,512$ ,  $p\leq 0,05$ ), barqaror insoniy munosabatlar bilan va emotsiyal barqarorlik bilan emotsiyal bilimdonlik ( $r=0,573$ ,  $p\leq 0,05$ ) o'rtasida kuzatildi ( $r=0,457$ ,  $p\leq 0,05$ ). Qolgan ko'rsatkichlar o'rtasida korrelyatsion ko'rsatkichlar biroz past bo'lganligi esa sud psixolog ekspertlari kasbiy faoliyati davomida o'z hatti-harakatlarini nazorat qilish, ish faoliyatini tartibga solish va uni ro'yobga chiqarish ustida jiddiy ishlashlari amalga oshirish zarurati borligidan dalolat beradi.

Besh-yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari faoliyat jarayonida boshqa shkalalar bo'yicha ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish orqali ekspertiza o'tkazilayotganlarning ichki kechinmali, ularning his-tuyg'ulari, bergen ko'rsatuvarlarini, shuningdek, o'zi bilan sodir bo'lgan hodisa yoki holat ularning keyingi ruhiy holatidagi



ta'siri (iz, asorat)ni adekvat baholashga va sud psixologik ekspertizasi xulosasini tegishli tartibda rasmiylashtirishda samaradorlikka erishish mumkinligidan dalolat beradi (1-jadval).

Besh-yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetenliligi bilan emotsional intellekti umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari ( $n=41$ )

	Shklalar	Emotsional intellekt (N.Xoll metodikasi bo'yicha)				
		Emotsional bilimdonlik	O'z emotsiyasini boshqarish	O'zini-o'zi rag'batlan-tirish	Empatiya	O'zga inson-larning kechin-malarini sezish
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik (Kunitsina metodikasi bo'yicha)	Insonlarni tushunish	0,319	0,106	0,281	0,262	0,503*
	Vaziyatlarni tushunish	-0,039	0,416	0,143	0,331	0,431
	Uddaburonlik	0,090	-0,037	0,236	0,259	0,407
	Axloqiy ustanovkalar	0,087	0,562*	0,318	0,371	0,320
	Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,291	-0,013	0,290	0,400	0,239
	Emotsional barqarorlik	0,207	-0,033	0,303	0,526*	0,269
	Imidj	0,368	0,430	0,104	0,266	0,482
	Sotsial psixologik kompetentlik	-0,011	0,244	0,455	0,234	0,466
	Verbal kompetentlik	0,101	0,125	0,454	0,198	0,487
	Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,561*	0,131	0,060	0,160	0,497
	Ego kompetentlik	0,273	0,249	0,512*	0,235	0,228
	Kommunikativ kompetentlik	-0,030	0,452	0,249	0,447	0,395
	Ishonchlilik	0,068	0,216	0,459	0,446	0,512*
	Barqaror insoniy munosabatlar	0,573*	0,291	0,499	0,485	0,432
	Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,078	0,436	0,382	0,141	0,208

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ , \*\*  $p \leq 0,01$  2-jadval



Besh-yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetenliligi bilan emotsiyal intellekti umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=61)

	Shklalar	Emotsional intellekt (N.Xoll metodikasi bo'yicha)				
		Emotsional bilimdonlik	O'z emotsiyasini boshqarish	O'zini-o'zi rag'batlantirish	Empatiya	O'zga insonlarning kechinmalarini sezish
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik (Kunitsina metodikasi bo'yicha)	Insonlarni tushunish	0,331	0,304	0,486	0,267	0,701**
	Vaziyatlarni tushunish	-0,033	0,659**	0,123	0,329	0,421
	Uddaburonlik	0,087	0,141	0,226	0,241	0,478
	Axloqiy ustanovkalar	0,741**	0,276	0,083	0,236	0,195
	Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,312	-0,019	0,498	0,398	0,239
	Emotsional barqarorlik	0,196	-0,031	0,308	0,454	0,351
	Imidj	0,313	0,353	0,109	0,452	0,398
	Sotsial psixologik kompetentlik	0,017	0,446	0,236	0,713**	0,219
	Verbal kompetentlik	0,122	0,482	0,431	0,227	0,193
	Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,741**	0,103	0,060	0,149	0,491
	Ego kompetentlik	0,313	0,321	0,314	0,228	0,223
	Kommunikativ kompetentlik	-0,029	0,232	0,738*	0,405	0,389
	Ishonchhlilik	0,062	0,435	0,423	0,412	0,278
	Barqaror insoniy munosabatlar	0,241	0,776**	0,453	0,474	0,687*
	Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,063	0,485	0,763**	0,193	0,309

\* p≤ 0,05, \*\* p≤ 0,01

Navbatdagi tahlil esa besh-yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsiyal intellekti o'rta sidagi bog'liqliklarga qaratilgan.

Besh-yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ko'rsatkichlarida ham emotsiyal intellekt bilan ijtimoiy-psixologik



kompetentlik oʻrtasida yuqori korrelyatsion bogʼliqlikni ifodalovchi koeffitsientlar kuzatilganligini koʼrishimiz mumkin. Bu esa besh-yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog kasbiy faoliyatini tashkil etishda shaxsiy tajriba va tasavvurlariga yaqqol tayanishlarini koʼrsatmoqda.

Tajriba-sinov natijalarida kuzatilishicha, besh-yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertlari emotsional intellekti ijtimoiy-psixologik kompetentlikning insonlarni tushunish oʼzga insonlarning kechinmalarini sezish bilan ( $r=0,701$ ,  $p\leq 0,05$ ), vaziyatlarni tushunish oʼz emotsiyasini boshqarish bilan ( $r=0,659$ ,  $p\leq 0,05$ ); axloqiy ustanovkalar emotsional bilimdonlik bilan ( $r=0,741$ ,  $p\leq 0,05$ ), sotsial psixologik kompetentlik empatiya bilan ( $r=0,713$ ,  $p\leq 0,05$ ), barqaror insoniy munosabatlar oʼz emotsiyasini boshqarish bilan ( $r=0,776$ ,  $p\leq 0,05$ ) va shaxslilik kommunikativ imkoniyati oʼz-oʼzini ragʼbatlantirish bilan muvofiqlikda ( $r=0,763$ ,  $p\leq 0,05$ ) rivojlanishi mumkinligini koʼrsatmoqda. Korrelyatsion munosabatlardan, besh-yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik vaziyatlarni oqilona baholash, sud psixolog ekspertining oʼzining statusiga ega boʼlishi muhim ekanligini anglaganliklarini ifodalamoqda, deyish mumkin (2-jadval).

Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini tadqiq etishda ularning emotsional intellektiga murojaat qilish juda ham zarur. Aytish mumkinki, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti oʻrtasida ijobiy bogʼlanishlar faoliyat jarayonida muhim hisoblanib, barcha mezon boʼyicha ijtimoiy-psixologik kompetentlik sifatlari bilan emotsional intellekt oʼrtasidagi toʼgʼri ichki munosabat shakllangan. Bu esa sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligining kasbiy kamolotdagi holatini yanada chuqrroq tushunish imkonini berdi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish boʼyicha oʼquv modulini amalda qoʼllash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga bogʼliq boʼlgan kasbiy kompetentlikning yuqori diapazonda koʼtarilganligini koʼrsatadi. Oʼquv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini taʼminlovchi sohaga tegishli boʼlgan meʼyoriy hujjatlar boʼyicha savodxonligi, shuningdek psixodiagnostik ishlarni amalga qoʼllay olishi, sudga oid psixologik ekspertizasi xulosasini sifatli tarzda rasmiylashtirish boʼyicha bilimdonligini oshirishga erishildi.



Sud psixologik ekspertizasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning sud psixolog eksperti sifatidagi faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog'liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligiga tayanch kompetensiyalarini faoliyat jarayonida shakllantirilishi kognitiv, emotsiyal, xulqiy omillarni o'zaro mutanosib ravishda rivojlanishi faoliyat samadorligini ta'minlashda individual va differensial farqlarga bog'liqligi haqidagi g'oyalarimiz o'z tasdig'ini topdi. Bu borada ijtimoiy-psixologik kompetentlik, eng avvalo, kasbiy faoliyat samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qilishi aniq.

### **Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati**

1. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdon" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
2. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdon" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'.O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
6. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O'smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
7. Olimov L.Ya. Sotsialno-psixologicheskiy podxod k issledovaniyu konfliktov. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2019 god, Vipusk 19. 379-381 st.



8. Olimov L.Ya. Teoreticheskie osnovi pedagogicheskoy texnologii. Vestnik integrativnoy psixologii.(jurnal dlya psixologov). 2018 god, Vipusk 18. 163-165 st.

9. Olimov L.Ya. Teoreticheskiy analiz problemi kreativnosti v psixologii. Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 23, 2021 g. S 237-241.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Olimov Laziz Yarashovich*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri*

*azizbekyarasev@mail.ru*

*ORCID: 0000-0001-9437-9741*

*SCOPUS ID 57215004089*



## TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI



**Qodirova Odina Djurabaevna**  
*Andijon davlat universiteti, Andijon shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada, emotsional intellekt muammosining dolzarbliji, bugungi kundagi ta'lim tizimidagi ahamiyati taxlil etilgan. Emotsional intellekt fenomenining nazariy asoslari xorijiy tadqiqotlari asosida o'rsganilgan. Ta'lim tizimida talabalar emotsional intellektini rivojlantirishga erishish orqali kasbiy muvofaqiyatga etaklovchi qobiliyat



sifatida baxolandi. Talaba yoshida ushbu qobiliyatni rivojlantirish alohida oʻrin tutish zarurligi ochib berilgan.

**MAQSAD:** Zamonaviy taʼlimning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida har bir shaxs oʼz emotsiyalarni boshqarish va boshqa odamlarning emotsiyal holatlarini toʼgʼri anglash qobiliyat mutaxassisning kasbiy faoliyatini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga va unda yuqori natijalarga erishishni nazoratga olish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Shaxs oʼzining hissiy reaktsiyalariga eʼtibor berishi atrofidagi boʼlayotgan narsalarga va hissiy darajada ushbu hodisalarga nisbatan oʼzining hissiy kechinmalarini tushunishga harakat qilishi zaruriyligi. Har bir shaxs his-tuygʼularini va harakatlari bir biri bilan qanday bogʼliqligini oʼrganish lozimligi jamiyat ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli taʼsir etadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar insonning emotsiyal sohasi va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish shaxsiy muammolarni ahglashga va bartaraf etishga asos boʼlmoqda .

**XULOSA:** Emotsional intellekt keng maʼnoda shaxsning, boshqalarning his-tuygʼularini tushunish orqali va ularning hissiy holatiga moslashish qobiliyatini bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini birlashtiradi. Oʼzini nazorat qilish va oʼzaro munosabatlarni oqilona tashkil etish qobiliyati, boshqalar bilan toʼgʼridan-toʼgʼri aloqani oʼz ichiga oladigan faoliyat sohasida muxim oʼrin egallaydi. Bu esa kasbiy faoliyat soxasida muxim axamiyatga ega. Agar umumiy intellekt akademik muvaffaqiyat omili boʼlsa, unda emotsiyal intellektning yuqori darajasi professional faoliyat va hayotdagi muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradi.

**Kalit soʼzlar:** Emotsional intellekt, emotsiyal jarayonlar, emotsiyal fikrlash, shaxsiy intellekt, hissiylik koeffitsienti, hissiy tarbiya, oʼz-oʼzini boshqarish, professional faoliyat.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА СТУДЕНТОВ В ВО ВРЕМЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье анализируется актуальность проблемы эмоционального интеллекта и ее значение в современной



системе образования. Теоретическая основа феномена эмоционального интеллекта изучена на основе зарубежных исследований. В системе образования оно оценивалось как навык, ведущий к профессиональному успеху за счет достижения развития эмоционального интеллекта учащихся. Выявлено, что развитию этой способности следует уделять особое место в студенческом возрасте.

**ЦЕЛЬ:** В процессе социально-экономического развития современного образования способность каждого человека управлять своими эмоциональными реакциями и правильно понимать эмоциональные состояния других людей позволяет более успешно управлять профессиональной деятельностью специалиста и достигать высоких результатов в это.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Потребность человека обратить внимание на свои эмоциональные реакции на происходящее вокруг и попытаться на эмоциональном уровне понять свои душевные переживания по отношению к этим событиям. Необходимость узнать, как чувства и действия каждого человека связаны друг с другом, оказывает существенное влияние на социальное развитие общества. Современные психологические исследования являются основой развития эмоциональной сферы и интеллектуальных возможностей человека для понимания и устранения личных проблем.

**ЗАКЛЮЧЕНИЯ:** Эмоциональный интеллект в широком смысле сочетает в себе способность человека эффективно общаться, понимая эмоции других, и способность адаптироваться к их эмоциональному состоянию. Умение владеть собой и рационально организовывать отношения важно в той сфере деятельности, которая предполагает непосредственный контакт с другими людьми. Это имеет большое значение в сфере профессиональной деятельности. Если общий интеллект является фактором академической успешности, то высокий уровень эмоционального интеллекта позволяет добиться успеха в профессиональной деятельности и жизни.

**Ключевые слова:** Эмоциональный интеллект, эмоциональные процессы, эмоциональное мышление, личностный интеллект,



ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ КОЭФФИЦИЕНТ, ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ  
САМОУПРАВЛЕНИЕ, ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ.  
ВОСПИТАНИЕ,

## PSYCHOLOGICAL BASES OF STUDENTS' EMOTIONAL INTELLIGENCE DEVELOPMENT DURING THE EDUCATIONAL PROCESS

### **Annotation.**

**INTRODUCTION:** This article analyzes the relevance of the problem of emotional intelligence and its significance in the modern education system. The theoretical basis of the phenomenon of emotional intelligence has been studied on the basis of foreign research. In the education system, it has been valued as a skill that leads to professional success by achieving the development of emotional intelligence in students. It was revealed that the development of this ability should be given a special place at student age.

**AIM:** In the process of socio-economic development of modern education, the ability of each person to manage his emotional reactions and correctly understand the emotional states of other people allows him to more successfully manage the professional activities of a specialist and achieve high results in this.

**MATERIALS AND METHODS:** A person's need to pay attention to his emotional reactions to what is happening around him and try to understand his emotional experiences in relation to these events on an emotional level. The need to learn how each person's feelings and actions relate to each other has a significant impact on the social development of society. Modern psychological research is the basis for the development of the emotional sphere and intellectual capabilities of a person to understand and eliminate personal problems.

**CONCLUSION:** Emotional intelligence, broadly defined, combines a person's ability to communicate effectively, understand the emotions of others, and the ability to adapt to their emotional state. The ability to control oneself and rationally organize relationships is important in a field of activity that involves direct contact with other people. This is of great importance in the field of professional activity. If general intelligence is a factor in academic success, then a high level of emotional intelligence allows you to achieve success in professional activities and life.



**Key words:** Emotional intelligence, emotional processes, emotional thinking, personal intelligence, emotional quotient, emotional education, self-management, professional activity.

*Mamlakatimizning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida har bir shaxs o’z emotsiyal reaksiyalarini boshqarish va boshqa odamlarning emotsiyal holatlarini to’g’ri anglash qobiliyati mutaxassisning kasbiy faoliyatini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga va unda yuqori natijalarga erishishga imkon beradi. Talaba yoshida ushbu qobiliyatni rivojlantirish alohida o’rin tutadi. Aynan shu yoshda psixikaning birligi shakllanadi va butun hayot davomida muhim xususiyatlarga ega bo’ladi. Ushbu bosqichda nafaqat o’zini anglash, balki tashqi dunyo bilan o’zaro aloqalarni yaxshilash ham zarur, bu ta’sir ayniqsa ijtimoiy turkumdagagi kasblarda ko’zga ko’rinadi. Ushbu kasblar guruhida kasbiy yo’nalishning yuqori dinamikligi va o’ziga xosligi sababli faoliyatning barcha psixologik sharoitlarini oldindan, miqdoriy va sifat jihatdan baholash qiyin. Shu sababli, universitetda o’qish davrida nafaqat talabalardagi ya’ni bo’lajak mutaxassislar tomonidan kasbiy faoliyat asoslarini o’zlashtirishga, balki ularning his-tuyg’ularini boshqarish, boshqa odamlarning his-tuyg’ularini tanib olish va tushunish qobiliyatini rivojlantirishga tayyorgarlik muhim rol o’ynaydi.*

An’anaviy intellekt insonning turli ma’lumotlar, mantiqiy qoidalari, sxemalar va boshqalar bilan ishlash qobiliyatini ko’rsatadi. SHuni ta’kidlash kerakki, insonning fikrlash jarayoni nafaqat mantiqiy operatsiyalarini o’z ichiga oladi, balki ko’pincha unga, hissiyotlarga aralashadi, rag’batlantiradi va o’zgartiradi. "Ko’r-ko’rona hissiyotning despotik hukmronligiga bo’ysunish, fikr ba’zan ob’ektiv haqiqat bilan emas, balki sub’ektiv tuyg’u bilan muvofiqlik istagi bilan tartibga solina boshlaydi ..." haqiqat printsipi "ga qaramay" zavq printsipi "ga amal qiladi ... Ko’p yoki kamroq ehtirosli tarafkashlik bilan hissiy fikrlash dalillarni tanlaydi kerakli echim foydasiga erishadi »(S.L.Rubinshtein) [1].

Amerikalik psixolog Govard Gardner "emotsional fikrlash" tushunchasiga ayniqsa yaqin keldi. Ushbu olim intellektning inson hayoti muvaffaqiyatiga ta’sir qiladigan bir turi emas, balki bir nechta turi borligini ta’kidlagan (Intellekt turlarining ko’pligi G.Gardner tushunchasi). Ushbu kontseptsiyaga ko’ra, intellektning quyidagi asosiy



turlarini ajratish mumkin: lingvistik, musiqiy, mantiqiy-matematik, fazoviy, tana-kinestetik va shaxsiy. Ushbu turlarning barchasi bir-biridan mustaqildir va o'zlarining qonunlariga bo'ysungan holda qandaydir alohida tizimlar sifatida ishlaydi. SHaxsiyatni to'liq anglash uchun barcha keltirilgan aql turlari talab qilinadi. Biroq, ba'zi odamlarda irsiyat, ta'lim va boshqa omillar ta'siri ostida aqlning ba'zi turlari boshqalarga qaraganda ancha kuchli rivojlanishi mumkinligi ta'kidlanadi. his-tuyg'ular va fikrlash o'rtasidagi munosabatlar muammolariga nisbatan eng katta qiziqish "shaxsiy intellekt" bo'lib, unda Gardner ikki tomonni - shaxslararo va shaxslararo ajralib chiqadi. Shaxsiy intellekt o'zini o'zi boshqarish vazifalari bilan bog'liq. Gardnerning fikriga ko'ra, aynan shu aqlning mavjudligi tufayli inson o'z his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularini boshqarishi, bilishi, ularni ajratishi va tahlil qilishi, shuningdek olingan ma'lumotlardan o'z faoliyatida foydalanishi mumkin. SHaxslararo intellekt odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammolari bilan bog'liq. Bu boshqa odamlarning ehtiyojlari va his-tuyg'ularini, ularning niyatlarini aniqlash, tahlil qilish va tushunish qobiliyatini anglatadi. Uning yordami bilan inson turli xil holatlarda boshqa odamlarning xattiharakatlarini bashorat qilishi, shuningdek ularni boshqarishi mumkin.

Ushbu masalaning keyingi rivojlanishi doirasida 1988-yilda R.Bar-On hissiy va ijtimoiy aql kontseptsiyasini kiritdi, uning taxminiga ko'ra, bu juda ko'p shaxsiy va shaxslararo qobiliyat, ko'nikma va malakalardan iborat bo'lib, ular birlashganda inson xulq-atvorini belgilaydi. R.Bar-On birinchi navbatda emotsional intellektni - hissiylik koeffitsienti, Ananaviy nitellektga o'xshashlik - aql-idrok koeffitsientini kiritdi. O'z navbatida, Kerolin Saarni hissiy kompetentsiya tushunchasini o'rganib chiqdi va tarkibida kognitiv qobiliyatlar, ijtimoiy ko'nikmalar va hissiy tajriba to'plamini birlashtirdi [5]. D.Golman emotsional kompetensiyada ikkita alohida komponentni ("shaxsiy kompetensiya" va "ijtimoiy vakolat") ajratib ko'rsatdi. Tuyg'ular va inson tafakkurining o'zaro bog'liqligi muammosini o'rganishda chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik uchun amerikalik psixologlar P. Salovey va J. Mayer 1990-yilda o'z tadqiqotlari taxlilida ushbu qobiliyat "hissiy aql" tushunchasini tashkil qiladi deb taxmin qilishdi. Mualliflarning o'zlarini emotsional intellektni o'zlarining va boshqalarning his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularini kuzatib borish, ularni ajratib ko'rsatish va fikrlash va harakatlarga rahbarlik qilish uchun ushbu



ma'lumotdan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga olgan ijtimoiy aqlning pastki tuzilishi deb hisoblashadi [5].

Tadqiqotchilarning emotsiyal intellektga bo'lgan e'tiborlari uning ijtimoiy va boshqa ijobiy xulq-atvor uchun zaruriy shart ekanligi va uning rivojlanishi shaxslararo o'zaro munosabatlarni optimallashtirish bilan bog'liq. Yuqori hissiy intellekt ota-onalar va bolalar o'rtasidagi iliq munosabatlarni va hissiy jihatdan muvaffaqiyatli oilaviy munosabatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, hissiy intellekt antisosial xatti-harakatlar, tajovuzkor namoyon bo'lish, shavqatsizlik, bezorilik va giyohvandlik, chekish kabi xulq-atvor muammolari bilan salbiy bog'liqdir. Hissiy intellektni rivojlantirish ijtimoiy muhitga moslashishning muhim omilidir. O.I.Vlasovaning empirik tadqiqotlari natijalariga ko'ra, "hissiy jihatdan iste'dodli" odamlar jamoada osonlikcha til biriktiradilar, ko'pincha etakchi maqomiga ega bo'ladilar, yangi sharoitlarga yaxshi moslashadilar va jamiyatning ijtimoiy-psixologik iqlimini yaxshilashga hissa qo'shadilar [6].

Ushbu tadqiqotning muammoli sohasidagi ilmiy ishlarni ko'rib chiqish psixologiyada hissiy intellektni rivojlantirish imkoniyatlarini tushunishga turli xil yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Bir pozitsiyaga ko'ra, hissiy aql darajasini oshirish deyarli mumkin emas, chunki bu nisbatan barqaror qobiliyat (J. Mayer).

Shu bilan birga, hissiy bilimlarni, ya'ni hissiy aql faoliyat ko'rsatadigan ma'lumot turini olish, shu jumladan o'quv jarayonidagi faoliyatga nisbatan qulayik yaratadi. D.Golemanning fikriga ko'ra, emotsiyal intellektni rivojlantirish dolzarbdir. Ushbu pozitsiyani tasdiqlashlaridan biri bu miyaning asab yo'llari inson hayotining o'rtalariga qadar rivojlanishda davom etishi. SHu munosabat bilan hissiy rivojlanish mumkin bo'ladi, bu hissiyotlarni ongli ravishda tartibga solishda namoyon bo'ladi [6].

Ushbu nuqtai nazarni T.P.Berezovskaya, uning empirik tadqiqotlari natijalari maxsus tashkil etilgan ta'lim va tarbiya orqali emotsiyal intellektni rivojlantirish imkoniyatini yuqoriligini ko'rsatadi. Tadqiqotching ta'kidlashicha, o'qitish faoliyati bosqichida, umuman o'rta maktab o'quvchilarining hissiy imkoniyatlarini kengaytirishga, xususan, yigitlarda - boshqa odamlarning hissiyotlarini tan olish qobiliyatini va empatiyani rivojlantirishni, qizlarda - hissiy sohani



boshqarishda ixtiyorilikni rivojlantirishga yordam beradi [8]. Teatr teatri bilan maktabda o'qitish har ikki jinsdagi odamlarda androginologik psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga imkon beradi, deb taxmin qilish mumkin, bu esa keyinchalik ko'rib turganimizdek hissiy intellektning o'sishiga yordam beradi. Emotsional intellektni rivojlantirish tarafдорлари (SP. Derevianko, IS Stepanov, I.N. Meshcheryakova) emotsional kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ta'lim muassasasida maxsus mashg'ulotlar o'tkazish zarurligini ta'kidlaydilar. Bunday "hissiy tarbiya" to'g'ridan-to'g'ri o'qitish orqali ham, ma'lum bir psixologik iqlimni yaratish orqali ham, o'quv jarayoni sub'ektlarini qo'shma tadbirlarga jalb qilish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Mavjud natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bunday dasturlar ustida ishlash ruhiy salomatlikka foydali ta'sir ko'rsatadi, alkogol va chekishni kamaytirishga, ijtimoiy bo'lмаган xatti-harakatlarni kamaytiradi [9]. Biroq, ularning samaradorligi qat'iy ravishda o'lchanmagan. Qayd etilishicha, samaradorligini baholash uchun dasturlardan oldin va keyin emotsional intellekt testlarini ishlab chiqish va taqdim etish usullarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish kerak [10].

Shaxsning o'z-o'zini anglashni rivojlantirish darajasi bevosita emotsional intellektga bog'liq. Bolaning harakatlariga bevosita atrof-muhitning emotsional reaksiyalarini rivojlantirish uchun shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi, balki uning o'ziga bo'lgan munosabati va o'zini o'zi qadrlashi uchun ko'rsatma hisoblanadi. Haqiqiy o'zini anglash va o'zini o'zi qabul qilish asoslari ontogenezning dastlabki bosqichlarida, ota-onalar tomonidan bolani dastlabki dunyoni qabul qilish bilan belgilanadi.[11] Shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichlarida o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari ham shakllanadi. SHaxsiy darajada o'z-o'zini boshqarish uchta asosda amalga oshiriladi:

- Semantik
- Shaxsiy shakllanishlar
- Ruhiy holatlar.

Ruhiy holatlarni o'z-o'zini boshqarish o'zini o'zi boshqarish bilan bevosita bog'liqdir. SHaxsiy o'zini o'zi boshqarishning butun tizimi o'z-o'zini anglashning rivojlanish darajasiga asoslangan [12]. Boshqacha qilib aytganda, o'z-o'zini anglashning rivojlanish darajasi o'z his-tuyg'ularini boshqarish uchun zaruriy shart bo'lib xizmat qiladi.



Oʻz-oʻzini hurmat qilish va oʻzini oʻzi boshqarish jarayonlari insonning emotsiyal kompetentsiyasiga boʻlgan ishonchga asoslanadi. Ushbu konstruktsiya ijtimoiy taʼlim jarayonida shakllanadigan shaxs imidjiga bogʼliq.

Ota-onalarning maʼlumot darajasi qanchalik baland boʼlsa va oilaning daromadi qanchalik baland boʼlsa, oʼspirinlarda hissiy aqlning koʼrsatkichlari shunchalik yuqori boʼladi.[13]. D.Golemanning optimistik pozitsiyasiga asoslanib, ota-onalar tomonidan mansab va moddiy yutuqlarga erishish yuqori darajadagi emotsiyal intellektning natijasi deb taxmin qilish mumkin; bu holda, tegishli boyilliklarni ularning farzandlari meros qilib olishlari mumkin. SHu bilan birga, yuqori darajadagi maʼlumotga ega boʼlgan odamlar oʼzlarini bilish va oʻzini rivojlantirishga koʼproq vaqt ajratishlari mumkin, shu bilan birga ularning farzandlari emotsiyal va intellektual jihatdan rivojlanadi ". Bundan tashqari, bolaning emotsiyal intellektini rivojlanishiga ota-onalar oʼrtasidagi hissiy jihatdan muvaffaqiyatli munosabatlar ham bevosita taʼsir etadi. Bolaning hissiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish asosan turmush oʼrtoqlar oʼrtasidagi munosabatlarning xususiyatiga, ota-onalarning oilaviy hayotdan qanchalik qoniqish hosil qilishiga bogʼliq. AQShda olib borilgan tadqiqotlar shuni koʼrsatdiki, oilaviy hayotidan qoniqadigan odamlarda emotsiyal intellekt qiymatlari qoniqmaganlarga nisbatan ancha yuqori boʼlgan. Bu ustuvor yoʼnalish oila boʼlib, unda ular bir-birlarining tajribalariga tobora koʼproq eʼtibor berishadi va koʼpincha hissiy muammolarni muhokama qilishadi. SHunday qilib, yuqori emotsiyal intellektga ega boʼlgan ota-onalar oilaviy munosabatlar uchun uygʼun sharoitlarni yaratishga qodir, bu esa oʼz navbatida oʼz farzandlarining emotsiyal intellekti rivojlanishini belgilaydi.

Agar ota-onalar hissiy muammolarni muhokama qilishga moyil boʼlsa, demak, bu bolaning his-tuygʼularini yaxshiroq tushunishga va oʼzini oʼzi boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Turli xil oilalarda "samimiy suhbatlar" zaruriyati va chastotasi haqidagi tasavvurlar turlicha. Shu bilan birga, miqdordan sifatga oʼtishning aniq tendentsiyasi mavjud: onalar oʼz farzandlari bilan har xil emotsiyal holatlarni qanchalik tez-tez muhokama qilsalar, olti yoshga toʼlgan bolalar shunchalik omadsiz kattalarning hissiy namoyonlariga moslashadilar.



Shunday qilib, hissiy jihatdan farovon oilada maxsus taʼlim strategiyasi ishlab chiqiladi, uning tamal toshi bola hayotidagi xatti-harakatlar va voqealarga emas, balki uning tajribalariga asoslanadi.

Maʼlumki, voyaga etgan erkaklar va ayollar oʼrtasidagi hissiy farqlarning shakllari dastlab bolalarni tarbiyalashga turli xil yondashuvlar bilan belgilanadi. Qizlar va oʼgʼil bolalarning ijtimoiylashuvidagi farqlar ota-onalarning ongsiz ravishda bolalarni tegishli gender rollarini bajarishga tayyorlashga boʼlgan istagi bilan belgilanadi. Jinsiy farqlar, avvalo, ayollarda hissiy intellekt koʼproq darajada shaxslararo munosabatlar darajasida, erkaklarda esa hissiy intellektning intrapersional darajasida namoyon boʼlishi bilan belgilanadi.

Yuqori darajadagi Emotsional intellekt insonga shaxsiy va kasbiy rejallarda yanada samarali ishlab chiqish, stressni boshqarish va boshqalar bilan samarali aloqa oʼrnatish imkonini beradi. Uni rivojlantirish ustida ishslash hech boʼlmaganda baʼzi ongsiz harakatlarimizni kelib chiqishini tushunishga oʼrgatadi. Emotsional intellektni rivojlantirishda quyidagi omillarni xisobga olish maqsadga muvofiq.

1. Shaxs oʼzining hissiy reaktsiyalariga eʼtibor berishi atrofidagi boʼlayotgan narsalarga va hissiy darajada ushbu hodisalarga nisbatan oʼzining hissiy kechinmalarini tushunishga harakat qiliishi zaruriyligi.

2. Har bir shaxs his-tuygʼularini va harakatlari bir biri bilan qanday bogʼliqligini oʼrganish lozim. Gʼazab bizni ovozimizni koʼtarishga majbur qiladi, xijolat tortish bizni xira qiladi. Bu faqat eng aniq misollar, ammo his-tuygʼular va xatti-harakatlar oʼrtasidagi bogʼliqlikni tushunganingizda, ular bilan qanday munosabatda boʼlishni oʼrganamiz va ularni oʼz faoliyatimizda ishlatalamiz.

3. Tuygʼularni nazorat kilish va boshqarish. negativ xolatlarga nisbatan emas, ammo shu hissiyotlar ijobiy boʼladigan xolatlarga etarli darajada munosabat bildiriladi. His-tuygʼularni tahlil qilish, undan chiqish yoʼlini qidirish va shaxs oʼzidagi haqorat va qaygʼularni hech qachon yashirmasligi kerak.

4. Tana tilini tinglash. Tuygʼularningjismoniy koʼrinishini anglash. Inson ongi va tanasi bir-biri bilan chambarchas bogʼliq va bu aloqani tushunishni oʼrganib, boshqalarning his-tuygʼulari va tajribalarini osongina "oʼqish"imkoniyatiga ega boʼladi. Refleksiv xolatning mavjudligi.



6. Emotsional xotirani rivojlantirish. Maxsus kundalik saqlash va unda hissiy reaktsiyalarni yozib borish. Vaqt o'tishi bilan uni qayta ko'rish, kelgusi xatti-harakatlarni to'g'rilashga asos bo'ladi.

Emotsional intellekt rivojlanish usullari;

- Guruh mashg'ulotlari
- SHaxsiy mashg'ulotlar
- Murabbiylit
- Bolalarni oilaviy-jamoa bolalar markazlarida o'qitish
- Oilaviy tarbiya

Biz ishonamizki, emotsional intellekt - bu qobiliyatlar to'plami, ammo boshqa shaxsiy xususiyatlar emas, chunki bu kommunikatsiya jarayoni bo'lgan har xil turdag'i faoliyatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirishning yuqori darajasiga erishishga imkon beradigan qobiliyatdir.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yuxati:**

1. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии. [Текст] - СПб.: Питер, 1999.-612 с.
2. Врис, М. Кетоде. Мистика лидерства. Развитие эмоционального интеллекта. [Текст]□ М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. -312 с.
3. Гарберр Е.И. Козача, В.В. Методика профессиографии [Текст]. .Саратов, 1992.
4. Митина, Л.М. Психология развития конкурентоспособной личности. - 2-е изд., стер. [Текст] - М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2003. - 400с. - (Серия «Библиотека психолога»).
5. Salovey P., Mayer J.D. Some final thoughts about personality and intelligence // Stenberg J., Ruzlis P. (eds). Personality and Intelligence. Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
6. Власова, О.І. Психологія соціальних здібностей: структура, динаміка, чинники розвитку: Монографія [Текст]. -К.: «Київський університет», 2005.
7. Эмоциональный интеллект: статьи, тесты, тренинги. [Текст] - М., 2008; <http://www.eq-rating.ru/content/view/37/2/>



8. Березовская.П. Психологические есобенности имоционального онтеллекта старшеклассников [Текст]// Когнитивная психология: сб.ст. / Под ред. А.П. Лобанова, Н.П. Радчиковой. Мн.: БГПУ, 2006. С. 16-20.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]  
[AUTHORS INFO]**

*Qodirova Odina Djurabayevna*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Manzil:, Andijon, Universitet ko'chasi 129-uy*

*qodirova [1984@gmail.com](mailto:1984@gmail.com)*



## QO’RIQLASH XIZMATI XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLIGI KORRELYATSIYASI



*Maxmudova Zulfiya Mexmonovna  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada qo’riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o’ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash mexanizmlari olib berilgan.

**MAQSAD:** qo’riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo’llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy



dunyoqarashi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga sadoqat va yuqori mas'uliyat xislarini oshirish yuzasidan tadqiqot natijalari asosida tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi.

**XULOSA:** O'rganilgan empirik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar

## СООТНОШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕРСОНАЛА СЛУЖБЫ ОХРАНЫ

### Аннотация:

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической и коммуникативной компетентности сотрудников служб безопасности и совершенствование ее специфических социально-психологических факторов, а также социально-психологических факторов и компонентов, развивающих социально-психологическую



компетентность. раскрыты механизмы выявления коммуникативной компетентности работника.

**ЦЕЛЬ:** совершенно новые задачи морального и духовного обеспечения всех сотрудников и военнослужащих, проходящих службу в системе службы безопасности, а также повышения общего кругозора, морального и интеллектуального потенциала сотрудников, привития им патриотизма, гордости, гордости, верности своей профессии и Он заключается в разработке рекомендаций по результатам исследования по повышению чувства высокой ответственности.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В процессе изучения структуры компетентности и категорий компетентности можно выделить несколько направлений. Многие авторы оценивают функциональный подход как перспективный, а также считают, что компетентность проявляется в профессиональной деятельности и одновременно является ее основой. В данном случае под компетентностью понимают систему трудовых ресурсов, необходимых для создания эффективного действия в конкретных рамках процесса.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** На основании изученных эмпирических результатов отмечено, что психологические факторы, влияющие на социально-психологическую компетентность сотрудников служб безопасности (в зависимости от стажа работы), могут быть различными. На основе выявления этих факторов будет проведен определенный уровень психологических анализов для устранения существующих проблем в повышении социально-психологической компетентности сотрудников служб безопасности и на основе результатов этого анализа будут определены следующие задачи оказания психологических услуг. им будет определено.

**Ключевые слова:** компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения и компетенции, профессиональные психологические характеристики.



## CORRELATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PROTECTIVE SERVICE PERSONNEL

**Annotation.**

**INTRODUCTION:** This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of socio-psychological and communicative competence of security service employees and the improvement of its specific socio-psychological factors, and the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence and communicative competence of the employee. detection mechanisms are disclosed.

**AIM:** completely new tasks of moral and spiritual support of all employees and military personnel serving in the security service system, as well as raising the general outlook, moral and intellectual potential of employees, instilling in them patriotism, pride, pride, loyalty to their profession and It consists in developing a recommendation based on the results of the research on increasing the sense of high responsibility.

**MATERIALS AND METHODS:** In the process of studying the structure of competence and competence categories, several directions can be distinguished. Many authors evaluate the functional approach as promising, and they also believe that competence is manifested in professional activity, and at the same time, it is also its basis. In this case, competence is understood as a system of work resources necessary to create effective action within the specific framework of the process.

**CONCLUSION:** Based on the studied empirical results, it was observed that the psychological factors affecting the socio-psychological competence of security service employees (depending on the work experience) can be different. Based on the identification of these factors, a certain level of psychological analyzes will be conducted to eliminate the existing problems in increasing the social and psychological competence of security service personnel, and based on the results of this analysis, the next tasks of providing psychological services to them will be determined.

**Key words:** competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, competence, professional activity, professional knowledge, skills and competencies, professional psychological characteristics.



*Qo’riqlah xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, qo’riqlah xizmati xodimlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta’siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.*

Psixolog qo’riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo’llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiyl duniyoqarashi, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g’urur, iftixon, kasbiga sadoqat va yuqori mas’uliyat xislarini oshirish bilan boylash vazifalarni belgilab beradi.

Xodimlarni ahloqiy-ruhiy qo’llab-quvvatlash psixodiagnostika, psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlarida amalga oshiriladi.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o’rganish jarayonida bir nechta yo’nalishlarni ajratib ko’rsatish mumkin. Ko’pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo’ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo’lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo’naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko’nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiyl jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko’rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o’qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya’ni ta’lim oluvchining ta’lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.



Chunonchi, mehnat foliyatining barcha jihatlari uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirot etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya'ni motiv, bilim, ko'nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko'rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

A.V.Xutorskiyning o'tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o'ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikka qo'yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta'kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko'nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

- 1) kategoriylar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);

- 2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish malaka va ko'nikmalar tizimi. Yuqoridaq ikkala yo'nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo'limganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to'laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta'kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatda qanaqadir turg'unlik bo'lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to'siq bo'lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:



a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni echa olish, tartib-intizom talablari va o'ziga xos bo'lgan me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensianing asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyatda qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy reguliyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko'rilib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lish holatlarida o'zini-o'zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekpertizasi jarayonida o'z bilim, ko'nikma va malakalarini samarali qo'llash sud psixolog xodimidan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud psixolog xodimlarining kommunikativ kompetentligiga aloqador bo'lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, sud psixolog xodimlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko'rsatadi:

- shaxs refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, refleksiv (o'z tushunchasi va hatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;

- asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo'llarini egallash;



- bilish faollik darajasining o’zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo’llash ko’nikmasi;
- kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darjasи;
- samarali kasbiy faoliyat ko’nikmalarini o’zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;
- ularni o’z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo’llarini topishga intilish;
- anglashning faollik darjasи.

Bizningcha, muallifning mazkur ta’rifida o’ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e’tibor qaratadi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning quyidagi asosiy jihatlariga alohida ahamiyat beriladi:

- a) ijtimoiy – o’ziga mas’uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;
- b) kommunikativ – turli tillardagi yozma va og’zaki tarzda muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;
- c) ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;
- d) kognitiv – doimiy ravishda ta’lim olish darajasini oshirishga intilish, o’zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo’lgan ehtiyoj, ya’ni bilim va ko’nikmalarni mustaqil egallash, o’zini-o’zi rivojlantirish qobiliyati;
- e) madaniyatlararo kompetensiyalar;
- f) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;
- j) maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o’z mehnati natijalarini baholash.

Yuqorida qayd etilgan ishlarda kompetentlik mezonlari umumilmiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va umumkasbiy bilimlar asosida talqin etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash kerakki, kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarni ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili sifatida talqin qilish an’anasi ham mavjud.

Jumladan, psixologiya fanining fundamental asoslarini ochib bergen olimlardan E.F.Zeer va G.M.Romansevlarning metodologik xizmati shundaki, malaka insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga



qo'yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi ekanligini isbotlab berishganligidadir.

Shunday qilib, malaka ham kompetentlik kabi asosiy va kasbiy bo'lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko'pincha oddiy malakalar deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar sifatida quyidagilar kiritiladi:

- shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunktional bilimi, ko'nikmalari, individual xususiyalari;
- aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko'nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatları va sifatlari;
- turli jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va qobiliyatlar.

### 1-jadval

#### Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili (n=102)

Omillar		besh-yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar	besh-yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlar		Farq (% hisobida)	
			n <sub>1</sub> -41			
			n	%		
«A» omil	Muloqotchan	16	39,01	40	65,6	±26,5
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	60,9	21	34,4	
	Jami	41	100	61	100	
«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	19	46,3	33	54,1	±7,8
	Zaif fikrlaydigan	22	53,6	28	45,9	
	Jami	41	100	61	100	
«C» omil	Barqaror	13	31,7	43	70,5	±38,8
	Beqaror	28	68,3	18	29,5	
	Jami	41	100	61	100	
«D» omil	Optimizm	16	39,01	34	55,7	±16,6
	Pessimizm	25	60,9	27	44,3	
	Jami	41	100	61	100	



«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	34,1	38	62,3	±28,2
	Realist	27	65,9	23	37,7	
	Jami	41	100	61	100	
«N» omil	Oʼzini nazorat qila oladigan	19	46,3	45	73,8	±27,5
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	22	53,7	16	26,2	
	Jami	41	100	61	100	
«M» omil	Oʼziga yoʼnalgan	18	43,9	28	45,9	±2
	Oʼzgalarga yoʼnalgan	23	56,1	33	54,1	
	Jami	41	100	61	100	
	Jami	41	100	61	100	

“Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi” metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko’ra “A” omil bo’yicha “muloqotchanlik” besh-yilgacha ish stajiga ega bo’lgan xodimlarga nisbatan besh-yildan ortiq ish stajiga ega bo’lgan xodimlarda 65,6% (+26,5%) ni, aksincha, muloqotga kirishishga qiynalish 34,4 % (-26,5%) tashkil qildi. Ko’rinib turibdiki, sud psixolog xodimi faoliyati ish staji va tajribasining ortib borishi bilan bog’liq omil hisoblanadi. “B” omil bo’yicha “mantiqiy fikrlash” darajasi besh-yil stajga ega bo’lganlarga nisbatan besh-yildan ortiq ish stajiga ega bo’lgan xodim 54,1% ni (+7,8%), “zaif fikrlash darajasi” esa besh-yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo’lgan sud psixolog xodimlarda 53,6% ni (-7,8%) ko’rsatdi. Lekin bu omil bo’yicha besh-yil va besh-yildan ko’p ish stajiga ega bo’lgan xodimlar ko’rsatkichlari o’rtasidagi farq oralig’i ( $\pm 7,8$ ) keskin tafovut qilmaganligini ko’rishimiz mumkin. “Mantiqiy fikrlash” qobiliyati sud psixolog xodimi faoliyati uchun muhim jihat hisoblanib, bu qobiliyat-yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunda bevosita intellektual rivojlanish jarayonning roli beqiyosdir. “Barqarorlik” va “beqarorlik” omillari bo’yicha ham besh-yildan ortiq 70,5%, beqarorlik esa besh-yilgacha 68,3% ni ( $\pm 38,8$ ) tashkil etdi. Bundan ma’lum bo’ldiki, barqaror ijtimoiy munosabatlar-yillar davomida taraqqiy qiladi. Keyingi mezon, ya’ni, “optimizm” va “pessimizm” omili bo’yicha besh-yilgacha optimizm 39,01% ni, “pessimizm” esa besh-yilgacha ish tajribasiga ega bo’lgan sud psixolog xodimlarda 60,09 % ni tashkil etdi. Optimizm, ya’ni



yuqori kayfiyatda atrofdagilar bilan munosabatga kirishish 5 dan ortiq ish tajribasiga ega boʻlgan sud psixolog xodimlarda ustun boʻlsa, pessimizm – yaʼni kayfiyatdagи oʼzgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar besh-yilgacha ish tajribasiga ega boʻlgan psixologlarda yuqori oʼrin egallashi aniqlandi ( $\pm 16,6\%$ ).

“K” omili boʼyicha “ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi” besh-yilgacha 34,1 % ni, realistlar esa 65,9 % ni tashkil qildi. Bundan koʼrinib turibdiki, muloqot qilish davomida besh-yilgacha realistik tafakkur besh-yildan ortiq ish stajiga ega boʼlganlarda esa voqealarga kreativ yondashish, erkin munosabat bildira olish va tahlil qilish kabi sifatlar rivojlanar ekan.

Keyingi omil boʼyicha “Oʼzini nazorat qila olish” omili besh-yilgacha 19 nafar shaxsda 46,3 % ni, “Oʼzini nazorat qilishda qiynalish” esa besh-yildan ortiq stajlilarda 45 respondent ishtirokida 73,8 % da namoyon boʼldi. Soʼnggi omil boʼyicha tahlil qilinganda “oʼziga yoʼnalganlik” besh-yildan ortiqish stajiga ega boʼlgan 28 nafar respondent ishtirokida 45,9%ni “oʼzgalarga yoʼnalganlik” 23 nafar respondent bilan besh-yilgacha 56,1%ni tashkil qildi. Unga koʼra kommunikasion muomala jarayonida oʼziga boʼlgan munosabatning ustunligi besh-yildan ortiq vaqt ichida toʼliq shakllanadi, ungacha esa oʼzgalarga yaʼni ijtimoiy muhitga eʼtibor bevosita ustunlik qiladi. Ushbu tahlillar 1-jadvalda yanada aniqroq oʼz aksini topgan.

Demak, oʼrganilgan empirik natijalar asosida qoʼriqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga taʼsir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli koʼrinishda boʼlishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qoʼriqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud boʼlgan muammolarni bartaraf etish boʼyicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat koʼrsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʼyxati

- Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Oʼsmirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.



2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiyl psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'.O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Maxmudova Zulfiya Mexmonovna  
 Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
 Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri  
[azizbekyarasev@mail.ru](mailto:azizbekyarasev@mail.ru)  
 ORCID: 0000-0001-9437-9741*



ЎСМИРЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ ВА КОПИНГ  
ХУЛҚ-АТВОР ОМИЛЛАРИ НАМОЁН  
Бўлишининг ижтимоий-психологик  
хусусиятлари



Остонов Жасур Шопиржонович,  
Бухоро давлат педагогика институти, Бухоро шаҳри

**Аннотация.**

**КИРИШ:** Ушбу мақолада ўсмирилик даврида копинг хулқ-атвор фаол шаклланиш босқичида бўлиб, психологик фаровонлик, саломатлик ва муваффақиятнинг муҳим асоси эканлиги тўғрисида фикр юритилган.



**МАҚСАД:** Тадқиқотнинг вазифаси мавзуга оид чет эл олимларининг тадқиқотларини ўрганиш ва таҳлил қилиш, шунга мувофиқ илмий тадқиқот методларини танлаш ва тадқиқот олиб боришдан иборат. Алоҳида таъкидлаш жоизки, шахслар ўзларининг маълум доирадаги психологияк имкониятлари, ютуқлари, камчиликлари ҳақида етарли маълумотга эга бўлсалар, бу уларнинг ҳаётда учрайдиган ҳар қандай муваффақиятсизликларни осонлик билан бартараф этишга, ўз имкониятларидан янада кенгроқ фойдалана олишга, бир сўз билан айтганда, ўзлари ҳақида янада теран, ижобий ва ўзига хос ижтимоий қийматга эга бўлган тасаввурларнинг шаклланишига кенг имкониятлар яратади.

**МАТЕРИАЛЛАР ВА МЕТОДЛАР:** Экстремал вазиятларда психологик ҳимоя методологиясини талқин этишда инсоннинг ҳиссий ҳолатини тушуниш ва унинг ўз меҳнати маъсулларидан ижтимоий маъсулият жараёнини таҳлил қилиш ва ривожлантиришга бағишлиланган айрим тадқиқотларнинг ўрни ва истиқболига ҳам алоҳида эътиборни қаратиш лозим, деб ўйлаймиз. Масалан, Ф.Херстберг ва унинг издошлари томонидан меҳнат фаолиятини ташкил этишдаги эмоциоген фарқланиш механизmlари тадқиқ қилишди. Мазкур изланиш маъсулига қўра, меҳнат фаолиятини ташкил этишда ижодийлик, мустақиллик, ўзини ўзи билиш, ривожлантиришга қаратилган тадбирларга эътибор берилса, шахс фаолияти унумдорлигига ижобий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларни ва аксинча, фақат техник жараёндангина иборат бўлган меҳнат шароити яратилса, шахс фаоллигига салбий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларнинг намоён этилиши кузатилади.

**ХУЛОСА:** Умуман, шахсдаги хавотирланиш хусусиятлари ва психологик ҳимоя имкониятлари мутаносиблигининг ўртача умумий ва қиёсий типик кўрсаткичлари таҳлил қилинганда 9 синф ўқувчиларига нисбатан 5 синф ўқувчиларида ҳам шахсий, ҳам реактив хавотирлик даражаси ҳам юқори эканлигини кўрсатади.

**Калит сўзлар:** копинг-хулқ, копинг-стратегия, ўсмирлик ёши, фактор таҳлил.



## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОТСУСТВИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ И СПРАВЛЯЮЩИХ ПОВЕДЕНЧЕСКИХ ФАКТОРОВ У ПОДРОСТКОВ

### **Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье утверждается, что в подростковом возрасте совладающее поведение находится в активной стадии формирования и является важной основой психологического благополучия, здоровья и успеха.

**ЦЕЛЬ:** Задачей исследования является изучение и анализ исследований зарубежных учёных по данной теме, соответствующий выбор методов научных исследований и проведение исследований. Отдельно следует отметить, что если индивиды будут обладать достаточной информацией о своих психологических возможностях, достижениях и недостатках в определенной области, это поможет им легко преодолевать любые неудачи в жизни, шире использовать свои возможности, словом, иметь более глубокий, более позитивный взгляд на себя и создает широкие возможности для формирования воображения, имеющего уникальную социальную ценность.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** При интерпретации методологии психологической защиты в экстремальных ситуациях, мы считаем, необходимо обратить особое внимание на роль и перспективу некоторых исследований, посвященных пониманию эмоционального состояния человека, анализу и развитию процесса социальной ответственности из ответственности. своей собственной работы. Например, Ф. Херстберг и его последователи изучали механизмы эмотогенных различий в организаций труда. По результатам данного исследования, если в организаций трудовой деятельности уделяется внимание деятельности, направленной на творчество, самостоятельность, самопознание, развитие, эмоциональные переживания, которые положительно влияют на продуктивность деятельности личности, и наоборот, если создаются условия труда, состоящие только из технических процессов, наблюдаются эмоциональные переживания, отрицательно влияющие на деятельность личности.



**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** В целом анализ средних общих и сравнительно-типовидных показателей характеристик тревожности личности и соотношения возможностей психологической защиты показывает, что уровень как личностной, так и реактивной тревожности выше у пятиклассников по сравнению с девятиклассниками.

**Ключевые слова:** копинг-поведение, копинг-стратегия, подростковый возраст, факторный анализ.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE ABSENCE OF PSYCHOLOGICAL PROTECTION AND COPING BEHAVIORAL FACTORS IN ADOLESCENTS

### **Annotation.**

**INTRODUCTION:** This article argues that during adolescence, coping behavior is in an active formative stage and is an important foundation for psychological well-being, health, and success.

**OBJECTIVE:** The task of the research is to study and analyze the researches of foreign scientists on the subject, to choose scientific research methods accordingly and to conduct research. It should be noted separately that if individuals have sufficient information about their psychological capabilities, achievements, and shortcomings in a certain area, this will help them to easily overcome any failures in life, to use their capabilities more widely, in a word, to have a deeper, more positive view of themselves. and creates ample opportunities for the formation of imaginations with a unique social value.

**MATERIALS AND METHODS:** In interpreting the methodology of psychological protection in extreme situations, we think that it is necessary to pay special attention to the role and perspective of certain studies dedicated to understanding the emotional state of a person and analyzing and developing the process of social responsibility from the responsibility of his own work. For example, F. Hurstberg and his followers studied the mechanisms of emotogenic differences in the organization of work. According to the results of this research, if in the organization of labor activity attention is paid to activities aimed at creativity, independence, self-knowledge, development, emotional experiences that positively affect the productivity of the individual's activity, and on the contrary, if working



conditions consisting of only technical processes are created, emotional experiences that negatively affect the individual's activity is observed.

**CONCLUSION:** In general, the analysis of the average general and comparative typical indicators of personality anxiety characteristics and the ratio of psychological protection possibilities shows that the level of both personal and reactive anxiety is higher in 5th graders compared to 9th graders.

**Key words:** coping-behavior, coping-strategy, adolescence, factor analysis.

*Психологик ҳимоя қилиш муаммоси ҳамиша инсоният олдида турган энг долзарб муаммолардан бири бўлиб келган. Зеро, инсоннинг ҳар жиҳатдан ижтимоий тараққиёти, шахс сифатидаги фаоллиги ва ўзини ўзи ривожлантира бориши кўп жиҳатдан ушбу жараёнга bog'лиkdir.*

Алоҳида таъкидлаш жоизки, шахслар ўзларининг маълум доирадаги психологик имкониятлари, ютуқлари, камчиликлари ҳақида етарли маълумотга эга бўлсалар, бу уларнинг ҳаётда учрайдиган ҳар қандай муваффақиятсизликларни осонлик билан бартараф этишга, ўз имкониятларидан янада кенгроқ фойдалана олишга, бир сўз билан айтганда, ўзлари ҳақида янада теран, ижобий ва ўзига хос ижтимоий қийматга эга бўлган тасаввурларнинг шаклланишига кенг имкониятлар яратади.

Зеро, бу жараёнда энг аввало таълим-тарбия тизими, унинг мазмун-моҳияти, таълим тизимини такомиллаштиришга хизмат қилувчи экстремал вазиятларда шахс психологик ҳимояси тамоилилар муҳим аҳамият касб этади.

Республикамизда ўзига хос изчиллик билан амалга оширилаётган барча ислоҳотларнинг туб марказида шахс ва унинг ижтимоий тараққиётини таъминлашга қаратилган қатор чоратадбирлар ётадики, бу жараёнда психологик ёндашувлар муҳим аҳамият касб этади. Зеро, ҳар бир шахс тезкор вазият муҳит билан боғлиқ ўзига хос психологик имкониятларига етарлича баҳо бермай туриб шахснинг тараққиётига ҳозирги замон талабларига мос натижা кўрсатиш жуда мушкулдир.



Тадқиқотнинг вазифаси мавзуга оид чет эл олимларининг тадқиқотларини ўрганиш ва таҳлил қилиш, шунга мувофиқ илмий тадқиқот методларини танлаш ва тадқиқот олиб боришдан иборат.

Тадқиқот методлари: Ч.Д.Спилберг томонидан яратилган “Реактив ва шахсий хавотирлик шкалаларини ўрганувчи методика”си, Риксс-Усманнинг “Ўз-ўзини ҳиссий баҳолаш” методикаларидан фойдаланилди.

Экстремал вазиятларда психологияк ҳимоя методологиясини талқин этишда инсоннинг ҳиссий ҳолатини тушуниш ва унинг ўз меҳнати маъсулларидан ижтимоий маъсулият жараёнини таҳлил қилиш ва ривожлантиришга бағишлиланган айрим тадқиқотларнинг ўрни ва истиқболига ҳам алоҳида эътиборни қаратиш лозим, деб ўйлаймиз. Масалан, Ф.Херстберг ва унинг издошлари томонидан меҳнат фаолиятини ташкил этишдаги эмоциоген фарқланиш механизmlари тадқиқ қилишди. Мазкур изланиш маъсулига кўра, меҳнат фаолиятини ташкил этишда ижодийлик, мустақиллик, ўзини ўзи билиш, ривожлантиришга қаратилган тадбирларга эътибор берилса, шахс фаолияти унумдорлигига ижобий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларни ва аксинча, фақат техник жараёндангина иборат бўлган меҳнат шароити яратилса, шахс фаоллигига салбий таъсир этувчи ҳиссий кечинмаларнинг намоён этилиши кузатилади. Дарҳақиқат, фаолиятнинг бажарилишига нисбатан ижобий-ҳиссий кечинмалар шакллантирилмас экан, фаолият маъсули ҳам инсоннинг ўз фаолиятидан ижтимоий маънодаги қониқиши ҳам нихоятда паст савияда бўлади. Экстремал вазиятларда психологияк ҳимоя жараёни эса худди ана шу эрда ўз таъсирини, яъни фаолиятдан ижтимоий қониқиши жараёнини маълум даражада юқори савияга кўтара олиш санъатини кўрсатиши лозим.

Таниқли психолог Иван Огнев томонидан қўйидаги тизим асосида шахснинг психологияк ҳимоя механизmlари тавсия қилинади.



Ҳимоя механизмлари	Мазмуни
Тажовузкорлик	Индивиднинг унга паст баҳо берган, ўзи ҳақидаги тасаввурига иккиланишга сабабчи шахсга бўлган реакция
Ўйлаш	Ноҳуш ҳиссиёт, ҳис-туйғуларнинг бир объектдан талабга мувофиқ бўлмаган бошқа объектга кўчирилиши
Тасаввур	Ўзининг ҳиссиёти, истак-хоҳишлари ва хусусиятларини ўзи билмаган ҳолда бошқа кишида кўриши
Идеаллаштириш	Ўзини “идеаллаштириш” ўз хатоларини, камчиликларини тан олмаслик
Унутиш	Шахснинг ёқтирмаган, ноҳушликларини унутиши: одамларнинг тимсоли, исми, мулоқот вақтида ноҳуш ёқимсиз хотираларнинг эста тушурилиши каби ҳолатлар ва ҳоказо
Инкор этиш	Индивиднинг воқеа ва ҳодисаларни инкор этиши ва у ҳақдаги билимларини “мен бу ҳақда ҳеч нимани билмасдим”, “бу меники эмас”, “менга шундай айтдилар”, “мен бундай айтмаган эдим” кабилар билан чегараланиши.
Дискредитасія	Хабар манбаларининг паст баҳолаш “мен-тимсол”, “ҳамма гапирса ҳам, сен гапирма”, “ким ҳакам?” каби гаплар билан шахсни камситиш ва унга паст баҳо бериш
Идентификация	Ўзини бошқа одам билан ва намунали хулқ-атворга эга гуруҳ билан солиштириш ўз хулқ-атвори ва муносабатини атрофдагилар билан таққослаб, ҳаёт тарзини енгиллаштириш
Конверсия (ўзгармоқ)	“Мен”лиги юқорилигини сақлаб қолиб ўзига ноҳуш ҳолатларни, вазиятларни ҳазилга ёяди ва муомалада бўлади ҳамда берилган танбеҳларни ҳазил деб қилин қиласди.

Ушбу психологияк ҳимоя механизмларининг берилиши орқали муаллиф шахс хулқ-атвори формаларида ташқи (атроф) муҳитдан ва тажовузкорлиқдан ўзини ўзи ҳимоя қилиш ҳолатларини илмий жиҳатдан тадқиқ қиласди.

Шахснинг психологияк ҳимоя механизмлари айрим низоларнинг субъектив сабабларига бевосита таъсир этиши



мумкин. Шахснинг шахсий ёки гурухий эҳтиёжларини амалга оширишга йўл қўймаслик ва шахсий ёки гурухий қизиқишиларини поймол қилиш каби сабаблар низоли вазиятларни вужудга келтиради. Кўпинча жамоада инкор қилинган хулқ-атвор формалари, ижтимоий шаклланиб бориши билан индивид реакцияси аниқланади. Бундан ташқари, индивиднинг низоларга иштироки, унинг олдига қўйган мақсадини амалга ошириш учун юзага келган тўсик қай даражада халақит бериши билан аниқланади. Субъект олдига қўйган мақсади қанчалик муҳим бўлса ва унга эришишни жуда хоҳласа, у шунчалик даражада қатъийлик билан ўзаро низоли вазиятларга ва унга халақит берувчи шахста қаршилик кўрсатади.

Бинобарин, чет эл илғор психологиясида кийин вазиятларда психологик ҳимоя методологияси учун муҳим ўрин тутувчи қуидаги йўналишларга асос солинди:

1. Ч.Сирмен томонидан “икки омил” назарияси яратилди. Бу назарияга мувофиқ инсоннинг ҳар бир фаолиятида барча фаолиятлар учун умумий бўлган (1-омил) ва айнан мазкур фаолиятга мос бўлган (2-омил) барча хусусиятлар ўзаро боғлиқлиқда тадқиқ қилинади. Тадқиқотчи ушбу омилларнинг инсон ва фаолият уйғулигини таъминлаш учун зарур бўлган психологик моҳияти ва мазмунини очиб беради.

2. Л.Терстоун, Дж.Гилфорд томонидан яратилган “Мултифактор” назариясига биноан бирламчи ақлий қобилияtlар (идрок тезлиги, хотира ассоциатсиялари ва ҳоказо) нинг ҳар бир индивидда таркиб топганлик кўлами тадқиқ қилинди ва шу асосда ҳар бир шахс фаолиятига алоҳида ёндашувни тақозо этувчи экстремал вазиятларда психологик ҳимоя муҳофазанинг методологик принциплари ишлаб чиқилди. Умуман, психологияда индивидуал фарқланишининг 56 хил йўналишдаги типи маълум ва машҳур. Масалан, объектив ва субъектив тип (даставвал, А.Бине тажрибаларида қайд этилган) фикрловчи фаол тип (А.М.Джорданту бўйича), рационалистлар ва эмпириклар (У.Джемс тадқиқотлари бўйича) “чуқур-тор” ва “майдаденг” тип (Г.Гросс маълумотлари бўйича), назарий, иқтисодий, эстетик, ижтимоий, сиёсий, диний типлар (Э.Шпрангер тадқиқотлари бўйича); шизотимик ва циклотимик



типлар (Э.Кречмер тадқиқотлари бўйича); висцеротоник, соматотоник, церебротоник типлар (У.Шелдон бўйича); экстроверт ва интроверт типлар (К.Т.Юнг ва Г.Ю.Айзенк маълумотлари бўйича) ҳақидаги эмпирик маълумотларнинг қайд этилиши шулар жумла-сиданdir.

Умуман ҳимоя механизмлари тушунчасининг классик номланиши Зигмунд Фрейд томонидан киритилган бўлсада, Анна Фрейд ўзининг “Мен ва ҳимоялаш механизмлари” номли илмий тадқиқотида З.Фрейд ғояларини ривожлантириди. Бу ютуқ, айниқса, психолигик антропология ва этнопсихология соҳасида янги қирраларни очди. Аниқроғи, Анна Фрейд ҳимоя механизмлари инстинкт талабларини инкор этишни эътироф этди. “Психоаналитиклар К.Холл ва Г.Линдцейлар ҳам ҳимоя механизмларининг классик номланиши асосида тегишли илмий тадқиқотларни олиб борадилар.”

Экстремал ҳолат бу экстремал факторлар ва экстремал механизмлар таъсири остида инсон онгнинг ўзгариши ва уларнинг босим остидаги таъсири тушунилади. У физиологик таъсиrlаниш мослашишининг (бундай вазият жисмоний ёки кимёвий характернинг экстремал омилларининг таъсирида биринчи навбатда пайдо бўлади) ёки психолигик ва аҳлоқий таъсиrlанишни бузилиши билан тавсифланади (бу ахборотли-семантик характернинг экстремал омилларининг таъсирида кўпроқ характерлидир). Кўпроқ физиологик тизимнинг дастлабки аҳлоққа оид таъсиrlаниш динамикасига сабаб бўлиб хизмат қилган, ёки аксинча, психолигик тавсифларнинг ўзгариши физиологик силжишнинг пайдо бўлишига олиб келганда таъсиrlанишнинг аралаштирилган типи бўлиб ҳисобланади.

Экстремал вазиятларда “психолигик ҳимоя механизмлари” ва “енга олиш хулқ-атвори” муаммолари тўғрисидаги баҳслар анча оддин юзага келган бўлсада, ҳозирги кунга қадар давом этмоқда. Бу шуни англатадики, ҳимоя механизмлари ва енга олиш чегараларини белгилашда амалий ва назарий мураккабликлар юзага келади. Кўпинча мазкур жараёнлар мақсадли тарзда намоён бўлади. Шунингдек, психолигик ҳимоя ва енга олиш фел-атвори экстремал вазиятларда юзага келиб “ички низони ечиш”



функциясини амалга оширади ҳамда, онглилик ва онгсизлик ўртасидаги зиддиятда воситачи сифатида иштирок этади. Экстремал вазиятларда психологик ҳимоя ўзида: инкор этиш, ўрин алмашиш, рационаллик, тушкунлик, идентификация, катарсис ва бошқа қўплаб формаларни акс эттиради. Ҳимоя механизmlари хавотирни тугатиш ва қўрқувдан ҳалос бўлишдаги кучли мезонлари орқали ўз ишини самарали олиб боради.

Психик ҳимояни функционал вазифаси ва ёш босқичларидағи мураккабликларига қўра учга ажратиш мумкин. Улар қуидагилардан иборат:

1. Сенсор психологик ҳимоя – хулқ-атвордаги психосенсор бошқарувни амалга ошириш орқали организмда ҳимоя вужудга келади.

2. Перцептив психологик ҳимоя – перцептив психологик бошқарув йўлидан фойдаланиши натижасида индивидда ҳимоя пайдо бўлади.

3. Шахснинг психологик ҳимояси – шахснинг хулқ-атвор, фаолият ва англанган хатти-ҳаракатлар натижасида шахсда ҳимоя вужудга келади.

Шахсдаги перцептив ва сенсор ҳимоялари инсондаги биологик этиёжлари алоқаси орқали туташади. Маълумки, юқорида келтирилган ҳимоя турлари барча тирик организмлар учун характерли ҳисобланиб шахсдаги ҳимоя механизmlари инсоннинг ўзига ҳос ҳимоя структурасининг юқори кўринишидир. Унинг мақсади инсондаги шахс онтогенезда психологик ривожланиши давридаги зиддиятлар, шахслараро муносабатлардаги ўзаро алоқани сақлашга, ҳимоялашга йўналтирилган. Ушбу зиддиятларда инсон организм ёки индивид сифатида эмас балки шахс сифатида иштирок этади.

Шахсдаги перцептив ва сенсор ҳимоялари инсондаги биологик этиёжлари алоқаси орқали туташади (индивидликни сақлаган ҳолда ўзини мавжудлигини давом эттириш). Юқорида келтирилган ҳимоя турлари барча тирик организмлар учун характерли ҳисобланиб, шахсдаги ҳимоя механизmlари инсоннинг ўзига ҳос ҳимоя структурасининг юқори кўринишидир. Унинг мақсади инсондаги шахс онтогенезда психологик ривожланиши давридаги



зиддиятлар, шахслараро муносабатлардаги ўзаро алоқани сақлашга, ҳимоялашга йўналтирилган. Ушбу зиддиятларда инсон организм ёки индивид сифатида эмас, балки шахс сифатида иштирок этади.

“Копинг” сўзини кенгроқ талқин қилганда, ўзига субъектнинг барча ўзаро таъсирини акс эттириб, у ички ёки ташқи вазифалари билан характерлидир. Муаммоли вазият талабидан ишғол этиш ёки юмшатишга уриниш ўрнини четга олиш ёки мослашиш орқали амалга оширилади. Қўшимча шароитда эса ташқи ва ички вазифалар ўзида копинг тузулмасини ўзлаштириб шу орқали субъектга психологик характеристика берилади ва ундан фарқли ўлароқ унга мослашади.

Психологик ҳимоя ҳамда копинг хулқ-атвор ҳусусиятларини қиёсий ўрганиш баъзи бир муаллифлар томонидан тўғридан-тўғри ёндашилиб, копинг хулқ-атвор англанмаган ҳимоянинг англанган варианти сифатида баҳоланади. Бошқа муаллифларнинг фикрига кўра, ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор ўртасидаги алоқа анчайин мураккаб. Копинг хулқ-атвор анчайин кенг маънодаги туғма ҳусусият бўлиб у ўзида англанган ва англанмаган ҳимоя техникаларини акс эттиради.

Р.Лазарус копинг хулқ-атвортага пассив психологик ҳимоя сифатида қараб, ҳимоя механизмлари ҳамда копинг механизмлари ўртасидаги параметрларни дифференциatsиялаб, белгилаб чиқсан:

1) Вақтингчалик йўналганлик. Ҳимоя қоидасига биноан вазиятни “хозир” ҳал қиласи, актуал вазият кейинги вазиятга ҳеч қандай алоқаси бўлмайди, яъни, актуал психологик ҳимоя актуал психологик комфортга ҳизмат кўрсатади;

2) Инструментал йўналганлик. Бунда ҳимоя фақатгина ўзи ҳақида “ўйлайди”, агар унинг қизиқишилари теварак-атрофга йўналганда ҳам у биринчи навбатда ўзининг қизиқишиларини мухокама қиласи;

3) Мақсад-функцияли аҳамияти. Бунда механизм атроф-муҳит ва инсонлар билан муносабатлардаги бузулишлар функциясини назорат қила оладими (копинг хулқ-атвор) ёки, фақат эмоционал ҳолатни назорат қилиш функциясини амалга оширадими (ҳимоя механизмлари);



4) Бошқарувнинг модаллиги. Маълумотларни қидиришдаги ҳаракатнинг ўрни тўғридан-тўғри амалга ошадими, рефлексия (копинг хулқ-авторга алоқадор) ёки босим остида вужудга келадими ва ҳ.к.

Психологик ҳимоя ва англанган копинг стратегияларини чегаралаш учун В.А.Ташликов анализ тизимини қуийдагича талқин қиласди:

1. Инерсиаллик. Психологик ҳимоя механизми ригид (статик) вазият талабига мослашмаган. Ўз-ўзини назорат қилишнинг англанган техникаси эса пластик ва вазиятта мослашган бўлади.

2. Бевосита ва кечикирилган эффектлар. Психологик ҳимоя механизmlари юзага келган хиссий зўриқиши имкон қадар жадалроқ камайтиришга ҳаракат қиласди. Инсон ўзи англаган назоратдан фойдаланиш орқали эса балки кўпроқ қайғуришга ва ҳаттоқи баъзида сиқилишга олиб келиши ҳам мумкин.

3. Тактик ва стратегик эффектлар. Психологик ҳимоя механизmlари “калтабинлик”, (“шу ерда ва ҳозир” принципига қўра) фақатгина сўзлашув жараёнидагина зўриқиши бартараф мумкин, бунда копинг стратегиялари эҳтимолий ҳисобида қаралади.

4. Объектив вазиятни идрок қилишдаги турли ўлчовлар. Психологик ҳимоя механизmlари ҳақиқий ҳолатни нотўғри идрок қилишга олиб келади. Ўз-ўзини назорат қилиш реал идрок ҳамда ўзига объектив муносабатда бўлиш қобилияти билан алоқадор.

Копинг стратегия ва усуллари ҳимоя меҳанизмларидан фарқланганда конструктив фаол зарурат назарда тутилади ва вазият орқали ёқимсизликлардан четлашишга ҳаракатдир. Психологияда копингнинг предмети мавжуд бўлиб, у маҳсус тадқиқот худудида инсондаги эмоционал механизм ва ратсионал регуляцияни ўрганишда ўзининг мақсадли оптимал хулқ-авторига кўра ҳаётий ҳолатларни ўзининг мақсадларига мувофиқ қайта қуришни амалга оширади.

Шахснинг ўзини ўзи ҳиссий баҳолаш жараёни ўзини ўзи турли хил кўнгилсизликлардан, муваффақиятсизликлардан ва экстремал вазиятлардан маълум даражада ҳимоя қилиш учун муҳим аҳамият касб этади. Айниқса ўсмирлик даврида бу жараёнга жиддий қараш керак бўлади. Шуни ҳисобга олиб ўсмирларда ўзини-ўзи ҳиссий баҳолаш ва психологик ҳимоя имкониятлари ўртасидаги



мутаносиблик билан боғлиқ ижтимоий психологияк омилларни эмпирик жиҳатдан ўрганиш ва шартли равишда қабул қилинган мезонлар асосида унинг натижаларини таҳлил қилиш кўзда тутилган эди. Яна шуни таъкидлаш жоизки, баъзан ҳар бир ўсмир, ўз ҳиссий табиати ва унинг фаолият самарадорлигига хизмат қилувчи психологик ҳимоя имкониятларига адекват баҳо бера олишга маълум маънода “ожизлик” қилиши мумкин. Бизнингча, бундай “ожизлик” замарида ҳиссий қониқмаслик, ҳиссий безовталиқ, ўз-ўзига нисбатан ноадекват ҳиссий тасаввурлар шаклланади.

Табиийки, бу шаклланиш шахс ижтимоий фаоллигига, ўқув фаолияти унумдорлигига аста-секин салбий таъсири эта бориши мумкин. Буни ўз вақтида англаш учун эса биз юқорида таъкидлаган Рикс-Уэссман тестини ҳамда шунга мос бўлган қўшимча саволномаларни қўллаб, тегишли эмпирик натижаларни қўлга киритишини режалаштирган эдик. Энди бевосита мазкур методикалар ёрдамида олинган эмпирик маълумотлар таҳлилига ўтамиз.

Ўсмирларнинг экстремал вазиятларда ўзини ўзи ҳиссий баҳолаш доирасидаги психологик ҳимоя мезонлари намоён этилишишининг ўртacha умумий кўрсаткичлари (Рикс- Уэссман). 5- синф (100 нафар)

Объект	Мезон							
	I		II		III		IV	
	A	Б	А	Б	А	Б	А	Б
%	52.8	47.2	52.5	47.5	57.4	42.6	51.0	49.0

Жадвалга изоҳ:

- Хотиржамлик – асабийлик “а” – “б”
- Файрат – шижаатлилик – тортинчоқлик “а”- “б”
- Ҳиссий кўтаринкилиқ -ҳиссий тушкунлик “а” - “б”
- Ўз – ўзига ишонч – ўз – ўзига ишончсизлик “а” - “б”

Ўсмирларнинг экстремал вазиятларда ўзини ўзи ҳиссий баҳолаш доирасидаги психологик ҳимоя мезонлари намоён этилишишининг ўртacha умумий кўрсаткичлари (Рикс- Уэссман) 9- синф (100 нафар)

Объект	Мезон							
	I		II		III		IV	
	A	Б	А	Б	А	Б	А	Б
%	42.7	57.3	46.5	53.5	48.5	51.5	56.2	43.8



Жадвалга изоҳ:

1. Хотиржамлик – асабийлик “а” – “б”
2. Ғайрат – шиҷоатлилиқ – тортиңчоқлик “а” - “б”
3. Ҳиссий кўтаринкилиқ -ҳиссий тушкунлик “а” - “б”
4. Ўз – ўзига ишонч – ўз – ўзига ишончсизлик “а” - “б”

Олинган маълумотларнинг хилма-хиллиги ва хавотирлик даражаларининг турли-туманилиги Ч.Д.Спилберг томонидан яратилган “Реактив ва шахсий хавотирлик шкалаларини ўрганувчи методика”си бўйича шахснинг реактив ва шахсий хавотирлик даражасининг экстремал вазиятларда психолого-химоя механизмига диапазонидаги ўратача қиёсий-типик кўрсаткичлари динамикасини аниқлашга муваффақ бўлди. Бунга кўра, тадқиқотда иштирок этган 5-синф ўқувчиларнинг (жами 100 нафар, шундан 50 нафар қизлар, 50 нафар йигитлар) 11 фоизида паст, 19 фоизида ўртача, 70 фоизида юқори даражада реактив хавотирлик даражаси намоён бўлди. Шундан қизларда (жами 50 нафар) 7 фоизида паст, 11 фоизида ўртача, 30 фоизида юқори даражада реактив хавотирлик дажараси, йигитларда (жами 50 нафар) 4 фоизида паст, 8 фоизида ўртача, 38 фоизида юқори даражада реактив хавотирлик дажараси устунлик қилди. Тадқиқотда иштирок этган 9-синф ўқувчиларнинг (жами 100 нафар, шундан 50 нафар қизлар, 50 нафар йигитлар) 14 фоизида паст, 28 фоизида ўртача, 38 фоизида юқори даражада реактив хавотирлик дажараси намоён бўлди. Шундан қизларда (жами 50 нафар) 6 фоизида паст, 13 фоизида ўртача, 31 фоизида юқори даражада реактив хавотирлик дажараси, йигитларда (жами 50 нафар) 8 фоизида паст, 15 фоизида ўртача, 37 фоизида юқори даражада реактив хавотирлик дажараси устунлик қилди.


Тадқиқотда иштирок этган 5-синф ўқувчиларнинг (жами 100 нафар, шундан 50 нафар қизлар, 50 нафар йигитлар) 18 фоизида паст, 26 фоизида ўртача, 58 фоизида юқори даражада шахсий хавотирлик даражаси намоён бўлди. Шундан қизларда (жами 50 нафар) 10 фоизида паст, 14 фоизида ўртача, 26 фоизида юқори даражада шахсий хавотирлик дажараси, йигитларда (жами 50 нафар) 8 фоизида паст, 12 фоизида ўртача, 30 фоизида юқори даражада реактив хавотирлик дажараси устунлик қилди. Тадқиқотда иштирок этган 9-синф ўқувчиларнинг (жами 100 нафар, шундан 50 нафар



қизлар, 50 нафар юқори даражада реактив хавотирлик джараси намоён бўлди. Шундан қизларда (жами 50 нафар) 13 фоизида паст, 15 фоизида ўртача, 22 фоизида юқори даражада шахсий хавотирлик джараси, йигитларда (жами 50 нафар) 8 фоизида паст, 9 фоизида ўртача, 33 фоизида юқори даражада реактив хавотирлик джараси устунлик қилди.


5-синф ўқувчиларида реактив хавотирлиқ даражаси % ҳисобида

Иштирокчилаар даражада	Жами (100 нафар)	Қизларда (50 нафар)	Йигитларда (50 нафар)
Паст	11	7	4
Ўртача	19	11	8
юқори	70	32	38




5-синф ўқувчиларида шахсий хавотирлик даражаси % ҳисобида

Иштирокчилаар даражада	Жами (100 нафар)	Қизларда (50 нафар)	Йигитларда (50 нафар)
Паст	18	10	8
Ўртача	26	14	12
юқори	58	26	30




9-синф ўқувчилари дареактив хавотирлик даражаси % ҳисобида

Иштирокчилар даража	Жами (100 нафар)	Қизларда (50 нафар)	Йигитларда (50 нафар)
Паст	14	6	8
Ўртача	28	13	15
юқори	58	31	27




9-синф ўқувчиларида шахсий хавотирлик даражаси % ҳисобида


Иштирокчилар даража	Жами (100 нафар)	Қизларда (50 нафар)	Йигитларда (50 нафар)
Паст	21	13	8
Ўртача	24	15	9
юқори	55	22	33



Реактив хавотирлик даражаси % ҳисобида 5 – 9-синфлар ўртасидаги фарқ



Шахсий хавотирлик даражаси % ҳисобида 5 – 9-синфлар ўртасидаги фарқ



Умуман, шахсдаги хавотирланиш ҳусусиятлари ва психологияк ҳимоя имкониятлари мутаносибилигининг ўртача умумий ва қиёсий типик кўрсаткичлари таҳлил килинганда 9 синф ўқувчиларига



нисбатан 5 синф ўқувчиларида ҳам шахсий, ҳам реактив хавотирлик даражаси ҳам юқори эканлигини кўрсатади.

Демак, таълим муассасаларининг раҳбарлари, мактаб ўқитувчилари, психологлари, синф раҳбарлари ва ота-оналар бу ҳолатни инобатта олган ҳолда таълим-тарбия ишларини тўғри йўлга қўйишлари талаб қилинади. Акс ҳолда экстремал вазиятларда шахснинг психологик ҳимоя имкониятлари пасайиб кетиши мумкинлигини қайд қилиш лозим.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Додонов Б.И. Эмоции как ценность. Москва. Наука, 1978. – 360 с.
2. Дубровина И.В. Общие вопросы организаций и деятельности школьной психологической службы // Рабочая книга школьного психолога.-М.: Просвещение, 1991. Ч. 1. – С. 6-64.
3. Лупьян Я.А. Барьеры общения, конфликты, стресс. – Минск: Вишэйшая школа, 1986. – 206с.
4. Магомед-Эминов М.Ш. Трансформация личности. М.: Психоаналитическая Ассоциация, 1998.-496 с.
5. Узнадзе Д.Н. Экспериментальные основы психологии установки. Тбилиси. 1961.-212 с
6. Фрейд З. Психология бессознательного: Сборник. Произведение /Сост. и науч. ред. М. Т. Ярошевского.-М.: Просвещение, 1990.-448 с.

### **MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

*Ostonov Jasur Shopirjonovich*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri*

*[jasurostonov19892021@gmail.com](mailto:jasurostonov19892021@gmail.com)*

*ORCID: 0000-0002-1629-6980*



## AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING BA'ZI JIHATLARI

Akbarov Umidjon Qodirbayevich

*Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Mazkur maqolada bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot sohasi, unda uchrab turadigan turli xavflar va axborot-psixologik xafsizlikni ta'minlash to'g'risidagi ayrim masalalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, mavzu doirasida ilgari surilgan axborot-psixologik xafsizlik tushunchasi va uning tamoyillari yoritilgan.

**MAQSAD:** Bugunki kunda tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan shiddatli va ayni paytda o'ta murakkab zamonda yashamoqdamiz. Mutaxassislar bu tezkor davrni «ommaviy axborotlashuv» deb atashmoqda.



**MATERIALLAR VA METODLAR:** Axborot xavfsizligi deganda, jamiyatni insonlar, tashkilotlar va davlat manfaatlari asosiy shakllanishi va rivojlanishini ta'minlovchi axborot makonining himoyalanganlik darajasi tushuniladi. Axborot tahdidi esa, jamiyat axborot makonining ishlashiga xavf tug'diruvchi omil yoki omillar birligidir.

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi esa bu jamiyatni, uning alohida guruhlari va shaxslarni axborotning destruktiv shakl va turlarining salbiy ta'siridan himoya qilish maqsadida barcha mavjud axborot resurslaridan samarali foydalanish demakdir.

**XULOSA:** Hozirgi paytda er yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqeа yuz bermasin, odamzod bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana bir bor xalqimizning ma'naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

**Kalit so'zlar:** Axborot, jamiyat axborot makoni, axborot-psixologik xavfsizlik, konfidensiallik, axborot xavfsizligi, axborot tahdidi, ochiqlik, xavf tug'diruvchi omil.

## НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ.** В данной статье затрагивается информационное поле, которое сегодня стремительно развивается, различные риски, встречающиеся в нем, а также некоторые вопросы обеспечения информационной и психологической безопасности. Также в рамках темы освещено понятие информационно-психологической безопасности и ее принципы.

**ЦЕЛЬ:** Сегодня мы живем в быстро меняющееся, жестокое и в то же время чрезвычайно сложное время, которое радикально отличается от тех времен, которые человечество пережило до сих пор. Эксперты называют этот бурный период «публичной информатсией».



**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Под информационной безопасностью понимается уровень защищенности информационного пространства, обеспечивающий основное формирование и развитие общества, людей, организаций и государственных интересов. Информационная угроза – это фактор или группа факторов, угрожающих функционированию информационного пространства общества.

Понятие информационно-психологической безопасности означает эффективное использование всех доступных информационных ресурсов в целях защиты общества, его отдельных групп и индивидов от негативного воздействия деструктивных форм и видов информации.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Не секрет, что что бы ни происходило в любом уголке земли, об этом тут же узнают в другом уголке мира. Учитывая такую ситуацию, еще раз защитить духовный мир нашего народа от подобных угроз, дойти до сути процессов, происходящих на международной арене в нынешнее крайне сложное время, иметь о них беспристрастное и независимое мнение. задача сегодняшнего дня. Не будет ошибкой сказать, что это самая неотложная задача.

**Ключевые слова:** Информация, информационное пространство общества, информационно-психологическая безопасность, конфиденциальность, информационная безопасность, информационная угроза, открытость, фактор риска.

## SOME ASPECTS OF PROVIDING INFORMATIONAL AND PSYCHOLOGICAL SECURITY

### **Annotation.**

**INTRODUCTION:** In this article, the information field, which is developing rapidly today, various risks encountered in it, and some issues of ensuring information and psychological security are mentioned. Also, the concept of informational-psychological security and its principles are highlighted within the topic.

**AIM:** Today, we are living in a rapidly changing, violent and at the same time extremely complex time, which is radically different from the times that humanity has experienced so far. Experts call this rapid period "public information".



**MATERIALS AND METHODS:** Information security means the level of protection of the information space, which ensures the basic formation and development of society, people, organizations and state interests. An information threat is a factor or group of factors that threaten the functioning of the information space of society.

The concept of information and psychological security means the effective use of all available information resources in order to protect society, its individual groups and individuals from the negative effects of destructive forms and types of information.

**CONCLUSION:** It is no secret that no matter what happens in any corner of the earth, people will immediately find out about it in the other corner of the world. Taking into account such a situation, once again to protect the spiritual world of our people from such threats, to reach the essence of the processes taking place in the international arena in today's extremely complicated times, to have an impartial and independent opinion about them is the task of today. It would be no mistake to say that it is the most urgent task.

**Key words:** Information, society information space, information-psychological security, confidentiality, information security, information threat, openness, risk factor.

*XXI* asr “Axborot texnologiyalar” asri ekanligi barchamizga ayondir. Albatta, bu texnologiyadan jamiyatimizdagi barcha fuqaro foy-dalanishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida “Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin”, - deya asosiy qonunimiz bilan belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan shiddatli va ayni paytda o'ta murakkab zamonda yashamoqdamiz. Mutaxassislar bu tezkor davrni «ommaviy axborotlashuv» deb atashmoqda.



Boisi, er yuzining qaysidir bir chekkasida yuz bergan voqeadan bir necha soniya ichida butun dunyo ahli xabar topmoqda. Bu esa shubhasiz matbuot va ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli nechog'li oshib borayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan aytganda, har qanday matbuot jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar, o'zgarishlar, yangilanishlarni to'laligicha, xolis va haqqoniy aks ettirmog'i kerak. Biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, dastlabki o'rinda axborot xurujlaridan himoyalanish yo'llarini ishlab chiqishimiz kerak, deb o'ylayman. Xalqimizda mafkuraviy immunitetri qaror toptirish axborot xurujlaridan himoyalanishda ahamiyatlidir. Buning uchun esa Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevorlari bo'l mish yoshlar ongida sog'lom hayot tarzini barpo etish, milliy va umummilliy qadriyatlarga nisbatan ehtirom, izzat-ikrom singari ezgu fazilatlarni singdirishimiz kerak.

Axborot xavfsizligi deganda, jamiyatni insonlar, tashkilotlar va davlat manfaatlari asosiy shakllanishi va rivojlanishini ta'minlovchi axborot makonining himoyalanganlik darajasi tushuniladi. Axborot tahdidi esa, jamiyat axborot makonining ishlashiga xavf tug'diruvchi omil yoki omillar birligidir.

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi esa bu jamiyatni, uning alohida guruhlari va shaxslarni axborotning destruktiv shakl va turlarining salbiy ta'siridan himoya qilish maqsadida barcha mavjud axborot resurslaridan samarali foydalanish demakdir. Axborot-psixologik xavfsizlik OAVlarda beriladigan axborot-ma'lumotlarda intellektual reduksiya, jaholat va soddalikni, insonlarni bog'lab qo'yuvchi, agressiya reklama, shuningdek, ochiq va yashirin tarzda shafqatsizlik va kuch ishlalisti, narkomaniya, alkogolizm, jamiyatga qarshi xatti-harakatlar, milatchilik, irqchilik, diniy, sinfiy kamsitish va murosasizlik alomatlarini bo'lmasligini taqozo etadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

**Konfidensiallik** – axborot olish imkoniyati yoki uni begona shaxslar, tashkilot yoki jarayonlarga ovoza qilishni cheklovchi xususiyat.

**Ochiqlik** – vakil shaxs talabi bilan iste'mol qilishga yaroqlilikni anglatuvchi xossa.



Salbiy axborot-psixologik xavfsizlik deganda inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib shaxs, jamiyat va davlat uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi ta'sir ko'rsatishning maxsus vosita va metodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan inson yoki shaxslar guruhiga ta'sir ko'rsatish tushuniladi.

Salbiy axborot-psixologik xavfsizlik ta'sir vositalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- inson salomatligiga zarar etkazish;
- ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish;
- insonni siyosiy, madaniy, ahloliy o'z-o'zini identifikasiya qilish qobiliyatini yo'qotishi.

Axborot-psixologik xavfsizlikning ta'sir vositalari quyidagilardan iborat:

1) Maxsus ta'sir vositalari – inson yoki shaxslar guruhiga salbiy axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaniladigan texnik va dasturiy vositalar.

2) Maxsus ta'sir metodlari – oqibatlari shaxs, jamiyat va davlat uchun salbiy natijalarga olib keladigan inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishning usullari ketma-ketligi, davomiyligi.

Axborotga muayyan voqeа-hodisalar to'g'risidagi xabar yoki ma'lumot, ularni tushuntirish, tushunish va idrok etishda qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtida yangi, keng ma'no kasb etayotgan tushuncha sifatida ta'rif beriladi.

Axborotlarni aniq maqsadda yig'ish, saqlash, tizimlarga ajratish va ulardan ommaviy tarzda foydalanishda texnik, dasturiy, algoritmik ishlar va ularning tashkiliy vositalari beqiyos ahamiyatga ega. Axborotlashtirilgan jamiyatning har bir bo'g'inida axborotlar bankiga murojaat qilinadi va shu asosda zamonaviy ta'lim texnologiyalari yaratiladi va ta'lim-tarbiya jarayondarini optimal boshqarish imkoniyati vujudga keladi.

Mamlakatning axborot xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy maqsadlari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:



- ko'pgina axborot jarayonlarining tobora ortib borayotgan global-lashuvi, jahon axborot tarmoqlarining shakllanishi, rivojlangan mamlakatlarning axborot makonida domenantlikka ishtilishi sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvinin organlari, tashkilot, korxonalar ham fuqarolarning faoliyatlari uchun zarur bo'lgan axborotni to'liq va hech bir to'siqlarsiz olishlari uchun imkoniyatlar yaratish;

- axborot resurslarining yaxlitligi, saqlanishining buzilish va noqonuniy foydalanishining oldini olish va boshqalar.

Yaqin keljakda globallashuv jarayonining yanada kengayib borishi oqibatida jahon mamlakatlarining informatsion hayat tarziga o'tishi bilan ushbu masala yana-da dolzarb tus olishi muqarrar.

Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun bir qator chora-tadbirlar qilinishi zarur. Xususan, shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlovchi kuchli qonunchilik asosini yaratish va ularni amaliyotda ishlash mexanizmlarini hamda axborot xurujlariga qarshi tura oladigan huquqiy asoslarni shakllantirish, davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus tadbirlarni o'tkazish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yoshlarda axborot bilan ishlash madaniyatini oshirish, ularda axborot olish, uni qayta ishlash, saqlash kabi malakalarini oshirish uchun kuchli bilim hosil qilish ham katta ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, tarixan qisqa davr ichida O'zbekiston bir qancha rivojlangan mamlakatlar e'tiboriga tushganining guvohi bo'lib turibmiz. Bu hozirgi kunda ta'lim, iqtisod, sport va boshqa shu kabi sohalarda erishayotgan ko'plab yutuqlarimiz orqali o'z isbotini topmoqda. Ta'kidlash kerakki, mana shunday yuksalish, rivojlanish, taraqqiyot ildiz otayotgan makonda, albatta, jamiyat a'zolarini ma'naviy tanazzulga, ma'naviy bo'hronlar va boshqa turli xil tuban ishlarga undovchi kuchlar paydo bo'ladi. Chunonchi, bugungi hayotimizni internetsiz tasavvur eta olmay siz. Chunki yuqorida aytib o'tilgan soha o'zida juda katta darajadagi axborot sig'imini qamrab olganki, ulardan rangba rang ma'lumotlar, axborotlarni qulay va tez sharoitda olish imkoniyatiga egamiz. Lekin masalaning yana bir e'tiborli va ayni mahalda eng dolzarb tomoni borki, u ham bo'lsa internet va shu singari zamonaviy telekommunikatsiya



texnologiyalaridan foydalangan holda keng jamoatchilik, ayniqsa, endigina o'sib unib kelayotgan, hali qalbi shuuri evrilishlarga tez berilib ketadigan yoshlarni ma'naviyati hamda ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotganligi kishini larzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, internetning ta'lim sohasiga kirishi va uni ta'lim jarayonida qo'llanilishi uchun yoshlarimiz ongida ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirishimiz lozim. Ayniqsa pedagoglar o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda quyidagi jihatlarni hisobga olishlari lozim:

- o'quvchilarni ommaviy axborot vositalari materiallarini o'qish, o'rganish va ularni amalda qo'llashda samarali foydalanishlari uchun ularni ruhiy jihatdan tayyorlash, yo'naltirish;

- o'quvchilarda ommaviy axborot vositalari materiallariga nisbatan to'g'ri ijobjiy munosabatni ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy dunyoqarashni tarkib toptirish;

- ommaviy axborot vositalari materiallarini to'g'ri idrok etishlari uchun tushuntirishlar olib borish;

- ota-onalar ham yoshlarga oilaviy tarbiya jarayonida ommaviy axborot vositalari materiallarini to'g'ri tahlil qilib, erkin mustaqil fikrlovchi sifatidagi ko'nikmalarni shakllantirib borishlari maqsadga muvofiq.

Hozirgi paytda er yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqeа yuz bermasin, odamzod bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana bir bor xalqimizning ma'naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: состояния и возможности психологической защиты. М.:Изд-во РАГС.1998.стр.19.

2. Ф.Б.Шоумаров, И.О.Хайдаров, Н.А.Софинов "Оила психологияси" Тошкент 2015 й.



3. Kadyrov U.D., Kadyrov G.U. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. Science and innovation international scientific journal. Volume 3 | March, 2024.

4. Кадыров У.Д., Авазов К.Х. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества//Интернаука.2021. No 3-1 (179). С. 53-54.

5. Войскунский А.Е. Актуальные проблемы зависимости от интернета. Психологический журнал. - М.: Наука, 2004 - т.25. № 1. – С.90 – 100.

6. Kadirov U. FACTORS AND IMPORTANCE OF FORMING PERSONAL CONSCIOUSNESS IN THE INFORMATION SOCIETY. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 18, | November,2023.

7. Husanov A.M. Kiberhujumlardan saqlanish va shaxsning o'z-o'ziga munosabatini empirik o'rganish natijalari // Zamonaviy ta'lif ilmiy-amaliy ommabop jurnal. – Toshkent, 2023. № 1 (122). – B. 25-29. (19.00.00. 2023. № 1 (122)).

8. Қодиров, У. (2023). Психологик хизмат – замонавий таълим тизимининг ажралмас таркибий қисми. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 21–24. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23460>

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Akbarov Umidjon Qodirbayevich*

*Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi,*

*Manzil: O'zbekiston, 200100, Termiz shahri*



## DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



*Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi  
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada jamiyatda deviant xulq-atvorli shaxslar qanday shakllanishi, sabablari, o'smirlarda deviant xulq-atvorni vujudga keltiruvchi motivlar haqida fikr yuritilib, pedagoglar, ma'naviyat targ'ibotchilari hamda psixologlar yoshlari tarbiyasiga e'tibor berishlari muhim jihatlar haqida so'z boradi.

**MAQSAD:** O'smirlarning psixologiyasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan deviant xulq-atvorning har qanday belgilaridan ogoh bo'lishda



pedagoglar, psixologlar va albatta, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Rivojlanish bosqichlaridan aynan o'smirlik davrida vujudga keladigan psixologik o'zgarishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'plab chet el olimlarining xulq-atvor haqidagi fikrlari va ular ichidan o'smirlarga xos xususiyatlarni ajratib olsak, bu davr o'smirlarga yanayam e'tiborliroq bo'lishni talab etishi bilan farqlanadi.

**XULOSA:** Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy o'rnlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga e'tibor berish lozim. Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'proq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqeа-hodisalar haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada etakchi profilaktik vazifa sifatida mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevish va sevimli bo'lishga qobiliyatni rivojlantirish, o'zini band qilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish chiqadi.

**Kalit so'zlar:** deviant, o'smirlilik, immitatsiya, g'amxo'rlik, tarbiyaviy funksiya, oilaviy tarbiya, oilaviy muammolar, nizolar, huquqbuzarlik, affektiv soha, disfunktional, emotsional holat, agressiv xulq-atvor, oilaviy munosabatlar.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ.

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье рассматривается формирование в обществе людей с девиантным поведением, причины, мотивы, вызывающие девиантное поведение подростков, а также важные аспекты, на которые следует обращать внимание педагогам, духовным пропагандистам и психологам в воспитании молодежи.

**ЦЕЛЬ:** Он заключается в разработке рекомендаций педагогам, психологам и, конечно, родителям по осознанию любых признаков девиантного поведения, которые могут появиться в психологии подростков.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Из этапов развития можно выделить психологические изменения, происходящие в



подростковом возрасте. Если выделить мнения многих зарубежных ученых о поведении и особенностях подростков, то этот период отличается тем, что требует уделять больше внимания подросткам.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Необходимо обратить внимание на среду семейного воспитания, которая является одним из основных средств профилактики отклонений в поведении и нарушений обучения у молодежи. Родителям рекомендуется больше общаться со своими детьми, учитывая особенности их возраста, рассказывать об интересующих их событиях. Раннее воспитание устойчивых интересов, развитие умения любить и быть любимым, формирование навыков самостоятельной деятельности и труда является ведущей профилактической задачей семейного воспитания.

**Ключевые слова:** девиант, подростковый возраст, подражание, забота, воспитательная функция, семейное воспитание, семейные проблемы, конфликты, делинквентность, аффективная сфера, дисфункциональное, эмоциональное состояние, агрессивное поведение, семейные отношения.

## SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR.

### Annotation.

**INTRODUCTION:** This article discusses the formation of people with deviant behavior in society, the reasons, the motives that cause deviant behavior in teenagers, and the important aspects that pedagogues, spiritual promoters and psychologists should pay attention to in the education of young people.

**AIM:** It consists in developing recommendations for pedagogues, psychologists and, of course, parents to be aware of any signs of deviant behavior that may appear in the psychology of adolescents.

**MATERIALS AND METHODS:** From the stages of development, it is possible to single out the psychological changes that occur during adolescence. If we distinguish the opinions of many foreign scientists about the behavior and characteristics of teenagers, this period is different in that it demands to pay more attention to teenagers.



**CONCLUSION:** It is necessary to pay attention to the environment of family education, which is one of the main means of preventing behavior deviations and educational disorders in young people. Parents are recommended to communicate more with their children, taking into account the characteristics of their age, to talk about the events that interest them. Early education of strong interests, development of the ability to love and be loved, formation of self-employment and work skills is the leading preventive task in family education.

**Key words:** deviant, adolescence, imitation, care, educational function, family education, family problems, conflicts, delinquency, affective sphere, dysfunctional, emotional state, aggressive behavior, family relations.

*Yoshlar oʻrtasida deviant xulq-atvorning rivojlanishi bilan jamiyatda jinoyatchilikning kuchayishi oʻrtasida bevosita bogʼliqlik bor deyish mumkin. Asosan oʼsmirlarda deviant xatti-harakatlarning rivojlanishi bilan noqonuniy xatti-harakatlar bilan shugʼullanish istagi ortib bormoqda. Aynan shunday holatlar tufayli barcha taʼlim muassasalarida profilaktika ishlari yoʼlga qoʼyilishi yuqorida taʼkidlangan koʼngilsiz holatlarni oldini olishda samarali echim boʼla olardi.*

Deviant xatti-harakatlarning oldini olish va uning sabablarini bartaraf etishda holatga addekvat baho bera oladigan, yoshlarning ichki motivlarini tushunadigan maʼnaviyat targʼibotchilari, psixologlar, va shuningdek holatga befarq boʼlmagan aholining faol qatlami orqali yordam bera olishimiz mumkin. Deviant xulq-atvorli deb baholanadigan yoshlarni tarbiyalashda eʼtiborga olinishi kerak boʼlgan ijtimoiy, biologik va psixologik omillar mavjud.

Hozirgi davrda deviant xulq-atvorning sababi oʼsmirlarning tarbiyalanishidagi kamchiliklar, oʼsmirlarning ijtimoiy tabaqalanishi, boʼsh vaqtdan unumli foydalana olmaslik, irodasizlik kabi koʼplab sabablarni koʼrsatish mumkin. Shu asosda tanqid, janjal, asabiy buzilish, huquqbuzarlik va uydan qochish bilan yakunlanadigan psixologik siljish mavjud.

Agar oʼsmir “koʼcha” muhitiga tushib qolsa, unda u salbiy istaklarni va kattalar xulq-atvoriga xos boʼlgan xohishni tez shakllanishini koʼrishimiz mumkin. Bu “koʼcha” hayoti erta jinsiy tajriba, giyohvandlik va spirtli ichimliklarni isteʼmol qilishni talab qiladi. Bunday hodisalarning



asosiy sababi ota-onalarning eʼtiborsizligi, bolalar bilan ochiq suhbat qilmaslik, beparvolik, ularning xohish istaklari bilan hisoblashmaslikdir. Shuning uchun deviant xatti-harakatlarning dastlabki belgilarida oʼqituvchilar ota-onalari bilan muloqot qilishlari va oiladagi muhitni aniqlashlari kerak.

Deviant xulq-atvor muammosi zamonaviy dunyoda ayniqsa dolzarbdir. Iqtisodiy tengsizlik, ommaviy globallashuv, axborotdan erkin foydalanish, va uning jadal rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy hodisalar koʼpincha oʼsmirlar muhitida salbiy reaktsiyalarga yoki immitatsiyalarga olib keladi.

Deviant xulq-atvorli oʼsmirlarning yaqinlari atrofdagilari bilan oʼzaro munosabatlaridagi qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklar vujudga kelishining asosiy sababi sifatida yosh davrlari orasidagi nomutanosiblik deyish ham可能。Avvalo shuni aytish kerakki, hozirgi zamonomiz yigit-qizlarining oʼsmirlik davri asosan oila, mahalla, mактаб, turli taʼlim muassasalari, sport toʼgaraklaridan tashqari koʼproq ijtimoiy tarmoqlarda va koʼngilochar jamoalarda oʼtmoqda. Bu masʼuliyat zanjirining halqalaridan biri zaif boʼlsa, oʼsmirga ham xuddi shunday eʼtibor, hurmat, gʼamxoʼrlik va mehr etmasa u kerakli eʼtiborni koʼchadan izlay boshlaydi. Va yana agar u qoʼlga kiritilgan nazoratni his qilmasa, u boshqa narsalar haqida oʼyay boshlaydi. U oʼzining dunyoqarashi, intilishlari, oʼzini idrok etishi jihatidan kattalarga taqlid qilishga harakat qiladi, ichishni, chekishni, boshqalardan kuchliroq boʼlishni xohlaysi.

Bola tarbiyasida, ijtimoiy meʼyorlar talabi asosida tarbiyalashning eng muhim, eng birinchi ijtimoiy nazorat instituti bu oiladir. Chunki farzand tarbiyasi beshikdan boshlab, barkamol komil inson boʼlib shakllanishida nikohli sogʼlom oila muhitining oʼrni benihoya katta va salohiyati cheksizdir. Har bir farzand inson boʼlib, shaxsga aylanishining dastlabki manbai ota-onaga, oilaga, bevosita bogʼliqidir. Insondagи xulq-atvor, axloq-odobning dastlabki normalari oilada shakllanib, mактаб, mahallada, jamoatchilik oʼrtasida taʼlim-tarbiya tizimi faoliyati jarayonida takomillashadi, insoniy fazilatlari shakllanib takomillashib komil insoniylik darajasigacha koʼtarilib boradi, agar aksi namoyon boʼlsa buzgʼunchi, tajaovuzkor shaxsga aylanib qoladi.

Maʼlumki har bir oilada bolalarni muayyan tarbiyalash usullarining oʼziga xosligi mavjud. Ushbu holatlarda ota-onalarning xulq-atvori alohida



o‘rin tutadi va bu bolaning ijtimoiylashuviga ta’sir etadi. Mazkur holatda oiladagi tartib-intizom, o‘zaro muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. Masa-lan deviant va tajovuzkor xulqli farzandlari bor oilalardagi tarbiya usullari o‘rganilganda, ota-onaning kayfiyatiga ko‘ra, ko‘p hollarda qattiqqo‘llik, jazolash, ota-onalik mehrining “tanqis”ligini namoyon qilish kabilar qayd etilgan. Deviant xulqli va ijobiy xulqli o‘quvchilarning oila sharoiti o‘rganil-ganda, deviantlilarning nomaqbul oilada tarbiyalanganliklari tasdiqlangan. Xulq og‘ishini kelib chiqishiga aloqador oilaviy va ijtimoiy omillar muam-mosiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning tahlili ko‘rsatishicha, ikki o‘zaro bog‘liq omil orasidagi;

- funksional yoki xulq-atvorga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi shaxslararo jarayonlar;

- bevosita ta’sir qiluvchi, o‘zida oila tarkibi hamda hajmini mujas-samlashtirgan tizimli jarayonlarga ajratish mumkin.

L.S.Vigotskiy fikricha, “O‘g‘ishgan xulq” o‘smirning qiyin xayotiy munosabatlar xarakterining yig‘indisidir. Bular avvalo qaysar, injiq, bolalar. Ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullari-dan biridir. Ularda ma’lum bir xususiyat intizomsiz, qo‘pol bo‘ladilar. Ularning faolligini maqsadga muvofiq o‘zgartirish, ularga ba’zi bir huquqlarni berish bilan ularga tasir o‘tkazish mumkin. Psixologiyada xulqi og‘ishgan o‘quvchilarning bir qancha klassifikatsiasi mavjud;

- 1-guruh ijtimoiy salbiy mustaxkam qarashlari ega bolalar,

- 2-guruh qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar,

- 3-guruh ijobiy va salbiy xulq atvor steriotiplari o‘rtasida ikkilanuvchi, o‘z holatlarini tushunuvchi bolalardir,

- 4-guruh irodali bolalarga bo‘ysinuvchilar,

- 5-guruh qonunbuzarlik yo‘liga tasodifan kirib qolganlar.

Ijtimoiy psixolog G.M.Andreyeva ijtimoiylashuvni quyidagicha ta‘ri-flagan. Ijtimoiylashuv bolalarning ijtimoiy me‘yorlik va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonini qamrab olgan, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni individ uchun bolalikda, ayniqsa, za-rur bo‘lsada, bu jarayon uning butun umri bo‘yi davom etadi. Birorta ham inson o‘ziga boshqa insonlarning o‘tkazadigan ta’sirisiz mavjud bo‘la olmaydi va bu uning xulq-atvorida turli hayotiy davrlarda ifodalanadi.

Yoshlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy o‘rinlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga e’tibor berish lozim. Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘proq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqeа-hodisalar



haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada etakchi profilaktik vazifa sifatida mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevish va sevimli bo'lishga qobiliyatni rivojlantirish, o'zini band qilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san'at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak. Yoshlar orasida, shuningdek, xulqi og'ishgan shaxslar, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik treninglarni ko'proq o'tkazish, ularda xarakter xislatlari va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali xulq og'ishini oldini olish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUN HUJJATLARI TO'PLAMI. — 2006-yil № 6. 99-M
2. G'oziyev E. G' "Psixologiya". T. 2008-yil.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
5. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

*Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi  
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi  
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri  
shaxnozanarziyeva772@gmail.com*



**OSIYO XALQARO  
UNIVERSITETI AX-  
BOROTNOMASI**  
**Ilmiy-nazariy va  
metodik jurnal**  
**1-son (2024-yil, aprel)**  
**Jurnal 2024-yildan  
chiqa boshlagan**

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng omaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Orginal maket uchun  
mas’ul:**  
**Mirshod SATTOROV**

**Maqolalarni qabul qi-  
luvchi:**  
**Ziyodullo ELOV**

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.

Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi  
24.04.2024

Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 11,25

Adadi – 10 nusxa

Buyurtma № 4  
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUXORO” DETER-  
MINANTI” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:  
Buxoro shahri Namo-  
zgoh ko’chasi  
24-uy.



<https://scientificjournal.uz/>



**ISSN**  
**ISSN 3030-3796**